


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY
VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

O'zbek adabiyoti o'qitish usuliyoti

o'zbek filologiyasi bakalavri ixtisosligi uchun usuliy qo'llanma



Buxoro - 2018

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

O'zbek adabiyoti kafedrası Buxoro Davlat universiteti

O'zbek adabiyoti o'qitish usuliyoti

O'zbek filologiyasi bakalavri ixtisosligi uchun usuliy
qo'llanma

Tuzuvchi: filologiya fanlari nomzodi Nazora Bekova,

Mas'ul muharir: filologiya fanlari doktori D.O'rayeva

Taqrizchilar:

filologiya fanlari nomzodi M.Rajabova

Mazkur usuliy qo'llanma universitet ijtimoiy-gumanitar fanlar o'quv-metodik kengashining 2018 yil 28 avgustdagi 1-son yig'ilishi qaroriga asosan chop qilishga tavsiya qilingan.

O'zbek adabiyoti o'qitish usuliyoti fanidan ma'ruza mavzulari

Jami 30 soat

№	Mavzular	Ajratilgan soat
1	Adabiyot o'qitish usuliyotining maqsad va vazifalari	2 soat
2	O'zbek adabiyotini o'qitish usuliyotining fan sifatida shakllanishi va rivojlanishi	2 soat
3	Adabiy ta'lim asoslari . yangi pedagogik texnologiya	2 soat
4	Adabiy ta'lim metodlari	2 soat
5	O'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish.	2 soat
6	Ijodkor tarjimai holini o'rgatish	2 soat
7	Badiiy asarni tahlil qilish usullari va turlari	2 soat
8	Epik asarlarni o'rgatish	2 soat
9	Lirik asarlarni o'rgatish	2 soat
10	Dramatik asarlarni o'rgatish	2 soat
11	Adabiy – nazariy tushunchalarni o'rgatish	2 soat
12	Ko'rsatmali quoldan foydalanish.	2 soat
13	Adabiyot bo'yicha sinfdan va maktabdan tashqari ishlar	2 soat
14	O'quvchilarning yozma nutqini o'stirish	2 soat
15	Adabiyot darslarida texnika vositalaridan foydalanish	2 soat

Kirish

O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi qonuni, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" va Vazirlar Mahkamasining "Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorida barcha o'quv fanlari, shu jumladan, adabiy ta'lim mazmunini tubdan yaxshilash dolzarb vazifalardan biri ekanligi ta'kidlangan. Adabiy ta'limning vazifasi sifatida: "oddiy o'quvchidan kitobxon o'quvchi, kitobxon o'quvchidan o'qiganlarini anglaydigan o'quvchi, anglaydigan o'quvchidan tahlil qila oladigan o'quvchi, tahlil qila oladigan o'quvchidan muayyan asar haqidagi fikrini og'zaki va yozma tarzda qiynalmay ifoda eta oladigan o'quvchi tarbiyalashdir", deb belgilab qo'yilgan. Maktabda adabiyot o'qitishdan maqsad o'quvchilarda ezgu ma'naviyat shakllantirishdan iboratdir. Adabiy ta'limdan komil shaxsni shakllantirish talab etiladi.

Ma'lumki, ta'lim sohasidagi islohotlar tufayli barcha o'quv fanlari qatorida adabiyot fanini o'qitishda ham turli o'zgarishlar sodir bo'ldi. O'zgarishlar nafaqat ta'limiy, balki tarbiyaviy jihatdan ham ro'y berdi, chunki "mavjud ta'lim tizimidagi ko'plab predmetlardan farqli o'laroq adabiyot tarbiyalanuvchilarning hayotiga faqat maktabda kirib kelmaydi, balki maktabni tugatgach ta'sir ko'rsatishni to'xtatib ham qo'maydi".¹

Yangilanish adabiyot fanining o'qitish mazmunini o'zgartirish bilan bir qatorda ko'proq bu fanni o'qitish metodikasini o'zgartirishni talab etadi. Shuning uchun bugungi kunda ta'lim jarayonida talab etilayotgan yangi pedagogik texnologiyaning mohiyati amaliyotda, xususan, adabiy ta'limda bola shaxsini bosh qadriyatga aylantirish, unga ta'lim jarayonining ob'ekti emas, sub'ekti sifatida yondashish, o'quvchi ma'naviyatini shakllantirish ustuvorligini ta'minlash, mustaqil fikrlashga o'rgatish, bolada bilim olishga qiziqish va ehtiyoj uyg'otish, unga kashf etish lazzatini his ettirish, adabiy ta'lim jarayonida adiblarning asarlarida ularning shaxsi u yoki bu darajada aks etganligini anglatish, asarlardagi qahramonlarning kechinmalari va xatti-harakatlariga qarab ularning shaxsini baholashga o'rgatish demakdir. Bu jarayonni amalga oshirishda o'qituvchining metodik mahorati o'ziga xos ahamiyatga ega. Chunki o'qituvchi ta'limning eng samarali usullaridan oqilona foydalanganidagina ko'zlagan maqsadiga erishishi mumkin. Maqsadga erishish ko'p jihatdan o'qituvchining shaxsiy fazilatlariga ham bog'liqdir.

Adabiy ta'limda badiiy matnni, uning zamirida yashirin sirli, jozibali ifodalarni va bu ifodalardan kelib chiqadigan mantiqiy ma'nolarni ilg'ash o'qituvchi uchun oson bo'lsa-da, hali hayot tajribasi kam, badiiyat olamining sir-sinoatlarini anglash malakasi shakllanmagan o'quvchi uchun ancha murakkab bo'lishi muqarrar. Shuning uchun ham o'qituvchi badiiy asar timsollarining ruhiy-hissiy holatlarini o'quvchilarga anglatish va o'quvchi yoshiga, ruhiga, o'zlashtira olishiga mos tarzda ularning ko'ngil mulkiga aylantiruvchi adabiy vositachi bo'lishi lozim. Barcha o'quvchilardan bir xil fikrlashni, bir xil xulosaga kelishni talab qilish o'quvchida fikr erkinligini bug'adi, fikrlamaslikka odatlantiradi.

Fikrlamaslik esa qaramlikdir. Mustaqil fikrlamagan bola shaxs bo'lib shakllana olmaydi. Bugungi kunning talabi esa yuksak tafakkur egasi—barkamol avlodni tarbiyalashdir.

Bugungi kunda qo'limizda mavjud bo'lgan adabiyotlar, dastur va qo'llanmalar yuqoridagi masalaning yechimini to'liq ta'minlay olmaydi. Bo'lajak adabiyot o'qituvchilarini maktab faoliyatiga tayorlash uchun metodik tavsiyalar juda kam. Bu esa bo'lajak o'qituvchidan ijodkorlikni, ishchanlikni talab etadi.

Shuning uchun oliy maktab talabasi pedagogik amaliyot davrida adabiy ta'limning zamonaviy metodlarini qo'llashga; o'quvchilar bilan hamkorlikda kechalar, musiqali uchrashuvlar, sayohatlar, davra suhbatlari, shoir va olimlar bilan uchrashuvlar kabi tadbirlarni uyushtirishga odatlantirib borilishi lozim.

Biz bu qo'llanmada adabiy ta'lim sohasiga oid yangiliklarni qamrab olish va imkon qadar umumlashtirishga harakat qildik

Mazkur qo'llanma oliy o'quv yurtlarining til va adabiyot fani o'qituvchilari va talabalariga, shu sohaga qiziquvchi keng kitobxon-lar ommasiga mo'ljallangan.

1-MAVZU: Adabiyot o'qitish metodikasining maqsad va vazifalari

REJA:

1. Adabiyot o'qitish metodikasi fan sifatida
2. Adabiyot o'qitish usulining boshqa fanlar bilan aloqadorligi
3. Adabiyotni boshqa ijtimoiy fanlar bilan bog'lab o'rganish
4. Adabiyot o'qitish metodikasining ilmiy-tadqiqot metodlari

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. Toshkent: «Sharq nashriyoti kontserni», 1999 .
2. Ahmadjon B., Islom odobi va madaniyati. Toshkent: «Cho'lpon», 1995 .
3. Zunnunov A., Hotamov N. Esonov J. Maktabda adabiyot o'qitish metodikasi. Toshkent: «O'qituvchi», 1993 .
4. Yo'ldoshev K. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. Toshkent: «O'qituvchi», 1996

1. Adabiyot o'qitish metodikasi fan sifatida

Adabiyot o'qitish usuli pedagogika fanining uzviy qismi bo'lib, badiiy adabiyotni tadqiq etadi, adabiyot o'qitish shartlarini va usullarini ilmiy asosda ishlab chiqish va tadbiq etish, sinfda va uyda o'qish, shuningdek sinf va maktabdan tashqari mashg'ulotlarning shakli va usullarini ishlab chiqish bilan shug'ullanadi. Uning asosini badiiy asarni ta'lim va tarbiyaning muhim vositasi sifatida o'rganish, o'quvchilarni estetik tarbiyalash jarayonini tashkil qiladi. Shu jarayonda o'qituvchi yozuvchi yaratgan badiiy obrazlarning ahamiyatini o'quvchilar ongiga singdiradi, badiiy obrazning mohiyatini ochadi, o'quvchilarning ma'naviy dunyosini boyitadi.

Ta'lim metodi—bu o'quvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalarini o'stirish ularda dunyoqarashni shakllantirish, o'zlashtirish qobiliyatini rivojlantirish. O'qituvchi qo'llaydigan ish usullaridir. Usul amaliy mashg'ulotda o'z mohiyatiga mos tarzda qo'llaniladi. Shundagina ya'ni aniq to'g'ri belgilangan usul, ta'lim va tarbiyaga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Ta'lim jarayoni ikki tomonlama harakterga ega: o'qituvchi o'qitadi, o'quvchi o'qiydi. Tabiiyki, o'qituvchining ham, faoliyatida ma'lum maqsad bo'ladi. O'qituvchining asosiy maqsadi ta'lim berish orqali o'quvchini tarbiyalash, unda axloqiy tushunchalarni rivojlantirishdir. O'quvchining asosiy vazifasi esa bilimlarni egallashdan iboratdir.

O'quvchi (ayniqsa, kichik yoshdagi o'quvchi) o'qituvchi faoliyatidagi maqsadning mohiyatini to'liq tushunmasligi, bilmasligi, ta'lim va tarbiya jarayonini to'liq tasavvur etmasligi mumkin. Ammo u o'qituvchi topshirig'ini bajarish kerakligini biladi, his qiladi.

O'quvchi o'qituvchining u yoki bu topshirig'ini bajarish bilan o'z bilimi ortib rivojlanib borayotganini sezadi, lekin o'rganayotgan fan usulini egallab borayotganini his etmaydi. Shunga ko'ra, o'qituvchi ta'lim berish jarayonida o'quvchilarga adabiiy materialni ongli va chuqur qabul qilish uslublarini, mustaqil vazifalarni bajarishda undan foydalanishni o'rgatadi.

Shuning uchun ham o'qituvchi oldiga adabiyot usuli va uning nazariy asoslarini har tomonlama chuqur bilish vazifasi qo'yilgan. Ilg'or rus metodistlaridan V.P.Ostrogorskiy so'zi bilan aytganda, badiiy adabiyotda kishilar hayoti va tabiatdagi turli hodisalar aks ettirilgan uchun, yoshlarning adabiy ta'limiga muvaffaqiyatli rahbarlik qilishini o'z ustiga olgan o'qituvchi, avvalo, ma'lumotli, har tomonlama kamol topgan bo'lishi kerak.

Adabiyot haqidagi fan adabiyotshunoslik bilan adabiyot o'qitish usulining vazifasi o'rtasida farq bor. Adabiyotshunoslik fani badiiy adabiyotning taraqqiyot qonuniyatlarini, badiiy asar yaratilgan davrdagi ijtimoiy-siyosiy voqealar, yozuvchilarning tarjimai holiga doir materiallar, hujjatlar, tanqidiy adabiyotlarni o'rganadi.

Metodist olim N.I.Kudryashev adabiyot o'qitish usuli oldida turgan vazifalarning ahamiyatini shunday ta'riflaydi «Adabiyot o'qitish metodikasi—bu o'quvchilarni o'quv predmeti sifatida tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan va unga to'g'ri rahbarlik qilish maqsadida bu jarayonning qonuniyatlarini ochishini o'z oldiga vazifa qilib qo'ygan xususiy pedagogika fanidir».

Adabiyot o'qitish usulining muhim vazifasi o'quvchilarning anglash faoliyatini boshqarishning samarali yo'llarini aniqlashdan iboratdir.

O'quvchilarni vatanparvarlik, mehnatga ongli munosabatda bo'lish, o'z ona tili va adabiyotini va qardosh xalqlar adabiyotini sevish, xalqlar do'stligi va birdamligi ruhida tarbiyalash ham adabiyot o'qitish usulining birdan-bir asosiy vazifasi hisoblanadi.

Adabiyot o'qitish usulining maktabda o'qitiladigan boshqa fan bilan aloqasi uning mazmunini belgilashda namoyon bo'ladi.

Adabiyot o'qitish usulida didaktikadagi kabi ilmiy tadqiqot, kuzatish maktab hujjatlarini o'rganish, tajriba va tahlil usullaridan foydalaniladi, tadqiq natijalarning to'g'riligi og'zaki va yozma tekshirishlar o'tkazish orqali aniqlanadi.

2. Adabiyot o'qitish metodikasining boshqa fanlar bilan aloqadorligi

O'quvchilarda adabiyotga qiziqish, o'qishga havas uyg'otish maktab ta'limi sohasida olib boriladigan umumiy ishning uzviy qismi hisoblanadi. Shu boisdan ham, usul ta'limning maqsadi, vazifasi, tartibi va yo'llarini o'rganadigan didaktika, tashqi olamning inson faoliyati va xatti-harakatiga, ruhiyatiga ta'sir etish qonuniyatlarini o'rganuvchi ruhiyatshunoslik shuningdek, badiiy adabiyotni tadqiq etuvchi adabiyotshunoslik fanlari bilan bog'lanib ketadi. Bu bog'lanishlar adabiyot kursining mazmuni, ko'rilishi va maqsadini aniqlashda ochiq-oydin ko'zga tashlanadi.

Adabiyot o'qitish usulining ruhiyat haqidagi fan bilan aloqasi o'quvchilarning badiiy ijodida, adabiy rivojida va asarni badiiy qabul qilishida, aqliy va axloqiy rivojida namoyon bo'ladi.

Ruhiyat haqidagi fan bolalarning ruhiyatini o'rganadi. Metodika ijtimoiy hodisa ta'limning pedagogika jarayonini, o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini, umumiy adabiy rivojini, bilim va ko'nikmalarining shakllanishni o'rganadi.

Maktab ta'limidagi pedagogika jarayonida juda murakkab hodisa bo'lib, bu jarayonda o'qituvchi beradigan ta'lim o'quvchilarning o'quv mashg'ulotini bajarishi bilan o'zaro uzviy bog'lanadi. Shuning uchun har bir fan, ayniqsa, o'z xususiyatiga ko'ra bir-biriga yaqin fanlar-adabiyot, til, tarix, musiqa, tasviriy san'at –maktabda uzviy birlikda o'rganiladi.

3. Adabiyotni boshqa ijtimoiy fanlar bilan bog'lab o'rganish

Adabiyotni boshqa ijtimoiy fanlar bilan bog'lab o'rganishda o'quvchilarning faoliyat ko'rsatishi muhim ahamiyatga ega. O'quvchi tafakkur qilish faoliyat ko'rsatish bilan bilimlarni egallaydi, uning ongida bilim tafakkur va faoliyat mahsuli sifatida shakllanadi va rivojlanadi.

O'quvchilarda anglash faoliyatini oshirish uchun ularga ta'lim usullarini o'rganish muhimdir. Ta'lim usullari o'quv materialini puxta esda qoldirish faoliyatini ham o'z ichiga oladi. O'quvchilar ta'lim usullarini o'rganish natijasida oz vaqtini sarflab, ko'proq bilim olish, o'quv materialini ongli ravishda o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuning uchun o'qituvchidan o'quvchilarda ta'lim usullaridan foydalanish ko'nikmasini o'stirib borish talab etiladi.

Ta'lim usullari o'z darajasiga ko'ra, xususiy (faqat bitta mavzu yoki bitta fanga taalluqli) va umumlashgan fanlararo usullarga bo'linadi. Ta'limda bu usullarni qo'llash o'quvchilarda bilimni o'stirish va mustahkamlashga yordam beradi.

Fanlarni o'zaro bog'lab o'rganish usuli u yoki bu fan bo'yicha o'rganilayotgan voqea va hodisa haqida o'quvchida jonli mushohada qilish

malakasini o'stiradi, bu bilan o'quvchi voqea, hodisa haqida aniq tasavvurga ega bo'ladi. O'qituvchi ularda hosil bo'lgan ana shu tasavvurni umumlashtiradi, natijada o'quvchilarda u yoki bu fan haqida aniq tushuncha shakllanadi.

Darsda har bir voqea, atroflicha, ya'ni unga xos belgilarni o'zaro aloqada, birlikda o'rganish ularni puxta anglashni ta'minlaydi. Tabiatdagi o'zgarishlar haqida ilmiy fikr yuritish voqe'likni bilishda eng ishonchli yo'l bo'lib, u har bir fan bo'yicha to'plangan bilimlarni to'g'ri umumlashtirish imkonini beradi.

Adabiyotni boshqa ijtimoiy fanlarga bog'lash o'ziga xos xususiyatga ega. O'qituvchi mavzuni og'zaki bayon, suhbat, bilan o'tkazishni rejalashtirsa, oldin mavzuga oid dalillar to'planadi, u dalil mavzuga qiyoslanadi, qiyoslash yo'li bilan o'quvchilar o'qituvchining savollariga javob beradi, o'qituvchi ularning javobini umumlashtiradi va xulosalaydi.

Adabiyot darsida o'quvchilarga berilgan bilimni mustahkamlash maqsadida ham boshqa fanga doir materaillardan foydalaniladi. Bunday vaqtda o'quvchilarga asosiy maqsad aytiladi, tahlil jarayonida yangi mavzu qo'shimcha materiallarga bog'lab o'tiladi, keyin materiallarning qay darajada o'zlashtirilganligi aniqlanadi. Shu yo'sinda ish olib borish, bir tomondan, darsda o'quvchilarning faolligini oshiradi va ularni yangi materialni faol idrok etishga tayyorlaydi, ikkinchi tomondan, o'qituvchilarning nazariy bilimlarini oshiradi, materialni uzoq vaqt xotirada saqlashlari uchun malakasini o'stiradi.

Fanlararo bog'lanishni tafakkurning rivojlanishiga q'iyoslash mumkin. Chunki fanlar o'quvchilarni dalil va hodisalar tahlilini turli usulda uyushtirishga o'rgatadi, bu esa o'quvchilarda qiziqish hissini ilmiy dunyoqarashni shakllantirish va o'stirishga, aqliy fikrlashni faollashtirishga yordam beradi. Demak, o'quvchilarning adabiyotdan qay darajada chuqur va puxta bilimga ega bo'lishlari ularning boshqa ijtimoiy fanlar bo'yicha olgan bilimlari va hosil qilgan malaka hamda ko'nikmalariga suyangan holda ish ko'rishlariga ko'p jihatdan boq'liqdir.

Adabiyot fani o'quvchilarning estetik va g'oyaviy -ijtimoiy tarbiyasida ham g'oyat muhim rol o'ynaydi. Adabiyot ana shunday xususiyati bilan boshqa ijtimoiy fanlarga bog'lanadi. Chunonchi, u estetik ta'sirchanlik xususiyati bilan ona tili va psixologiyaga g'oyaviy-ijtimoiy mazmuni bilan tarix va jo'g'rofiya bilan egizakdir.

Ijtimoiy fanlar o'z tarkibiga ona tili, adabiyot tarix, musiqa, ashula, rasm fanlarini qamrab oladi va ularni o'zaro birlashtiradi. Ammo ularning har biri o'zining tadqiq etish manbai va usuliga ega. Shu sababli, maktabda ularni o'rganishda o'quvchilarning bu fanlar o'rtasiga o'xshashlikni, har biriga xos xususiyatini, har birini o'rganish usullarini bilib olishlariga erishish o'qituvchilar oldiga asosiy vazifa qilib qo'yiladi. Ijtimoiy fanlarni o'rganishning asosiy sharti o'rganiladigan hodisa va qonuniyatlarning tarixiylik, adabiy-badiiylik, til xususiyatlarini birlikda o'rganishda namoyon bo'ladi. Har bir fanning o'ziga xos xususiyatiga e'tibor berilmasa, bu tarixiy va adabiy hodisalarni o'quvchilarga tushuntirishda soxtalikka, chalkashlikka olib keladi.

Ijtimoiy fanlar o'zaro bog'liq holda o'rganilmasa, o'quvchilar ongida har bir fan bo'yicha bir-biridan ajralgan tushunchalar hosil bo'ladi, ular tarixiy, falsafiy,

adabiy dalillar va qonuniyatlar haqida bir butun bilimga ega bo'lmaydilar. Bu esa o'quvchilarda ijtimoiy hayot va san'at voqealarini mustaqil aniqlash malakasini va izchil dunyoqarashni shakllantirishga salbiy ta'sir qiladi.

Ijtimoiy fanlarni, ayniqsa adabiyot va tarixni o'zaro boq'liq holda o'rganishda axloqiy, estetik va ijtimoiy-siyosiy tarbiya har tomonlama kamol topgan, faol shaxsni yetishtirish vazifalari bilan uyg'unlashib ketadi va umumiylikni tashkil qiladi. Bu esa o'z navbatida, mashg'ulotlarda o'quvchilar inson ideallari faqat nazariy tushuncha bo'lmay, obrazli umumlashma ekanini ham bilib olishlariga imkon beradi.

Fanlararo aloqani amalga oshirishda, o'qituvchi o'z fanini yaxshi bilishi bilan birga, boshqa fanlardan ham xabardor bo'lishi muhim rol o'ynaydi. O'qituvchi, avvalo, o'z fanini, o'zi o'qitayotgan fanni, uning asoslarini bilishi kerak. U fanning mohiyatini, hozirgi ahvolini, uning taraqqiyotdagi asosiy bosqichlarni, uning boshqa fanlar bilan, ijtimoiy munosabatlar bilan aloqasini bilishi, amaliyot bilan aloqasini tushunishi kerak.

Fanlararo aloqaga xos xususiyat nimadan iborat? Fanlarni o'zaro bog'lab o'rganiladigan darslar odatdagi mashg'ulotlardan nimasi bilan farq qiladi?

Fanlararo bog'lanishga xos xususiyat, avvalo, darsdan kuzatilgan maqsad va vazifalarga qarab belgilanadi, ularni bog'lashdagi muvaffaqiyat esa darsning to'g'ri tashkil etilishiga, qo'llanadigan usullarga boq'liqdir.

O'qituvchi dastur materiallarini o'tishda darsning mazmuniga, o'quvchilarning bilim saviyasiga o'zlashtirish qobiliyatiga, o'quv qurollarining mavjudligiga qarab usullarni tanlaydi. Shuningdek, o'qituvchi:

- 1) yangi mavzuni o'tishga ajratilgan soatni hisobga oladi;
- 2) boshqa ijtimoiy fanlar bo'yicha yangi mavzuni o'zlashtirishga yordam beradigan materiallarni aniqlaydi;
- 3) darsda qo'lash zarur bo'lgan ko'rgazmali qurollarni (jadval, xarita, rasm, radiolar, magnitafon) tayyorlaydi va ulardan foydalanadi;
- 4) o'quvchilarning boshqa ijtimoiy fanlardan o'zlashtirgan bilim hamda egallagan ko'nikmalarini aniqlaydi va ularga suyanadi.

O'rta maktab o'quvchilarning mustaqil fikrlash malakasini va nutqiy faoliyatini o'stirishda, badiiy asarni san'at namunasi sifatida anglab olishlarida adabiyotni ona tili bilan boq'liq holda o'qitish alohida ahamiyatga ega.

O'quvchilarga badiiy vositalar-sifatlash, o'xshatish, istiora, jonlantirish, mubolag'a, ifodalash vositalari–ritorik so'roq, takror undov, inversiya, murojaat, shuningdek omonim, sinonim, antonim haqidagi ma'lumotlar, asosan V-VII sinflarda beriladi. Masalan V sinfda o'quvchilar Hamid Olimjonning «Oygul bilan Baxtiyor» dostonini o'rganganda so'zlarning to'g'ri va ko'chma ma'noda ishlatilishi o'xshatish; Amin Umariyning «Uzum» she'ri bilan tanishganda sifatlash («Sharbatli lazzatli»); «Chambil qamali» dostonidan olingan parchani o'qiganda dialog; Xudoyberdi To'xtaboevning «Sariq devni minib» romanidan parchani («Sehrli qalpoqcha») mutolaa qilganda sarguzasht asar; Alisher Navoiyning qit'a va fardlarini o'rganishda fard; Ahmad Yugnakiyning «Hibbatul haqoyiq» dostonini tahlil qilishda didaktik badiiy asar; Boburning «Boburnoma»

asari bilan tanishganda memuar janri; Uyg'unning «Jontemir» dostonini o'rganishda jonlantirish («Rang-barang chechaklar to'lg'anib, jozibali kulib boqqandir», «Mo'ylov burab, jilmayib tog'lar») haqida ma'lumot oladilar; asarlarning til va badiiy xususiyatlari bilan tanishish orqali tilning mohiyati, uslubiy, leksik va frazeologik boyligi haqida tasavvurga ega bo'ladilar.

Adabiyot va ona tili dasrlarini bir o'qituvchi olib borishi-bu fanlarni o'zaro aloqada o'rgatishga katta imkoniyat yaratadi.

Adabiyot so'z san'ati bo'lganligi tufayli, ona tilini asosli ravishda anglamasdan turib, o'quvchilar oldida adabiyotning go'zalligi va qudratli tarbiya vositasi ekanligini namoyish qilish mumkin emas. Ona tili va adabiyot darslarida amalga oshirish lozim bo'lgan asosiy masala o'quvchilarda so'zga qiziqish va e'tibor hissini muntazam sur'atda o'stirib borishdan, ularga so'zning ahamiyatini, turli matnlarda tutgan o'rnini tushuntirishdan iboratdir.

V sinf ona tili kursining «Leksika» bo'limida o'quvchilar so'zning ma'nosi bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar; ko'chma ma'noda qo'llanishi, omonim, sinonim, antonim tushunchalari bilan tanishadilar. O'zbek tilining lug'at boyligi; o'zbek tili lug'atining boyish manbalari; umumxalq ishlatadigan so'zlar; shevaga doir so'zlar; kasb-hunarga doir so'zlar; yangi paydo bo'lgan so'zlar; eskirib qolgan so'zlarni o'rganadilar. Bu tushunchalarning hammasi adabiyot bilan boq'liqdir. Chunki badiiy adabiyot va xalq og'zaki ijodi ona tili boyligini o'zlashtirishda asosiy manba hisoblanadi. «Leksika» kursi V sinfda tugallansa ham, uni o'rganish keyingi barcha sinf adabiyot darslarida davom ettiriladi.

Yuqori sinfda badiiy asarning tili o'rganilayotganda uslubiy tahlil mashg'ulotlari o'tkaziladi. Uslub tahlilida asarning g'oyaviy mazmunini ifodalovchi til vositalari aniqlanadi, muallifning so'z tanlash, gap tuzish mahorati ko'zdan kechiriladi. Masalan, XI sinfda Oybekning «Qutlug' qon» romani bo'yicha uslubiy mashg'ulot olib borib o'zaro bog'lash usullari, sintaktik qurilishlarning o'ziga xos uslubiy xususiyatlari, shuningdek, tinish belgilarining ishlatishi aniqlanadi.

Oybekda so'z tanlashda o'ziga xoslik bor. U ifodalilikni ta'minlash, uslubiy ravonlikka erishish maqsadida sinonimlardan keng foydalanadi. O'qituvchi bu haqda gapirar ekan, o'quvchilarga «O'zbek tili darsligida» uslubiy sinonimlarning yoritilishini eslatadi.

O'qituvchi adabiyotni ona tili bilan bog'lab olib borar ekan, yangi materiallarni bayon qilish, mustahkamlash jarayonida, shuningdek, takrorlash– umimashtirish vaqtida u yoki bu mavzu yuzasidan o'rni bilan bog'lanishli matnlardan foydalanadi. Bunday matnlardan foydalanish ona tiliga adabiy o'qish va adabiyot darslarini bog'lashga, badiiy asar tilining go'zalligini his qilish va mazmunini puxta o'zlashtirishga yordam beradi.

Har bir yozuvchining hayoti va ijodi u yashab ijod etgan davrdagi ijtimoiy-siyosiy voqealar bilan chambarchas bog'langan bo'ladi. Shu sababli yozuvchining hayoti va ijodi u yashagan davrdagi tarixiy voqealarga bog'liq holda o'rganiladi, adabiy-tarixiy jarayon esa ijtimoiy va tarixiy hodisalar in'ikosi sifatida tushuntiriladi.

Tarixiylik adabiyot o'qitishda asosiy shart hisoblanadi. Yozuvchining ijodiy rivoji tarixiylik asosida ijodiy faoliyatining uzviy qismi asari u yoki bu davr adabiyoti taraqqiyotidagi hodisa sifatida o'rganiladi.

Darsda tarixiy shaxslar (jumladan, yozuvchilar) faoliyatiga baho berishda ularning tarixda tutgan mavqei yoritiladi.

V sinf adabiyot va tarix kursi bir-biriga juda yaqin turadi. Bu sinfda Fitratning "Yurt qayg'usi", Erkin Vohidovning "O'zbekim", Abdulla Oripovning "O'zbekiston", Xurshid Davronning "Vatan haqida yetti rivoyat" asarlarini o'tishda tarix darsida O'zbekiston xalqlari tarixi bo'yicha olgan bilimlari eslatiladi.

X sinfda "XIV-XVI asrlar adabiyoti", «Alisher Navoiyning hayoti va ijodi»ni o'rganishda tarix darsida "XIV-XVI asrlarda O'zbekistonning siyosiy ahvoli, xo'jalik va madaniy hayoti" bo'limidagi «Temur davlatining tashkil topishi, temuriylar davrida madaniy hayot», haqida olgan bilimlariga asoslanish ijobiy natija beradi.

O'quvchilar XI sinfda Gafur Gulomning «Kuzatish», "Sog'inish", "Sen yetim emassan" she'rini o'qish, o'rganish bilan unda tarixiy voqea aks ettirilganini ko'radilar. She'rda tasvirlangan voqeani o'quvchilar 7- sinf tarix darsi orqali bilib oladilar. Bu esa she'r tahlilini tarixiy dalillarga bog'lab o'tkazishga imkon beradi. Bu o'z navbatida, she'rda ifodalangan fikr, g'oyani chuqur anglashni ta'minlabgina q'olmay, darsda ko'rgazmalilik vazifasini ham bajaradi.

Adabiyot dasrlarida foydalaniladigan jug'rofiy materiallar o'quvchilarni tabiat voqealari va hodisalari, xalq xo'jaligi, kishilik jamiyatida bo'lib turadigan o'zgarishlar bilan tanishtirishga muhim rol o'ynaydi, badiiy asarlarda aks ettirilgan voqeani chuqur idrok etishni ta'minlaydi.

4. Tadqiqot usullari

Har bir sohada tadqiqot ishlarini olib bo ruvchi ilmiy xodim tadqiqotga doir ilmiy asarlarni puxta o'rganib olishi lozim. Chunki dialektik-materializm barqarorlikni to'g'ri anglashga, dunyo voqealarini o'rganishga, ular haqida xulosalar chiqarishga yordam beradi.

Tadqiqot usullari kuzatish, tajriba, suhbat, so'roq varaqasi yordamida tekshirish, tajribadan iborat.

Bu usullarning har biri o'ziga xos xususiyatga ega bo'lsa-da, ular o'zaro bir-biriga boq'liqdir.

Kuzatish usuli

Psixologlarning ta'rificha, kuzatish ma'lum sohadagi hodisalarni izchillikda idrok qilishdir. Kuzatishdan asosiy maqsad: kuzatiladigan hodisa yuz berayotgan sharoitni o'rganish, hodisani aniq tavsiflash, tushuntirib berish, ya'ni kuzatilayotgan hodisa bilan u sodir bo'layotgan sharoit o'rtasidagi bog'lanishni aniqlashdan iboratdir.

Kuzatish ta'lim-tarbiyadagi turli aloqa va bog'lanishlarni ko'rsatadigan dalillarni to'plashni ta'minlashi kerak. Bu esa tadqiqotchidan ana shu bog'lanish va aloqalar haqida yetarli darajada nazariy tasavvurga ega bo'lishini taqozo etadi. Buning uchun tadqiq qilinadigan fanga doir materiallar o'rganiladi, ilmiy-metodik adabiyotlar, maktab va o'qituvchilarning amaliy ishini ko'rsatuvchi materiallar tahlil qilinadi.

Kuzatish usuli taqqoslash, tahlil qilish, sintez, faraz qilish, umumlashtirish bilan chambarchas bog'liqdir. Shunga ko'ra, tadqiqotchidan dars jarayonidagi pedagogik hodisalar o'rtasidagi bog'lanishni aniq ko'rsatish, o'qituvchi tomonidan qo'llanayotgan usullarning ijobiy yoki salbiy ta'sirini, ularning sababini izohlab berish talab etiladi. Ishning samarali bo'lishi uchun o'qituvchining ish faoliyati o'quvchilar faoliyati bilan bog'liq holda o'rganiladi.

Tajriba usuli

Tajriba o'qituvchining muayyan maqsadda o'quvchilarga ta'sir etish jarayonidir. Bu murakkab jarayon bo'lib, u o'qituvchi va o'quvchining faoliyati, ta'sir etish vositalari natijasida yuzaga keladi.

Ta'lim va tarbiya uzoq davom etadigan jarayondir. Ma'lumki, bilim va ko'nikma, malaka, odat, axloq shartli reflekslardan iboratdir. Ularni uzoq vaqt davomida hosil qilish ham kuzatish ishlarini uzoq vaqt davom ettirishni talab etadi.

Ilg'or pedagogik tajribani chuqur o'rganish va nazariy jihatdan tahlil qilish orqali maktabda ta'lim-tarbiya ishlarini yanada yaxshilashga, muhim pedagogik masalalarni hal etishga yordam beradigan usullar ishlab chiqiladi.

Tajriba usulida maxsus darslarda o'qituvchi bilan o'quvchilarning faoliyati kuzatiladi. Darsni tadqiqotchi rahbarligida o'qituvchi o'tkazadi. Bu darslikning odatdagi darsdan farqi shundaki, unda tadqiqot mavzusi va faraz bilan bog'liq bo'lgan, darslikda bo'lmagan material o'tiladi, o'quvchilar tomonidan uning o'zlashtirilishi sinab ko'riladi, ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati aniqlanadi.

Suhbat usuli

Ilmiy tadqiqotda suhbat usuli boshqa usullar bilan boq'liq holda o'tkaziladi. Suhbat usuli dastur, darslik, ko'rgazmali qurollarni tajribada sinab ko'rishda alohida ahamiyatga ega. Ma'lumki ko'pchilik o'qituvchilar tadqiqotchi talab etgan dalillarni, dastur va darslik, ko'rgazmali qurol haqida o'z fikrlarini to'liq, tartibli yozib borishga q'iynaladilar. Shu sababli, dalil to'plashda suhbat usulidan foydalaniladi. Suhbatning samarali bo'lishi suhbat qatnashchilarining bir-birini yaxshi tushunishiga ko'p jihatdan boq'liqdir. Bunda tadqiqotchining suhbat uchun puxta, muammoli savollar tuzishi muhimdir. Suhbat uchun tayyorlanadigan savollar aniq va lo'nda bo'lishi kerak.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Adabiyot o'qitish usuli maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
2. Ta'lim jarayonining o'zaro birligi deganda nimalar nazarda tutiladi?
3. Adabiyot o'qitish usullarining boshqa fanlar bilan aloqadorligi deganda nimani tushunasiz?
4. Adabiyotni boshqa ijtimoiy fanlar bilan bog'lab o'rganish deganda-chi?

Darsning tayanch tushunchalari.

Adabiyot o'rganishning qonuniyatlari va yo'llar bilan na adabiyotshunoslik, na didaktika, na psixologiya shug'ullanishi. Adabiyot o'qitilishi jarayonini tadqiq etishning jamiyat ma'naviyatini shakllantirish uchun ahamiyati borligi. Adabiyot o'qitishdagi eng ilg'or tajribalarni, universal qonuniyatlarni kashf etmay turib, yoshlar ma'naviyatini shakllantirib bo'lmasligi. Adabiyot o'qitish metodikasining uzatish, anketa so'rovi, maktab hujjatlarini o'rganish, o'quvchilarning yozma ishlarini tadqiq etish, og'zaki javoblarni tekshirish singari ilmiy-tadqiqot metodlari borligi.

2 - MAVZU: O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasining fan sifatida shakllanishi va rivojlanishi

Reja:

1. Musulmon diniy maktablarida adabiy ilmlarning berilishi.
2. Adabiyot o'qitish metodikasi Milliy uyg'onish davrida .
3. Dastlabki adabiyot dastur va darsliklari haqida.
4. A.Sa'diy va A.Fitrat qo'llanma-darsliklar muallifi.
5. Sho'ro maktablarida adabiyot o'qitish tarixi.

Adabiyotlar:

1. I.A. Karimov . Olloh qalbimizda, yuragimizda. Toshkent, 1999.
2. I.A.Karimov . Barkamol avlod orzusi. Toshkent: «Sharq» nashriyoti kontserni, 1999.
3. A.Zunnunov. Badiiy asar tahlili metodikasi. Toshkent; «O'qituvchi», 1989.
4. A.Zunnunov. Adabiyot o'qitish metodikasi. Toshkent; «O'qituvchi», 1992.
5. Q. Yo'ldoshev. Adabiyot o'qitishning ilmiy – nazariy asoslari. Toshkent: «O'qituvchi», 1996.
6. N. Saidaxmedov. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati// Xalq ta'limi, 1999, 1 – son.
7. B.Ahmadjon Islom odobi va madaniyati. Toshkent: «Cho'lpon», 1995 .

O'zbek adabiyotini o'qitish usuli, asosan 20 yillarda fan sifatida shakllandi va rivojlanib bormoqda. O'zbek adabiyotini o'qitish usulining mustaqil fan ekanligi shundaki, boshqa fanlardagi kabi uning ham o'rganadigan, tadqiq etadigan predmeti mavjud bo'lib, u badiiy adabiyotdir. Badiiy adabiyot ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga va o'ziga xos tadqiqot usuliga ega. Adabiyot o'qitish jarayoni qonuniyatlarini o'rganish, yoritishdan iboratdir. Adabiyot o'qitish usuli o'rganadigan qonuniyatlar adabiyotshunoslik, didaktika va psixologiya o'rganadigan qonuniyatlardan farq qiladi.

Adabiyotshunoslik badiiy adabiyotning rivojlanishi qonuniyatlarini o'rganadi, didaktika ta'limning umumiy qonuniyatlarini inson ruhiyati, jumladan, bolalar ruhiyati faoliyatining qonuniyatlarini o'rganadi. O'qitish usuli bu fanlarga bevosita suyanadi, ular bilan bog'lanadi. Ammo u bajaradigan vazifa adabiyotshunoslik, didaktika va ruhiyat fanlari amalga oshiradigan vazifalardan farq qiladi.

Adabiyot o'qitish usuli jamiyatning madaniy adabiy hayotida yuz beradigan o'zgarishlar asosida o'zgarib, rivojlanib boradi, ta'lim jarayoni qonuniyatlarini ochish orqali adabiyot o'qitish usullarini tarbiyada qo'llash mumkin bo'lgan qoidalarni ishlab chiqadi.

Adabiyot o'qitish usuli «insonni shakllantirishda muayyan maqsad sari qaratilgan sistematik faoliyat to'g'risidagi hamda ta'lim-tarbiya berishning mazmuni, shakli va metodlari haqidagi fan»¹ bo'lib, pedagogikaning uzviy qismi sifatida adabiyot o'qitish jarayonini o'rganadi.

Adabiyot o'qitishning ijtimoiy mohiyati esa yosh avlodning axloqiy-estetik va aqliy adabiy rivojida asosiy vosita bo'lgan badiiy adabiyotning tarbiyaviy ahamiyatini yoritishda ochiladi.

Turkistonda musulmon diniy maktablari boshlang'ich maktabi, daloyixona, qorixona va madrasadan iborat bo'lib, maktablarda kitob o'qish ikki usulda yakka va xor tartibida o'quvchilarga asarni o'qitish bilan birga asardan parchalar ko'chirtirish yo'li bilan chiroyli yozishga ham o'rgatilgan.

Madrasalarda diniy ilm, ilmi aruz, ilmi bayon, mantiq kabi ijtimoiy fanlardan tashqari riyoziyot, falakiyot, xandasa, tibbiyot singari aniq fanlar ham o'qilgan. Diniy kitoblar va adabiy asarlarni o'qishda ifodali o'qish, yoddan o'qish, husnixat, sharhli o'qish usullardan foydalanilgan.

Eski maktab va madrasalardagi ta'limda ushbu usullarning qo'llanishi ifodali o'qish, so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish, lingvistik malakalarni egallashga yordam beradi. Talabalar arab va fors tillarida yozilgan badiiy kitoblarni o'qish orqali sharqning mashhur klassiklari – Sa'diy, Hofiz, Fuzuliy, Bedil asarlari bilan tanishganlarki, bu eski maktab va madrasalardagi ta'limning ijobiy tomonidir. Ammo eski maktab va madrasalarda o'qish muddati rasmiy ravishda belgilanmagan edi. Maktab va madrasalarga maxsus tashkilot rahbarlik qilmas, o'qishlar yagona o'quv rejasi asosida olib borilmas edi. Mana shu holat va o'qishning asosan, arab fors tillarida olib borilganligi sababli ko'pchilikni tashkil etgan mehnatkashlarning bolalari savodli bo'la olmaganlar.

Uzoq asrlik tarixga ega bo'lgan o'zbek xalqi ijtimoiy-siyosiy, diniy to'siq'larga qaramay, O'rta Osiyodaga boshqa xalqlar kabi buyuk olim, shoir va san'at ahllarini yetkazdi, insoniyatga ilm-fan, san'at va adabiyot sohasida o'lmas yodgorliklar taqdim etdi.

Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Hojib Abulqosim Mahmud ibn Umar Zamaxshariy, Alisher Navoiy kabi olim va shoirlar o'z asarlarida o'sha davr maktablaridagi ta'lim-tarbiya, badiiy asarni o'qish va o'rganish xaqida fikr bildirib, metodik fikrning rivojiga ta'sir ko'rsatdilar.

O'rta Osiyoning ulug' mutafakkiri Abu Nasr Forobiy (873-950) o'zining ilmiy ishlarida ovoz nutqning tarbiyaviy ahamiyatiga alohida ahamiyat berdi, u «Ilmlarning kelib chiqishi» («Ixsoulum») nomli risolasida badiiy asarni ifodali o'qish, o'qiganini hikoya qilib berish zo'r san'at ekanligini aytadi. Forobiyning ta'kidlashicha, hikoyachilikda (o'qishda) o'tkir ta'siri bo'lgan ana shu san'atda o'ziga munosib o'rinni egallagan kishilar hakim deyiladi va o'qishni, notiqlikni egallagan san'atkor, faylasuf, donishmand bilan tengdir.

Ulug' shoir mutafakkir Alisher Navoiy (1441-1501) ham o'z davrida bolalarning ifodali o'qishni egallashlariga alohida e'tibor berdi. Navoiy, xususan, asar mazmunini tushunib o'qish usulini quvvatladi. Shoir deydi:

Yodimda mundoq kelur bu mojaro,
Kim tufliyat chog'i maktab aro.

Kim chekar aftol marhumi zabun,
Har tarafdin bir saboq zabtiga un.

Emgonurlar chun saboq ozoridin,
Yo «Kalomullah» ning takroridin.

Istabon tashxisi xotir ustod,
Nazm ukuturkim ravon bo'lsun savod.

Nasrdin ba'zi o'qur ham doston,
Bu «Guliston» yangligu ul «Bo'ston»¹.

Bu parchada Alisher Navoiy maktabda Sa'diy Sheroziyning «Guliston» va «Bo'ston» asarlarining o'qitilishini ma'qullaydi. Bu asarlar savod chiq'arishda, ifodali o'qishni o'rganishga katta yordam berishini ta'kidlab o'tadi. Navoiy «Mahbubul qulub» asarida shunday deydi:

«Xushnavis kotib so'zga oroyish berur va so'zlaguvchiga osoyish etkurur»².
Ulug' shoir xushnavislikni targ'ib etish bilan o'quvchini chiroyli yozuvni, yozma nutq malakasini egallashga undaydi.

XV asrdan XIX asrning birinchi yarmiga o'tgan davrda, ayniqsa XIX asrning ikkinchi yarmi XX asrning boshlarida Turkistonda pedagogika, metodik fikr o'sdi. XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida adabiyot ijtimoiy hayotning markazida turdi, eng jonli va hayotiy masalalarni o'zida aks ettirib turgan jangovar soha bo'lib qoldi.

XX asr boshlarida Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotda jiddiy o'zgarish yuz berdi: milliy uyg'onish, ozodlik harakati kuchaydi. Yangi adabiyot yuzaga keldi. Umumiy siyosiy, hayotdagi o'zgarish madaniy hayotining hamma tarmoqlariga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Behbudiy, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Qodiriy, Mirmuhsin Shermuhamedov, Cho'lpon kabi shoir va yozuvchilar o'zbek xalqining ma'rifali bo'lishi, milliy va ijtimoiy ongining o'sishi, yangi tur va mazmundagi adabiyotni yaratish uchun harakat qildilar. Bu davrda yaratilgan adabiy asarlarda birinchi jahon urushi.- 1916 yildagi mardikorlikka olish voqealari aks ettirildi.

Behbudiy «Padarkush» asarida milliy, insoniy qadriyatni anglashda ma'rifatli bo'lish zarurligini, ma'rifat va jaholatni – ezgulik va yovuzlik timsoli sifatida tasvirladi.

XIX asrning II yarmida yashab ijod etgan Muqimiy, Komil Xorazmiy, Furqat, XX asr boshlarida ijod etgan shoir va adiblar asarlarida ifodalangan ilg'or fikrlar ularning va ilg'or ma'rifatparvar pedagoglar - toshkentlik Saidrasul Saidazizov, Namanganlik Ishoqjon Junaydullaev, Ibrat, samarqandlik Abduqodir Shakuriy, Saidahmad Siddiqiy, Ismatulla Raxmatullaev va boshqalar faoliyatida ham o'z ifodasini topdi.

Ular yangi usul-«Usuli savtiya»¹ maktablarini tashkil etib, keng xalq ommasi o'rtasida ilm-madaniyat tarqatish uchun qizg'in kurash olib bordilar. Abdulla Avloniy «Maktab va Guliston» darsligida adabiy asarlarni ifodali o'qishning yakka va ko'pchilik bo'lib o'qish, ifodali o'qish, dialog, drama holiga keltirish turlarini ko'rsatdi. Avloniy «Adabiyot» kitobining I juz'ida bolalarni aruz vaznida yozilgan she'rlar bilan tanishtiradi. Masalan, «bo'lak» radifli she'rni o'rganishdan oldin bolalar uning mazmuni bilan tanishadilar, so'ngra «foilotun, foilotun, foilun» bahrini o'qishni o'rganadilar.

Avloniy «Adabiyot» kitobining II juz'ida ham aruz vaznida yozilgan she'rlarni o'qish yo'llarini ko'rsatdi.

Umuman, 1924 yildan 1929 yilgacha o'tgan davr ichida jumhuriyatda iqtisodiy va madaniy qurilishda, xalq maorifi sohasida, adabiyot va adabiyotshunoslikda erishilgan yutuqlar maktab ta'lim-tarbiya ishlariga, maktab ta'limi mazmuniga, adabiyot o'qitish metodikasi rivojiga ta'sir etdi, metodik ishlarning yuzaga kelishini ta'minladi. Bunga Elbekning «Namuna» (I-IV qism, 1925), Fitratning «Adabiyot qoidalari», «O'zbek adabiyoti namunalari» (1928), A.Sa'diyning «Amaliy ham nazariy adabiyot darslari» (1925) kitoblari misol bo'la oladi.

Abdurahmon Sa'diyning adabiyot nazariyasiga doir yozgan «Amaliy ham nazariy adabiyot darslari» kitobining maydonga kelishi o'sha davr metodikasida ijobiy voqea bo'ldi. Bu darslik- qo'llanma nashrdan chiqishi bilan yozuvchi, adabiyotshunoslik va tanqidchilarning diqqat-e'tiborini o'ziga jalb etdi, ular o'rtasida adabiyot nazariyasi haqida fikr yuritishga, munozaralarning boshlanishiga sabab bo'ldi.

Sa'diy o'z kitobida nazariy tushunchalarga ta'rif berib, yozuvchilar ijodi ga munosabat masalasi va adabiy oqimlar haqida fikr yuritdi, xalq og'zaki ijodi, xalq og'zaki ijodining doston, ertak, matal, jumboq, topishmoq, qo'shiq, ashula, lapar kabi turlari, liroepik, dramatik janrlar haqida mulohazalar bildirdi.

1926 yilda Fitratning adabiyot muallimlari va adabiyot havaskorlari uchun qo'llanma-darslik sifatida «Adabiyot qoidalari» nashr etildi. Darslik adabiyot nazariyasidan bahs etadi. Fitrat darslikda san'at va adabiyot, uslub, she'riy vaznlar, adabiy tur va vaznlar, adabiy oqimlar haqida to'xtalib, aruz vaznining yaratilishi tarixini qisqacha bayon qiladi, ularga ta'rif beradi, kerakli o'rinlarda So'fi Olloyor, Navoiy, Bobur, Elbek, Cho'lpon, Botu, A.Qodiriy, Oltoy kabi shoir va yozuvchilarning asarlaridan misollar keltiradi.

20-yillarda adabiyot va adabiyotshunoslikda kadrlar safi o'sib borgani kabi, adabiyot metodikasi sohasi ham yosh kuchlar- Murod Shams, To'xtanazir Shermuhamedov, Olim Sharofitdinov, Usmon Dadamuhamedov, Xalil Qayumov,

Subutoy Dolimov, qayum Hakimov va boshqa o'qituvchilar hisobiga o'sib bordi. Bu ilg'or o'qituvchilarga mavjud dastur va darsliklarga ijodiy yondashgan holda maktabda turli janrdagi asarlarni o'quvchilarga o'qitish orqali yangi metodikani yangi usullar bilan boyitib bordilar.

Mamlakatimizda o'qitish usullari sohasida izlanish, pedagogik fikr ommaviy tus oldi. Ilg'or o'qituvchilar safi kun sayin o'sib bordi.

30-yillarda xalq xo'jaligida o'zgarishlar yuz berdi, yozuvchilarning uyushmasi tuziladi. Milliy xalqlar, ularning madaniyati, yozuvi tili va urf-odati, an'analarni birlashtirish siyosatini amalga oshirishga urinildi. Bu siyosat o'zbek badiiy ijodida ham o'z aksini topdi. Natijada Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Elbek,

O.Hoshim, Usmon Nosir kabi ijodkorlarning boshiga kulfatlar yog'dirildi, qatag'on qilindi. Bu davrda sotsialistik realizm deb nomlangan soxta badiiy usulning ijod etilishidan mahrum bo'ldilar.

Biroq, shunga qaramay, o'zbek adabiyoti tur va janr jihatdan birmuncha rivojlandi.

30-yillarning birinchi yarmida maktabda adabiyot o'qitish bilan shug'ullanayotgan metodistlar, ilg'or o'qituvchilar, adabiyotshunoslar, tarbiya nazariyasi bilan shug'ullanuvchi olimlar ilmiy-metodik ishlarni yaxshilash, barq'aror dastur va darsliklar yaratish, adabiy bilim mazmunini adabiyotshunoslik fani asosida belgilab chiqishga kirishdilar. Natijada 30-yillarda to'liqsiz o'rta va o'rta maktablar uchun adabiyot dasturlari yaratildi, shahar va nohiyalarda muallimlar uyushmalari tashkil qilindi, uyushma a'zolari o'quvchilarning tajribalarini o'rganib, ommalashtirishga kirishdilar.

Maktablarda ta'lim va tarbiya sohasida erishilgan yutuqlar o'qituvchilarning 1940 yilda Toshkentda bo'lib o'tgan birinchi s'ezdida yakunlandi, eng yaxshi o'qituvchilar va maktablar tajribasi umumlashtirildi, 30-yillarda o'zbek adabiyoti va adabiyotshunosligi hamda xalq og'zaki ijodi sohasida erishilgan yutuqlar dastur va darsliklarda o'z ifodasini topdi, adabiyot o'qitish metodikasida ham ma'lum rivojlanish bo'ldi.

«O'rta maktab dasturlari» dastur yaratish yo'lida dastlabki qadam, adabiyot o'qitish usuli rivojida yangi bosqich sifatida nishonlandi. «Adabiyot dasturi» tarixiylik asosida tuzilib, unda klassik hamda so'nggi davr adabiyotining yirik namoyandalari asarlaridan namunalar berildi.

Ammo, bu dasturlar bo'yicha adabiyot o'qitishda ayrim badiiy asarlarni o'zlashtirishga emas, balki yozuvchilarning hayoti va ijodining ijtimoiy-siyosiy mohiyatini, yozuvchining sinfiy mavqeini ochishga ko'proq e'tibor berildi.

Partiyaviylik shiorining adabiyot o'qitish jarayoniga hukmron shior sifatida kiritilishi maktablarda o'quvchilarga bu fanni o'rgatishda bir yoq'lamalilikka olib keldi. Bu esa V-VII sinf o'quvchilarning adabiyotga qiziqishga, maktab oldida turgan ta'lim va tarbiya vazifalarini amalga oshirishga yordam bermadi.

1938 yilda nashr etilgan «To'liqsiz o'rta va o'rta maktablar uchun programmalar» da adabiy asarni o'qish masalasi birinchi o'rinda to'rdi. Shu

munosabat bilan V-VII sinf o'quvchilarida badiiy asarni o'qishga havas o'yg'onish asosiy vazifa qilib qo'yiladi. Ammo, dasturda xalqlar adabiyotini o'rganishga yetarli e'tibor berilmadi. Shuningdek dasturda adabiy hayot, yozuvchining ijodi, o'rganiladigan badiiy asar yuzasidan aniq talablar qo'yilmadi. Natijada, maktablarda o'qitiladigan o'rganish hollari sodir bo'ldi.

1940 yilda tuzilgan «O'rta maktab programmalari»da o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirishga, o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor berildi, asarni ifodali o'qish, savol va topshiriq hamda mashqlar asosida asarning g'oyaviy mazmunni puxta o'zlashtirish tavsiya etildi. Sinflar bo'yicha o'quvchilarning yoshi va bilim saviyasiga mos asarlar tanlandi, ularni joylashtirishda didaktika talablariga rioya qilindi.

Dasturda adabiy materiallarni o'rganishda boshqa ish turlari bilan uzviy bog'lash ham nazarda tutildi. Ammo ayrim yozuvchilar ijodidagi xalqchilik y etarli yoritilmadi.

Dasturda nazariy tushunchalarni berishda bolalarning yoshi va bilim saviyasi yetarli hisobga olinmadi va nazariy tushunchalar sinflar bo'yicha izchillikda berilmadi.

30-yillarda adabiyot, adabiyotshunoslik va tanqidchilikning o'sib borishi, o'tmish madaniy-adabiy merosni o'rganishga kirishishi bilan bu davrda yaratilgan dastur va darsliklar mazmuni ham bir qadar o'zgarib, takomillashdi. Shunga qaramay, 30 yillar adabiyoti darsliklari mag'zi-mag'ziga xoh zarur, xoh nozarur bo'lsin, g'oyaviylik, partiyaviylik ruhini singdirish odatiy talab bo'lib qoldi.

40-yillar o'zbek adabiyotida Vatan urushi, xalqning mehnat jabhasi va urush maydonlaridagi jasorati aks ettirildi, o'zbek xalqining tarixiy o'tmishdagi jangovor an'analari aks ettirilgan asarlar yaratildi (Oybekning «Mahmud Torobiy», Maqsud Shayxzodaning «Jaloliddin Manguberdi», Hamid Olimjonning «Muqanna» asarlari kabilar).

Urush davrida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish, bilimni mustahkamlash va oldin o'tilgan mavzularni takrorlash, mustaqil ish va yozma ishlarni o'tkazish usullarini ishlab chiqishda birmuncha yutuqlarga erishildi.

Urushdan keyingi 50-80-yillardagi ijtimoiy-siyosiy va adabiy hayotda yuz bergan o'zgarishlar, shaxsga sig'inish oq'ibatlarning tugati lishi, ma'naviy hayotni sog'lomlashtirish yo'lida ko'rilgan tadbirlar adabiyotda haqqoniylik, insonparvarlik g'oyalarning aks ettirilishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi; Oybek, G'afur G'ulom, A.Qahhor, Komil Yashin, Maqsud Shayxzoda, Mirtemir, Zulfiya, Shuhrat, Said Ahmad kabi adiblar ijodida davr ruhi o'z ifodasini topdi. Adabiyotda Odil Yoq'ubov, Pirimq'ul Qodirov, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, O'tkir Hoshimov, Xudoyberdi To'xtaboev kabi yangi avlod shakllanadi. Bu yillarda badiiy publitsistika, she'riyat, nasr va dramaturgiyada grajdanlik keng o'rinni egalladi, hayotdagi muhim muammolar-tabiati muhofaza qilish, ma'naviy-axloq'iy masalalarga e'tibor berildi, tarixiy mavzularda asarlar yaratildi. Biroq 60-80-yillarda jamiyatda davom etgan. Ammo, q'iyinchiliklar-

ga qaramay chinakam iste'dod sohiblari hayot haqiqatiga sodiq qolishdi, jamiyatni ma'naviy jihatdan o'zgartirishga o'zlarining munosib hissalarini qo'shdilar.

70-80-yillarda adabiyot o'qitish usulining rivojida yutuq sifatida o'rta maktabda nazariy tushunchalarni, yozuvchi uslubini, o'zbek klassik adabiyoti vakillarining ijodini o'rganishga doir metodik qo'llanmalar, o'zbek adabiyoti metodikasi tarixiga doir asarlarning yaratilishini ko'rsatish mumkin.

Masalan, bu yillarda «Maktabda badiiy asar tilini o'rganish» (J.Esonov), «adabiyotni boshqa gumanitar fanlarga bog'lab o'rganish» (A.Zunnunov, N. Xotamov), «Maktabda Alisher Navoiyning hayoti va ijodini o'rganish» (A.Xasanov, A. Zunnunov), «Maktabda Gulxaniy adabiy merosning o'rganilishi» (F. Ishokov), «Maktabda adabiyot o'qitish metodikasi» (A.Zunnunov, J. Esonov), «4-8-sinf adabiyot darslarida ko'rgazmalilik» (M.Mirfayozov), «10-sinfda Komil Yashinning «Yo'lchi yulduz» dramasini o'rganish» (A.Ibrohimov), «Badiiy asar tahlili metodikasi» (A. Zunnunov) kabi qo'llanmalar, o'zbek adabiyoti metodikasi tadqiq etilgan «O'zbek adabiyoti metodikasi tarixidan ocherklar» (A. Zunnunov) nashr etildi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Ibtidoiy maktablarda maktab va madrasa talabalariga qanday fanlar o'rgatilgan?
2. Nima uchun sho'ro hukumati ta'lim tizimidagi barcha muassasalarning so'zsiz kommunistik mafkura tizimida bulishini istagan.
3. Dastlabki adabiyot dastur va darsliklari haqida gapirib bering.

Darsning tayanch tushunchalari

O'zbek xalqi juda qadim zamonlardan yoshlarni estetik jihatdan barkamol qilib tarbiyalashga katta e'tibor berganlar . O'rxun-Enasoy bo'ylaridan topilgan bitiktoshlar bobolarimizning so'z q'udratiga baland baho berganligini ko'rsatuvchi dalillar ekanligi. Turkistonga islom yoyilgach, adabiy ta'lim tez ravnaq topgan . Juda qadim zamonlardan boshlab, maktab va madrasa talabalariga fasohat ilmi, notiqlik san'ati o'rgatilgan . Islom kabir shaharda madrasalar ochilgan

Oktyabr to'ntarishidan keyin hokimiyatni egallagan bolsheviklarning mafkura sohasida yakka hokimlikka intilgan . Natijada, badiiy adabiyot bolalarga sinfiy kurashlarning in'ikosi deb tushuntirilgan . Sho'ro hukumati ta'lim tizimidagi barcha muassasalarning so'zsiz kommunistik mafkura tizimida bo'lishini istaganligi. Bunga erishishning oson yo'li o'quv rejasi, dastur, darsliklarni birxillashtirish ekanligi.

3. MAVZU : ADABIY TA'LIM ASOSLARI . YANGI PEDAGOGIK TEKNOLOGIYA

REJA:

- 1.Maktabda adabiy ta'limning mazmuni va qurilishi.
- 2.Adabiyot o'qitishda yangicha tamoyillar
- 3.O'qitishning zamonaviy metodlari va adabiy ta'lim
- 4.Yangi pedagogik texnologiya muammolari.

Adabiyotlar:

1. I. A. Karimov. Barkamol avlod orzusi. T. "Sharq" nashriyoti kontserni, 1999.
2. I. A. Karimov. Olloh qalbimizda, yuragimizda. T. , 1999.
3. Q. Yo'ldoshev. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari, N. "O'qituvchi", 1996.
4. N. Saidahmedov. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati|| Xalq ta'limi,1999, 1-son.
5. Q. Husanboyeva. Ta'limning zamonaviy texnologiyalari va mustaqil fikrlash\\ Til va adabiyon ta'limi. 2003, 2- son, 7-13 betlar.
6. J. Yo'ldoshey. Yangi pedagogik texnologiya\\ Til va adabiyon ta'limi. 2003, 3 - son, 4-11 betlar.

Maktab adabiy ta'limining asoslari

Maktabda adabiyot ta'limini yangicha yo'nalishga solish uchun eng zarur ish adabiyot o'qitishning maqsadi, vazifasi, mazmunini aniqlab olishdir. Bu tushunchalar adabiyot o'qitish asoslaridir.

Har qanday pedagogik faoliyatga kirishishdan oldin «Kimni?» (pedagogik maqsad faoliyatini aniqlaydi). «Nimani?» (adabiyot o'qitish mazmunini), «Nima uchun?» (adabiyot ta'lim vazifasini belgilaydi) savollariga javob berish zarurdir.

Adabiy ta'lim oldidagi maqsad-komil shaxsni shakllantirishdir. Adabiyot ta'limi oldidagi maqsad uning vazifasini ham belgilaydi. Maqsad-umumiy, vazifa-xususiy tushunchadir. Maqsad istiqbolni, vazifa-joriy faoliyatni ko'rsatadi. Maqsad belgilangan m'oljalga yetish yo'lidagi bosqichlar vazifasini anglatadi.

Adabiy ta'lim oldidagi bosh vazifa-oddiy o'quvchidan kitobxon o'quvchi tayyorlash, bolalarni badiiy so'zdan ta'sirlanadigan, badiiy asarni taniydigan, o'qigan asarni tahlil qila oladigan, xulosa chiqara oladigan, o'zining qarashlarini og'zaki va yozma ravishda ravon ifoda eta oladigan, badiiy asar o'qishni birinchi hayotiy ehtiyojiga aylantirgan o'quvchi shaxsini shakllantirishdir.

O'qitishning yangi texnologiyasi mohiyati va zarurati

Pedagogik texnologiya nima? Nega bu so'z birikmasiga «yangi» so'zini qo'shimcha qilib, «yangi pedagogik texnologiya» deb aytamiz? U nima uchun bugungi ta'lim-tarbiya jarayonida zaruratiga aylandi? Nega endi shuncha yillardan beri yarab kelgan ta'lim jarayonini eskicha tashkil etishdan voz kechishimiz kerak va uni loyihalashga yangicha yondashish zarur?

Bu kabi savollarga javob berish uchun, eng avvalo, mamlakatimiz «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» asosida ta'lim-tarbiya sohasida olib borilayotgan tub islohotlarning asosiy yo'nalishlarini anglab olmoq lozim.

Bu yo'nalishlar:

- ta'lim mazmunini, tizimini isloh qilish;
- ta'lim-tarbiya boshqaruvini isloh qilish;
- ta'limning bozor iqtisodiyotiga asoslangan mexanizmini yaratish;
- ota-ona, o'qituvchi-o'quvchining ta'lim jarayoniga bo'lgan yangicha qarashlarini shakllantirish;

- bu tub islohotlarning bosh harakatlantiruvchi kuchi-yangi pedagogik texnologiyani amaliyotga tadbqiq etishdan iborat.

Yangi pedagogik texnologiya muammolari

Ta'lim-tarbiya sohasini isloh qilishning asosiy omillaridan biri ta'lim-tarbiya jarayonini yangi pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash, ta'lim tizimining ilg'or tajribalarini o'rganish va ularni dars jarayoniga tadbqiq etishdan iboratdir.

XX asr texnika va ilm-fanning eng gurkirab rivojlangan davri bo'lsa-da, ta'lim sohasida bir xil andoza edi. Masalan, 12-15 daqiqa darsni tashkil qilish va uyga berilgan topshiriqlarni so'rashga, 15-20 daqiqa yangi dars o'tishga, 5-7 daqiqa o'tilgan mavzuni mustahkamlashga, 1-2 daqiqa uy vazifasini tushuntirishga sarflanar edi.

Bugungi kunda o'qitish jarayonida EHM, kompyuterlar, mikroelektron mashinalardan keng ko'lamda foydalanilganlik natijasida yangi pedagogik texnologiya vujudga kelgan.

Aslida ta'lim tizimidagi yangi pedagogik texnologiyani qo'llash muammosi asrimizning 50-yillarida ko'tarilib, uning metodlari ishlab chiqilgan edi.

Yangi pedagogik texnologiyaning asosiy maqsadi dars jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlashlariga erishish hamda o'quvchilar bilimini baholashda reyting kabi me'yorlarni qo'llashdan iboratdir.

Hozirgi vaqt o'qitish jarayonida o'qituvchining o'rniga kompyuterlashtirilgan texnika vositalari bilan almashtirish borasida ham tajribalar o'tkazilmoqda. Natijada o'zaro ziddiyatli ikkita yo'nalish yuzaga kelmoqda

Bular:

- 1) o'qituvchi o'rnini texnika vositalari bilan almashtirish;
- 2) o'qitish jarayonida o'qituvchining mavqeini ko'tarish.

Bizningcha, ikkinchi yo'nalishni qo'llab-quvvatlash maqsadga muvofiqdir, chunki texnika vositalarini boshqarish hamda o'quvchilarni texnikadan foydalanishga o'rgatish ham o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

O'qituvchi o'zining pedagogik mahoratidan kelib chiqqan holda pedagogik texnologiya muammolarini yechish yo'lidan boradi. Aytish joizki, har bir o'quvchining fe'l-atvori, darsga qatnashishi ham pedagogik texnologiya muammolari doirasiga kiradi.

Ta'lim, o'z navbatida, quyidagi muammolarni qamrab oladi:

- 1) ta'lim maqsadi va o'qituvchi ijodkorligi;
 - 2) ta'lim maqsadini amalga oshirishdagi ichki jarayon;
 - 3) ta'lim jarayonida o'quvchi faoliyati.
1. Ta'limning maksimal aniqlik kategoriyalari va me'yorlari.
 2. Ta'limda maksimal aniqlikka erishish.

O'qitish maqsadi quyidagi ikki bosqichda amalga oshirilishni ko'rish mumkin:

1-bosqich-kursning maqsadlari.

2-bosqich-kundalik o'quv faoliyati maqsadlari.

Maqsadlarning turlari adabiyot kursi misolida quyidagicha bo'lishi mumkin:

O'tilgan mavzular (taxminiy)	bilim	qabul qilish	qo'llash	Tahlil	Umumlash- tirish	baho
1. Yozuvchining hayoti va ijodi	X	X	X	X		
2. She'riy asarlari.	X	X	X	X		
3. Nasriy asarlar	X	X	X	X		
4. Dramatik asarlar.	X	X	X	X		
5. Tarjimalari.	X	X	X	X		
6. Yozuvchi ijodning poetik xususiyatlari	X	X	X	X		

Ta'lim jarayonida o'quvchilar bilimni umumiylikdan xususiylikka tomon baholashga kelsak, ta'lim tizimi oldiga qo'yilgan umumiy vazifalarni amalga oshirish quyidagi maqsadlarni nazarda tutadi:

1. O'quvchilar tomonidan nazariy bilimlarni o'zlashtirish.
2. O'quvchilar egallagan bilimlarini yangi vaziyatda qo'llay olishi.

Umumiy maqsad: asarni o'rganish uchun bugungi kun yangiliklaridan xabardor bo'lish, o'quvchilarning dars jarayonida adabiy materialni o'zlashtirishi quyidagi masalalar doirasida amalga oshiriladi:

1. Adabiy mavzu yuzasidan o'quvchilar bilimni baholashga e'tiborni qaratish.
2. Adabiy mavzu yuzasidan har xil qarashlarga oid yetakchi fikrlarni tahlil qilish.
3. Matn asosida xulosa chiqarish.
4. Matndagi asosiy masalalarni ikkinchi darajalilardan ajratish.

Bu masalalarga har bir o'qituvchi o'z imkoniyatidan kelib chiqqan holda yondashishi mumkin.

Biz yuqoridagi ta'limning umumiy maqsadidan ikkinchi-xususiy maqsadga o'tish haqidagi fikrlarimizni bayon etdik. Bu borada navbatdagi masalalar dars jarayoniga taalluqli bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

1. Adabiy mavzu haqida ma'lumot berish, asar syujetida muhim o'rin tutgan lavhalarni ajratib ko'rsatish.
2. Mavzu bayonida aniqlikka erishish (sanalar, voqealar, davrlar va hokazo).
3. Qiziqtirgan mavzularga oid lavhalarni bayon etish.
4. Asarning poetik xususiyatlari ta'hliliga doir misollar keltirish.
5. Adabiy mavzuning asosiy mazmuni haqida ma'lumot berish.
6. Badiiy matndan olingan parchalarga sarlavhalar topish.
7. Badiiy parchalar poetikasiga oid fikrlarni umumlashtirish.
8. Badiiy matndagi qiziqarli epizodlarni tanlash.

Demak, adabiy ta'lim tizimida yangi pedagogik texnologiyani qo'llash ma'lum qolip asosida fikrlashni emas, balki umumiy yechimga xilma-xil ijodiy izlanishlar orqali kelishini taq'ozo etadi. Asosiy maqsadga erishish faqat

tushuntirish va aniqlash jarayoni bilan chegaralanmaydi. Masalan, adabiyot darslari jarayonida o'quvchilarning ma'lum bir vaqt ichida o'qituvchi tomonidan berilgan bilimlarni o'zlashtirishi o'sha bilimlarni takrorlay olishi va amaliyotda qo'llashi bilan belgilanadi. Buning uchun o'qituvchi dars jarayonida qabul qilingan standart matnlarga ijodiy yondashish lozim bo'ladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Adabiy ta'limning vazifalari nimalardan iborat?
2. Yangi pedagogik texnologiya deganda nimani tushunasiz?
3. Uning asoslari nimalardan iborat?
4. Darsliklar oldiga qanday talablar qo'yiladi?

Darsning tayanch tushunchalari

Maktabda adabiyot o'qitishdan maqsad o'quvchilarda ezgu ma'naviyatni shakllantirishdan iboratligi. Adabiy ta'limdan komil shaxsni shakllantirish talab etilishi. Adabiy ta'limning vazifalari sifatida: oddiy o'quvchidan kitobxon o'quvchi, anglaydigan o'quvchidan o'qiganlarini anglaydigan o'quvchi, anglaydigan o'quvchidan tahlillay oladigan o'quvchi, tahlil qila biladigan o'quvchidan muayyan asar haqidagi fikrini og'zaki va yozma tarzda qiynalmay ifoda eta oladigan o'quvchi tarbiyalashdir deb belgilanishi adabiyot o'qitishning mazmuni dastur, darslik, o'quv va metodik adabiyotlar, ko'rgazmali qurollar, yordamchi vositalar ham ta'lim mazmunini tashkil etishi.

4. MAVZU: ADABIY TA'LIM METODLARI

REJA:

1. Ta'lim usulini asoslash negizlari
2. Ta'lim usullarining tartibi
3. Ta'lim metodlari va uning tasnifi
 - a) Ijodiy o'qish;
 - b) Evristik metod;
 - v) Tadqiqiy metod;
 - d) Reproduktiv metod.

Adabiyotlar:

1. I.A. Karimov . Olloh qalbimizda, yuragimizda. Toshkent, 1999.
2. A.Zunnunov. Badiiy asar tahlili metodikasi. Toshkent; «O'qituvchi», 1989.
3. A.Zunnunov. Adabiyot o'qitish metodikasi. Toshkent; «O'qituvchi», 1992.
 1. A.Zunnunov, A.Aliev. Adabiyotni boshqa gumanitar fanlarga bog'lab o'rganish. Toshkent; «O'qituvchi», 1982.
 2. Q. Husanboeva, Chingiz Aytmatov va adabiyot darslarida mustaqil fikrlashlar. Til va adabiyot ta'limi, 2002, 2 – son, 13– 30 betlar.

1.TA'LIM USULINI ASOSLASH NEGIZLARI

O'qituvchi o'quv jarayonini turli xil ta'lim usullari yordamida tashkil etadi. «Ta'lim metodi, bu – o'quvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalarini o'stirish, ularda dunyoqarashni shakllantirish, o'zlashtirish qobiliyatlarini rivojlantirish- o'qituvchi qo'llaydigan ish usullaridir». Usul amaliy mashg'ulotda o'z mohiyatiga

mos usullar orqali qo'llanadi. «...ta'lim va tarbiya priyomlari ma'lum sharoitda o'z ta'sir doirasini kengaytiradi, ta'lim va tarbiyaga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bunday vaqtda biz ayrim priyomdan metod sifatida foydalanamiz yoki boshqacha aytganda, priyom metodga aylanadi».

Ta'lim jarayoni ikki tomonlamalik xarakteriga ega: o'qituvchi o'qitadi, o'quvchi o'qiydi. Tabiiyki, o'qituvchining ham, o'quvchining ham faoliyatida ma'lum maqsad bo'ladi. O'qituvchi faoliyatidagi asosiy maqsad-ta'lim berish, unda anglash ko'nikmasini hosil qilish, his etish madaniyatini, axloqiy tushunchalarni rivojlantirish, uni ma'naviy pok kishi qilib voyaga yetishtirishdir. O'quvchi faoliyatidagi asosiy maqsad-o'qituvchining topshirig'ini bajarish, o'quv jarayonida beriladigan bilimni o'zlashtirishdir.

O'quvchi, ayniqsa, kichik yoshdagi o'quvchi o'qituvchi faoliyatidagi maqsadning mohiyatini tushunmasligi, ta'lim va tarbiya jarayonini to'liq tasavvur qila olmasligi mumkin. Ammo u o'qituvchi topshirig'ini bajarish kerakligini biladi, his qiladi.

O'quvchi o'qituvchining u yoki bu topshirig'ini bajarish bilan o'z bilimi ortib, bilish faoliyati rivojlanayotganini sezadi, lekin o'qiyotgan fani usulini egallab borayotganini his etmaydi.

Shunga ko'ra, o'qituvchi ta'lim berish jarayonida o'quvchilarda anglash faoliyatini hosil qilish, ularga adabiy materialni ongli va chuqur qabul qilish yo'llarini, mustaqil vazifalarni bajarishda bu yo'llardan foydalanishni o'rgatishi lozim.

2. TA'LIM USULLARINING TARTIBI

Adabiyot o'quv fani sifatida murakkab ko'p qirrali mazmunga ega bo'lganligi sababli, darsda o'quvchilarning estetik, axloqiy va aqliy taraqqiyotiga, bilimlarni ongli, chuqur va puxta egallashlariga, ularda bilish va anglash ko'nikmalarini o'stirishga yordam beradigan usul va uslublar qo'llaniladi. Masalan, o'qituvchi, ijodiy o'qish, evristik (izlanish), tadqiqot, reproduktiv usullarini qo'llaydi.

Adabiyotni o'quv fani sifatida o'rganishning birinchi bosqichi-badiiy asarni o'zlashtirishdir. O'qituvchi-o'quvchini badiiy asar orqali hayot bilan tanishtiradi, unda hayotni ko'rish va anglashga qiziqish hissini o'stiradi. Ko'rish va anglash asarni chuqur, ijodiy o'zlashtirishning zaruriy shartidir.

O'quvchining shaxsiy ijodiy tajribasi, ijodiy o'qish usuli bu shartlarni amalga oshirishga katta yordam beradi. Badiiy asarni o'qish ilmiy va publitsistik asarlarni o'qishdan sifat jihatdan farq qiladi. Ijodiy o'qish so'zga, jumlagi, vaznga alohida e'tibor berishni talab qiladi.

Ijodiy o'qish usuli

Ijodiy o'qish usuli adabiyotga xos usuldir. Chunki, adabiyot fanining muhim qismi so'z san'atidir. O'quvchida badiiy asar vositasida badiiy didni rivojlantirish, badiiy kechinma va q'obiliyat hosil qilish va o'stirish ijodiy o'qish usulining asosiy xususiyatidir. O'quvchi badiiy so'zni tinglashni, qadrlashni, undan

zavq'lanishini ifodali so'zlash va yozishni bilishi kerak. Ijodiy o'qish o'quvchilarda ana shu ko'nikmalarni o'stirishni ta'minlaydi.

Badiiy qabul qilish estetik zavqlanish adabiyotni ilmiy asosda anglashda birinchi va muhim bosqich hisoblanadi. Chunki badiiy qabul qilish va estetik zavqlanish orqali asar obrazlari, til xususiyati o'zlashtiriladi.

Ijodiy o'qish usuli quyidagi ta'lim usullarida qo'llanadi.

1. O'qituvchining ifodali o'qishda, badiiy so'z ustalarning o'qishda, aktyorlarning pesadan ayrim parcha, ko'rinishlarni ijro etishidan (gramplastinka yozuvlarida, radio va televideniye orqali o'qishida).
2. O'quvchilarning ifodali o'qishida, o'qituvchining badiiy asarni sharh bilan o'qishida (sharxli o'qish) va asardagi nafosatni ko'rsatish maqsadida qiladigan qisqacha nutqida.
3. Asarni o'qish bilan o'quvchilarda hosil bo'lgan tasavvurni faollashtirish maqsadida suhbat o'tkazishda.
4. Asarni o'qish natijasida yuzaga kelgan va o'quvchilarning anglash faoliyatini rivojlantirish niyatida qo'yilgan masalalarni (badiiy, axloqiy, ijtimoiy, siyosiy) muhokama qilishda.
5. Asar tahlilidan keyin o'quvchining badiiy tasavvurini kuchaytirish yoki umumlashtirish maqsadida o'tkazilgan suhbatda, o'qituvchining yakunlovchi nutqida.
6. Hayotiy kuzatishlar va asar matni bo'yicha ijodiy topshiriqlarni muhokama qilish.

Izlanish (evristik) usuli

Evristik usul quyidagi ta'lim usullari orqali yuzaga keladi:

- 1) O'quvchilar fikrini asar tahliliga yo'naltiradigan, bilimni mustaqil egallashga, egalash usullarini o'rganishga yordam beradigan mantiqiy jihatdan aniq savollar tuzish (badiiy asarni tahlil qilish, tanqidiy maqolalar, nazariy yoki tarixiy-adabiy materiallar bo'yicha);
- 2) badiiy asar matnni yoki tanqidiy maqolalar bo'yicha butun sinf yoki bir guruh o'quvchilar uchun topishiriqlar tuzish (o'quvchilar topishiriqlarni og'zaki yoki yozma ravishda bajaradilar);
- 3) to'plangan materiallar asosida mustaqil suratda o'quvchilar qiladigan og'zaki bayon va yozadigan insho mavzularini belgilash (bu ishni bajarishda o'quvchilar qiynalib qolsalar, ularga o'qituvchi ko'maklashadi);
- 4) o'quvchilarning o'zlariga asarni tahlil qilish uchun savollar tuzishni asarlar va ulardagi obrazlar, lavhalarni taqqoslashni taklif etish;
- 5) O'qituvchi (yoki o'quvchilarga) qo'ygan masalalar bo'yicha suhbat uyushtirish (suhbatda bu masalalar, agarda, o'quvchilarda qiziqish va yangi fikrlar q'o'zg'atsa, navbatdagi darsda shu masala bo'yicha munozara uyushtirish mumkin).

Izlanish usuli o'quvchilarga adabiyotshunoslik fanini yaxshi o'zlashtirishga yordam beradi, ya'ni o'quvchilar bu usuli orqali adabiy asarni tahlil qilish yo'llari va usullarini nazariy tushunchalarni, tarixiy-adabiy dalil va qonuniyatlarni bilib oladilar.

Izlanish usuli o'quvchilari tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, bilimlarni o'zlashtirishga o'rgatadi, adabiy asar, tanqidiy maqola va boshqa materiallar ustida ishlash ko'nikmalarini o'stiradi.

Tadqiqot usuli

Adabiyotni o'rganishning uchinchi bosqichi-ijodiy fikrlashni rivojlantirish, tadqiqotchilik faoliyatini egallashga qaratilgan mustaqil ishlarni bajarish orqali badiiy asar mohiyatini ochish, tahlil qilishdan iboratdir.

Badiiy asarni bu tartibda o'rganishda tadqiqot usuli yuzaga keladi. Tadqiqot usulidan kuzatilgan maqsad-adabiyotning o'ziga xos xususiyatini kengroq yoritish, o'quvchilarni adabiy asarni mustaqil tahlil qila bilishga tayyorlash, ularda asarning g'oyaviy va badiiy ahamiyatini baholash ko'nikmasin o'stirish, ularning badiydidini takomillashtirishdan iboratdir.

Tadqiqot usuli, o'z vazifasiga ko'ra, izlanish usuliga yaqin tursa-da, undan farq qiladi: izlanish usuliga o'qituvchi o'quvchilar oldiga vazifalar qo'yib, ish uslublarini egallagan o'quvchilar bilim va bilganlarini amalda qo'llash orqali muhim masalalarni hal qiladilar.

Tadqiqot usuli quyidagi uslublar orqali amalga oshiriladi:

- 1) O'qituvchi seminar mashg'uloti uchun mavzular tavsiya qiladi, o'quvchilar o'zlarini qiziqtirgan mavzuni tanlab oladilar;
- 2) O'qituvchi butun sinf o'quvchilari oldiga masalalar qo'yadi, o'quvchilari oldiga masalalar qo'yadi, o'quvchilar uni ko'pchilik yoki yakka holda ishlaydilar;
- 3) O'qituvchilar dasturga kiritilmagan biror asarni mustaqil tahlil qilishni topshiradi yoki tahlil uchun o'quvchilarning o'zlari asar tanlaydilar;
- 4) O'qituvchi adabiy mavzuda estetik, adabiyoshunoslik, ahloqiy masalalar bo'yicha ijodiy xarakterdagi mavzularni tavsiya etadi.

O'qituvchi vazifalar top shirish bilan birga, maslahatlar uyushtirib, murakkab masalalarni hal qilishda o'quvchilarga ko'maklashadi, shu yo'l bilan o'quvchilar ishining mazmunli, to'g'ri g'oyaviy puxta bo'lishiga erishadi.

Reproduktiv usul

Reproduktiv usul o'quvchilarni bilimni quruq yodlashni emas, balki uni ongli o'zlashtirishni talab qiladi. Bundan tashqari, bilimni mustahkam egallash faqat yodlashga emas, balki fikrlash qobiliyatiga, fikrlash tezligiga boq'liqdir. Reproductiv usulda o'qituvchi o'rtaga muhim masalani qo'yib, materialni bayon etadi, masalaning mohiyatini yoritadi, shu orqali uning hal qilinishiga erishadi, o'zlashtirilishini ta'minlaydi, o'quvchilar fikrini boyitadi va rivojlantiradi.

O'qituvchi reproductiv usuldan foydalanishda o'quvchilarga bilim beribgina q'olmay, uni egallash yo'lini ham ko'rsatadi. O'qituvchi bu usul bilan u qadar katta bo'lmagan asarni (masalan, she'rni) yoki asardagi biror lavhani, qahramonni tahlil qilar ekan, o'quvchilar e'tiborini tahlil qilish usuliga jalb etadi, so'ngra o'quvchilarga boshqa asar, lavha, obrazni tahlil qilishni topshiradi.

Reproduktiv usulning ahamiyati o'quvchilarga faqat yangi bilimni bayon etishda emas, balki o'qituvchining o'quvchilar olgan bilimlarni umumlashtirish-

da, adabiyotning ahamiyati va kelgusi rivoji haqida qiladigan bayonida namoyon bo'ladi.

Reproduktiv usul quyidagi o'rinlarda qo'llaniladi:

- 1) O'qituvchining yozuvchi hayoti va ijodi haqida hikoya qilishda;
- 2) yozuvchining ijodiy yo'li haqidagi hikoyasida;
- 3) obzor mavzularni qo'shimcha materiallar, ko'rgazma qurollar, texnika vositalardan foydalanib ma'ruza qilishda (o'qituvchi o'z ma'ruzasining rejasini doskada yozib qo'yadi);
- 4) o'quvchilar to'plangan ko'rgazma materiallar bo'yicha topshiriqlar berishda.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Adabiy ta'lim metodi deganda nimani tushunasiz?
2. Ta'lim metodlari qanday turlarga bo'linadi?
3. Evristik metod nima?
4. Tadqiqiy metodning asoslari nimalardan iborat?

Darsning tayanch tushunchalari

Adabiy ta'lim metodi tushunchasi o'qituvchi o'quvchining o'rganish ob'yekti ustidagi faoliyatini tashkil etishi va buning natijasida o'quvchi tomonidan ta'lim mazmunini o'zlashtirish jarayonining amalga oshirishini anglatishi. Ta'lim metodlari quyidagicha tasnif etilganligi: 1. Ijodiy o'qish 2. Evristik metod. 3. Tadqiqiy metod. 4. Reproductiv metod.

Mavzu № 5. O'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish.

Reja:

1. O'quvchilarda adabiy tushunchalarning rivojlanish bosqichlari.
2. Kichik yoshli o'quvchi (V – VII sinf) – kitobxon sifatida.
3. Katta yoshdagi o'smirlarda VIII – IX sinf adabiy rivojlanishning o'ziga xosligi.
4. X – XI sinf o'quvchilarida adabiy tushunchalarning rivojlanishi.

Adabiyotlar

- 1...I. A. Karimov . Barkamol avlod orzusi. Toshkent: «Sharq» nashriyoti kontserni, 1999.
2. Q. Yo'ldoshev. Adabiyot o'qitishning ilmiy – nazariy asoslari. Toshkent: «O'qituvchi», 1996.
3. R. Usmonov. Yuqori sinflarda yozuvchi biografiyasini o'rganish. Toshkent: «O'qituvchi», 1968.
4. N. Saidaxmedov. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati. Xalq ta'limi, 1999, 1 – son.

1. O'qituvchi o'quvchilardagi adabiy tushunchalarning rivojlanish bosqichlari

O'qituvchi o'quvchilardagi adabiy tushunchalarning rivojlanish bosqichlarini bilmasdan turib, ta'limda usullarni qo'llash samarali natijalarga erisha olmaydi. Psixolog olimlarning fikricha, o'quvchi o'z rivojida turli bosqichlarni – kichik (10-12 yosh), katta (13-14) va o'spirinlik (15-17 yosh) davrini boshdan kechiradi.

O'quvchilarni adabiy tushunchalarning rivojlanishi ma'lum sinfda o'qishiga ham mos bo'ladi. Ya'ni kichik o'smir V-VII sinflarda, katta o'smir VIII- IX va o'spirin X-XI sinflarda o'qiydi.

O'quvchilar o'smirlik davriga ko'ra shartli suratda guruhlariga bo'linadi. Chunki insonda ma'naviy rivojlanish bir me'yorda davom etmaydi. Uning ichki rivoji faqat yoshiga emas, balki u tarbiyalayotgan ijtimoiy, oilaviy muhitga va uning shaxsiy xususiyatiga ham boq'liqdir.

Ma'lumki, har bir sinfda adabiyotni turli darajada o'zlashtiruvchi o'quvchilarni uchratish mumkin; ayrim o'quvchilarning adabiyotni o'zlashtirish qobiliyati boshqalarga qaraganda yaxshi rivojlangan, ayrimlarida bo'sh rivojlangan bo'ladi. Ammo bir xil yoshda va bir sinfda o'qiyotgan o'quvchilarning bunday xususiyatga ega bo'lishidan qat'iy nazar, ularning xususiyatida umumiylik ham mavjuddir. Bu umumiylik ularning adabiyotni o'zlashtirib borishlari davomida unga bo'lgan munosabatlarida, badiiy asarda aks ettirilgan qahramonlarga baho berishlarida ko'rinadi.

2. Kichik yoshli o'quvchi – kitobxon sifatida

Kichik o'smirning o'ziga xos xususiyati shundaki, u o'zini bu yoshda bola deb hisoblaydi. Lekin uning bu bolalik xususiyati xulq-atvorida, hatti-harakatida saqlansa ham, u o'zini katta bo'lgandek his qiladi va kattalarga o'xshab harakat qilishga intiladi. Bu davrda ularda san'atga, ayniqsa, kino va badiiy adabiyotga qiziqish boshlanadi. Ular xayoliy ertak, qahramon va jasur, shafqatli, oq ko'ngil odamlar haqidagi asarlarni o'qishga oshiqadilar. Bu oshiqish, qiziqish xislatlarni ularda turmush haqida o'z bilimlarini oshirishga intilishlarining o'sib borishi natijasida paydo bo'ladi. Ular bu yoshda kitobni turmushning aksi, unda tasvirlangan voqealarni haqiqat deb biladilar.

V-VII sinf o'quvchilari san'atning mohiyati haqida chuqur tushunchaga ega bo'linmalar ham, go'zallikni his qila boshlaydilar. Kitob o'qish ularga orom bag'ishlaydi. Masalan, dengizni, o'rmonni ko'rmagan o'quvchi kitob o'qish bilan shoir, yozuvchi tasvirlangan dengiz; o'rmon haqida tasavvurga ega bo'ladi va o'zicha ularni qog'ozda aks ettirishga harakat qiladi. Natijada ularda asarda tasvirlangan voqea, qahramon haqida o'zlarida paydo bo'lgan fikrni o'z so'zlari bilan bayon etish istagi qo'zg'aladi.

V-VII sinf o'quvchilari yozuvchining bayoni jo'shq'in nutq deb qabul qiladilar, o'zlarini tabiat, borliq qo'ynida yurgandek his qiladilar. Ular asarni o'qiganlarida, odatda, qahramonlar xususiyatiga e'tibor bermagan holda, o'zlariga kuchli ta'sir ko'rsatgan bir ikki qahramon obrazining xatti-harakatiga ahamiyat beradilar. Ular qahramonlarining kurashi, ruhiy kechinmalari imo-ishoralarida, nutqlarida namoyon bo'lishini yetarli anglamaydilar. Ularni ko'proq asarda tasvirlangan bolalar obrazi qiziqtiradi. Katta yosh kishilar obrazining

bolalarga g'amginlik keltirishi , shafqatsizlik qilish kichik o'smirlarga kuchli ta'sir etadi.

V-VII sinf o'quvchilari hamma narsa aniq va tez bo'lishini xohlaydilar. Shunda ularda jiddiylashish alomati sodir bo'ladi. O'smir o'z so'zining haqqoniyligiga ishongani uchun jiddiylashadi. Shu sababli ham , har bir o'qituvchi va metodistdan o'smirning bu xususiyatiga e'tibor berish, sabr bilan ularda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish talab etiladi. O'smirda asarni estetik qabul qilish, u haqda mulohaza yuritish, o'qigan va o'zlashtirganlarni xotirada saqlash, mantiqiy fikrlash qobiliyatini uzluksiz o'stirib borish, ya'ni ularni abadiy fikrlashga o'rgatib borish kerak.

Adabiy – estetik tahlil har bir asarning janriy xususiyatlari , o'quvchilarning yoshi, bilimi va egallagan malakalariga ko'ra o'ziga xoslik kasb etadi. Masalan, quyi sinflarda topishmoq predmet , voqea – hodisalar o'rtasidagi o'xshashlik taqqoslash orqali o'zlashtirilsa , maqollar mazmuni hayotiy misollar vositasida sharhlangandagina tushunarli bo'ladi. Chunki kichik yoshdagi bolalar voqealar oqimiqa , sarguzashtlarga ishqiboz bo'lsa, katta yoshlilar qahramonlarining ruhiy olami, ichki dunyosiga qiziqadilar.

Asar voqealarini tahlillash orqali tarbiyalash 5-6 sinflarda davom etadi. Chunki bu yoshdagi o'quvchilar oqni oq, qorani qora, yaxshini yaxshi, yomonni yomon tarzida konkret tushunadilar, ammo insonning murakkab ichki dunyosi ular uchun mavhumligicha qolaveradi. Sherning botirligi, tulkinning ayyorligi, quyoning qo'rqqoligi, itning vafodorligi, ularga hayot tajribasidan yaxshi ma'lum. Hayvonlarqa xos bunday sifatlar ertak va masal qahramonlarining hatti-harakatlarida, nutqlarida yorgin aks etgan. Lekin ular o'z holicha tasvirlanmaydi, balki boshqa qahramonlar bilan bog'liq ziddiyatlar vositalarida ifodalanadi. Bu esa , o'z navbatida , kishilar o'rtasidagi ziddiyatlarni aniqlashga yordam beradi.

Shukur Sa'dullaevning «Ayyor chumchuq», «It o'z eqasiqa ganday qilib do'st topdi?», Qudrat Hikmatning «Eshak neqa hanqraydi?» ertaklari , Anvar Obidjonning «Juda qiziq voqea» masali shu jihatdan ibratlidir.

Bu xildagi asarlarning qiziqarliligiga sabab ularda ishtirok etuvchi hayvonlar , parrandayu darrandalar, hatto jonsiz predmetlarning gapirishi emas, balki insonlarga xos fazilatlar va illatlarning ularga ko'chirilishidir.

Jumladan, mazkur ertaklarda tilga olingan chaqimchilik, qo'rqqoqlik, maqtanchoqlik illatlari ham, mardlik, vafodolik fazilatlar ham insonlarga xosdir.

Har qanday illat kishini beburd qilib qo'yadi. Masalan, chaqimchilik tufayli oralar buzilib, nifoq solinsa, qo'rqqoqlikdan ishonch, e'tiqod so'ndiriladi. Qolaversa , qo'rqqoqlikdan sotqinlik, xiyonat va nomardlikka bir qadam bo'lib, qo'rqqoqlik kishi sadoqat va jasoratdan mutlaqo yiroqdir.

O'qituvchi yuqoridagi asarlar tahlilida masalaning shu tomoniga alohida e'tibor berishi zarur. Asar voqealari asosidagi bunday mufassal tahlil o'quvchilarni adabiy qahramonlarning hatti– harakatlaridan xarakterga , voqea-hodisalar tasviridan ma'noga tomon yetaklaydi.

3. Katta yoshdagi o'smirlarda abadiy rivojlanishning o'ziga xosligi

Pedagog va psixolog olimlarning fikricha, VIII-IX sinf o'quvchilarida adabiyot haqidagi tushuncha V-VII sinf o'quvchilarining tushunchasiga nisbatan VIII-IX sinflarda o'quvchilar san'at, adabiyotga go'zallik namunasi sifatida munosabatda bo'la boshlaydilar, kitobni badiiy boylik deb biladilar. Shunga ko'ra, ular ko'proq o'zlarini qiziqtirgan kitoblar o'qiydilar. Asar qahramonlarining kechinmalari, murakkab hissiyotlari o'smirning o'z-o'zini, o'z shaxsiyatidagi xususiyatlarni anglab olishga, o'z ideallarini shakllantirishga va ro'yobga chiq'arishga yordam beruvchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Katta o'smir o'z ichki olami haqida fikr yurita boshlaydi, asardan o'ziga ma'q'ul bo'lgan voqea va obrazlarni axtaradi.

VIII-IX sinflardagi ayrim o'quvchilarda o'z qarashlarini, fikr – mulohazalarini bayon etishga ishtiyoq kuchayadi, asarni tahlil qilish ko'pincha shaxsiy mulohazalarni yoki qiziqarli mavzuni tahlil qilish bilan almashadi. San'at adabiyotga bunday shaxsiy munosabatga bo'lishi barcha o'quvchilarda bir xilda bo'lmaydi, albatta, ayrimlarda bunday munosabat sezilarli, ayrimlarda kuchsiz, boshqalarda sezilmaydigan darajada bo'ladi.

Shunga ko'ra VIII-XI sinflarda, o'quvchilardagi bu xususiyat e'tiborga olingan holda, ularning asarga beradigan shaxsiy baholari, bildiradigan mustaqil fikrlarning xolis bo'lishiga ahamiyat beriladi. Shu yo'l bilan ularda kitobxonlik qobiliyati nazariy–adabiy tushunchalar yordamida rivoj toptiriladi.

VIII-IX sinflarda vaziyat pedagogik jihatdan bir xil bo'lsa ham, o'quvchilar o'z xarakteriga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Bu sinflarda har bir o'quvchi shaxsiyatidagi o'ziga xoslik o'qigan asarlari haqida bildiradigan mulohazalarida, bilim darajalarida, narsa va voqealarga qiziqish va munosabatlarida namoyon bo'ladi. Shu tufayli, o'quvchilar bilan shaxsiy munosabatda bo'linadi, shaxsiy kechinmalari hisobga olingan holda, ayrim o'quvchining asar haqida xolis fikr bildirishiga yordam beriladi; obrazli fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan o'quvchida adabiyotga mustaqil yondashish qobiliyati o'stiriladi. Ammo, har vaqt barcha o'quvchilarning madaniy nutqini rivoj toptirishga ahamiyat beriladi.

Yuqori sinf o'quvchilari ko'proq qahramonlarning xarakter mantiqi, o'zaro va davr bilan bog'liq ziddiyatlari, kechmish-kechirmishlari o'rtasidagi sababiy bog'lanishga qiziqadilar. Qahramonlar ma'naviyatiga bo'lgan qiziqishlari tufayli o'quvchilar hayotning nurli va qorong'i jihatlari xususida muayyan tushunchaga ega bo'la boradilar. Ularda go'zallik va nafosatga muh abbat, yovuzlikka nafrat tuyg'ysi shu tariqa shakllanadi.

Abdulla Qodiriyning «Mehrobdan chayon», Abdulla Qahhorning «O'g'ri», P.Qodirovning «Humoyun va Akbar», Sofoklning «Shoh Edip» (7-sinf), Oybekning «Navoiy», M.Shayxzodaning «Mirzo Ulug'bek», Sharof Boshbekovning «Temir xotin», Chingiz Aytmatovning «Asrga tatigulik kun» (8-sinf), Yusuf Xos Xojibning «Qutadg'u bilig», Xorazmiyning «Muhabbatnoma» (9-sinf), A.Navoiyning «Farhod va Shirin», A.Qodiriyning «O'tgan kunlar», M.Behbudiyning «Padarkush», Hamzaning «Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari», Cho'lponning «Kecha va kunduz», O.Yoqubovning «Ulug'bek

xazinasini» asarlari tahlili adabiy ta'lim oldidagi bunday tarbiyaviy maqsadni amalga oshirishda o'qituvchi uchun katta qulaylik tug'diradi.

Badiiy matn ustida ishlash orqali o'quvchilarda adabiy–estetik tahlil malakasini shakllantirishda ularni nazariy bilimlar bilan qurollantirish ta'lim samaradorligini oshiradi. Chunki matn zaminidagi nafosat , yozuvchi ilgari surgan fikr asarning janriy xususiyatlari asosida o'rganilgandagina his qilinishi va o'zlashtirilishi mumkin. Masalan, she'riy asarlar tahlili lirikaning adabiy turi sifatida o'ziga xos xususiyatlari va vazifasidan kelib chiqib ish ko'rishni taqazo qiladi. Undagi har bir so'z , hatto tovush qaynoq hissiyot ma'noni quyushtirishga qaratiladi, ta'bir joiz bo'lsa, shoir fikrini hikmat darajasiga ko'tarish vazifasiga bo'ysundiradi. Matn asarning badiiy xususiyatlarini o'rganishdagina emas , tahlilning ifodali , adabiy sharhli yoki ijodiy o'qish, keng qamrovli, qiyosiy, muammoli, tadqiqot, noan'anaviy usullaridan foydalanganda ham asosiy manba bo'lib hisoblanadi. Jumladan, yuqori sinflarda asar syujeti, kompozitsiyasi, bosh qahramonlar timsolini o'rganish bo'yicha o'tkaziladigan turli tipdagi tahlillar matn ustida ishlash asosida olib borilsa, o'quvchilarning ijodiy faolliqi oshadi, mustaqil fikrlash doirasi kengayadi.

A.Qodiriyning «O'tgan kunlar» romani bosh qahramoni timoslini badiiy matnga tayangan holda quyidagi reja asosida o'rnatish orqali bunga to'la ishonch hosil qilish mumkin:

1. *Qahramon portreti.* Matndan Otabek portreti tasvirlangan o'rinlarni topinq. U sizda qanday taassurot qoldiradi? Otabekning tashqi ko'rinishida fe'l-atvorining qaysi jihatlari aks etgan?

2. *Qahramon nutqi.* Otabek nutqi boshqa qahramonlar nutqidan qaysi jihatlari bilan ajralib turadi? Bosh qahramon nutqining o'ziqa xos xususiyatlari nimalardan iborat?

3. *Boshqa qahramonlarning Otabekka munosabatlari.* Matndan Otabekka munosabat bildirgan o'rinlarni toping. Asar qahramonlari Otabek haqida qanday fikrlar bildirishadi? Kimlarning fikrlari Otabekka mos keladi? u boshqalar bilan munosabatda o'zini qanday tutadi?

4. *Qahramonning hatti-harakati* Otabek timsoli tasvirida fe'l-atvoriga to'g'ri kelmaydigan jihatlari bormi? U o'z e'tiqodiga qanday amal qiladi?

5. *Yozuvchining qahramonga munosabati.* Muallif Otabek timsoli orqali qanday q'oyani ilgari suradi? Adib bilan Otabek o'rtasida qanday o'xshashlik bor?

Adabiy ta'lim oldidagi yosh avlodni ma'naviy–axloqiy barkamol kishilar qilib tarbiyalashdek murakkab va mas'uliyatli vazifaning yuksak darajada hal etilishi ko'p jihatdan o'quvchilarda ana shunday adabiy – estetik tahlil malakasini shakllantirishga bog'liq . Bunda badiiy asar, adabiy –nazariy tushunchalar, o'quvchilarning yosh xususiyatlari, bilimi, shaxsiy faoliyati o'qituvchi mahorati asosiy omildir.

O'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish badiiy matn ustida ishlashning turli shakl va metodlaridan foydalanishni shart qilib qo'yadi. Masalan, ilk tahliliy ko'nikmalar boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida matn mazmuni yuzasidan savol-javob asosida, shuningdek, to'liq, qisqartirib, ijodiy va shaxsni o'zgartirib hikoyalash vositasida hosil qilinadi. Natijada, o'quvchilar matn zaminidagi yetakchi ma'noni aniqlash, nafosatni his etish malakasini egallaydilar. O'rta va yuqori sinflarda esa matn ustida ishlashda insho, referat, bayon taqriz, ma'ruza matnini tayyorlash kabi ish turlari kenq qo'llaniladi. Muayyan mavzu yuzasidan o'tkaziladigan bunday mustaqil ishlar o'quvchilarning fikrlash doirasini kenqaytiradi, nutqini boyitadi, shaxsiyatini tarbiyalashga yordam beradi.

Boshlang'ich sinflarda tahlil markaziga bolalar uchun maxsus yaratilgan she'r, topishmoq, hikoya va masallar o'rgatilsa, o'rta va yuqori sinflarda adabiy merosimiz xazinasida katta o'rin tutadigan butun boshli doston, drama va romanlar qo'yiladi. Bu esa adabiy tahlil malakasini bosqichma-bosqich izchil shakllantirishni taqazo etadi.

Tahlilda matnning o'quvchiga tushunarligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tushunarlik deganda yozuvchi yaratgan badiiy olamning betakror o'ziga xosligi, obrazli tasvirning o'quvchi hayotiy tajribasi, bilimi darajasiga muvofiqligi nazarda tutiladi. Chunki Oybekning tarixiy «Navoiy» romanini 5-sinf o'quvchisi «hazm» qilolmagani kabi, «Yer tagida oltin qoziq» topishmoqining javobini topshirish yoki bog'cha opalar to'g'risidagi she'rni yodlatish ham akademik litsey o'quvchisiga hech qanday zavq bermaydi.

Quyidagi sinflarda bir ruboiy yoki bir tuyuq o'rniga boshqa ruboiy yoki tuyuq o'rgatilsa, katta yo'qotish bo'lmaydi. Ammo yuqori sinflarda Alisher Navoiyning «Xamsa», Abdulla Qodiriyning «O'tkan kunlar», «Mehrobdan chayon», Cho'lponning «Kecha va kunduz», Oybekning «Navoiy» kabi adabiyotimizning oltin fondini tashkil etuvchi salmoqdor asarlari o'tilmasa, adabiy ta'limda mukammallikka erishib bo'lmaydi, sharqona tarbiya kemptik bo'lib qoladi.

Badiiy matn ustida ishlash orqali o'quvchilarning adabiy-estetik tahlil malakasini shakllantirish shunchaki bilim berish vositasi emas, balki adabiy ta'lim oldidagi ta'lim va tarbiya uyg'unligiga qaratilgan eng dolzarb masaladir.

Shunga erishish kerakki, adabiy-estetik tahlil o'quvchining bilimdonligini boyitsin, hissiyotiga cheksiz ta'sir ko'rsatsin, aqlini charxlab, dunyoqarashini kengaytirsin, nutqini o'stirsin. Buning uchun o'qituvchi adabiy-estetik tahlil bilan boq'liq vazifa va topshiriqlarning o'quvchilar tomonidan aniq va to'la tushunishiga erishishi, bilimlarning ular yoshiga mos bo'lishini aniq va to'la bo'lishiga erishishi, bilimlarning ular yoshiga mos bo'lishini hamisha diqqat markazida tutishi lozim.

4. X-XI sinf o'quvchilarida adabiy tushunchalarning rivojlanishi

Dastlabki o'smirlik davri–insonning ma'naviy va jismoniy kamol topish davridir. Bu davrda unda dunyoqarash rivojlanadi, har bir hodisaga ishonch

bilan qarash kuchayadi, sevgi hissi uyg'onadi, o'ziga va atrofdagilarga , atrof-muhitga yondashish darajasi, san'atga qiziqish VIII-IX sinf o'quvchilardagiga nisbatan ortiqroq bo'ladi va muntazamlik kasb etadi.

Dastlabki o'smirlik yillarida o'quvchilarda san'atga adabiyotga go'zallik namunasi sifatida munosabatda bo'lish mustahkamlanadi. Ularda adabiyotni tushunish qobiliyatining rivojida sifat jihatdan yangi bosqich boshlanganligi badiiy asarga bo'lgan munosabatlarida ko'rinadi.

X-XI sinflarda ham, adabiyot oldingi sinflardagi kabi o'quvchining shaxsiy kechinma va mulohazalarini boyitadi. Bu sinflarda o'quvchilar asardagi o'zlarini qiziqtirgan voqealarni osoyishtalik bilan bayon etishga harakat qiladilar. Ulardagi bu xususiyatni psixolog olimlar insonning o'smirlikdan o'spirinlikka o'tish davridagi o'zgarish deb izohlaydilar.

X-XI sinf o'quvchilarining atrof-muhitni anglashi va hayotda o'z o'rinlarini topib olish istagi adabiyot kursini o'tish jarayonida sezilib turadi. Bu sinflardagi o'quvchilarni o'z istaklari va orzularini amalga oshirishga yordam beradigan badiiy yuksak asarlar qiziqtiradi.

X-XI sinflarda adabiy tushunchalari kamroq rivojlangan o'quvchilar ham asarning g'oyaviy mazmunini o'zlashtirish bilan , uni o'zlariga orom bag'ishlovchi go'zallik namunasi deb his qiladilar, asar qahramonini ma'lum tarixiy davr mahsuli sifatida qabul qiladilar.

Shunga ko'ra, qahramonga baho berishda ular ko'proq uning xulq-atvoriga e'tibor beradilar.

X-XI sinflarda asarni baholashda asosiy mezon uning o'quvchiga bevosita ko'rsatadigan zavqlanish ta'siridir.

Umuman adabiyot o'qituvchiga V-VII , VIII-IX va X-XI sinf o'quvchilarining ruhiy hissiyotlari xususiyati va bu xususiyat ularning adabiyotga bo'lgan munosabatlarida qanday aks etayotganini bilishi kerak. Buning uchun o'qituvchi adabiyot o'qitish jarayonida tadbirkorlik , sezgirlik, mohirlik bilan o'z shogirdlarini axloqiy jihatdan kamol toptirib boradi.

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. Nima uchun adabiyot darslarini uyushtirishda 5-6 –sinf bolalariga xos alohida biologik, psixologik va pedagogik xususiyatlar hisobga olinishi zarur?
2. Nima uchun 7-sinfdan boshlab adabiyot o'qitish ancha murakkablashishi kerak?
3. Katta yoshdagi o'smirlarda adabiy rivojlanish qay darajada bo'ladi?
4. Qaysi yoshdagi o'quvchilarda analitik fikrlash kuchliroq bo'ladi?

TAYANCH TUSHUNCHALAR:

Adabiyot darslarini uyushtirishda 5-6 sinf bolalariga xos alohida biologik , psixologik va pedagogik xususiyatlar hisobga olinishi zarurligi. Maktabda 7-

sinfdan boshlab adabiyot o'qitish ancha murakkablashishi zarurligi . 8-9 sinf o'quvchilarida analitik fikrlash kuchliroq ekanligi.

6- MAVZU: IJODKOR TARJIMAI HOLINI O'RGATISH

REJA:

1. Maktabda ijodkor tarjimai holini o'rganishning maqsad va asoslari.
2. Ijodkor tarjimai holini o'rganishning turlari.
 - a) adib hayoti to'g'risida qiziqarli ommabop hikoya;
 - b) yozuvchi hayot yo'lining ilmiy bayoni.
3. Ijodkor tarjimai holini o'qishda uning boshqa yozuvchilar bilan adabiy aloqada bo'lmaganligiga ahamiyat berish.
4. Mazkur mavzuni o'tishda plastinka va magnitofon yozuvlari, diafilm, tarixiy va adabiy materiallardan foydalanish.

Adabiyotlar

- 1.S. Ismatov Maktabda A.Qahhorning hayoti va ijodini o'rganish Toshkent: O'qituvchi, 1978.
- 2.R. Usmonov. Yuqori sinflarda yozuvchi biografiyasini o'rganishda. Toshkent: O'qituvchi, 1968.
- 3.F. Is'hoqov. Maktabda Gulxaniy adabiy merosining o'rganishi. Toshkent: O'qituvchi, 1983.
- 4.K.Jo'raev Maktabda Oybekning hayoti va ijodini o'rganishi. Toshkent: O'qituvchi, 1974.
- 6.G.Mamedova . Mahmudxo'ja Behbudiyning hayoti va ijodini o'rganish bo'yicha spektakl – darsFF Til va adabiyot ta'limi, 2002 , 5-son , 18-22 - betlar.

Yuqori sinflarda yozuvchilarning tarjimai holi ijodiy faoliyati bilan bog'liq holda o'rganiladi. Bunda o'quvchilarning diqqat-e'tibori yozuvchining adabiyot rivojida, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotida tutgan o'rniga, ijtimoiy yuksalishning asosiy bosqichlariga jalb etiladi. Bu masalalar bo'yicha ma'lumotni o'quvchilar, asosan, darsda, yozuvchining hayoti va ijodi haqida qilinadigan ma'ruzadan oladilar, ayrim asarlarni o'qish va o'rganish bilan u haqida kengroq tushunchaga ega bo'ladilar.

Adabiyot o'qituvchisi yuq'ori sinflarda yozuvchining hayoti va ijodi haqida ma'ruza qilishdan oldin o'quvchilarga uning V-IX sinflarda va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'qigan asarlarini eslatadi. Chunonchi, X sinfda Alisher Navoiyning hayoti va ijodini o'rganishga kirishishdan oldin V-IX sinflarda o'qilgan ruboiy, tuyuq, qit'alarni va dostonlaridan olingan hikoyatlarni, ular haqida berilgan ma'lumotlarni eslatadi. Shundan keyin o'qituvchi Abdulla Qodiriyning o'zbek adabiyotida tutgan o'rni va roman janrining yuzaga kelishi, yozuvchining adabiyotimiz rivojida katta xizmatlari haqida ma'lumot beradi. Shundagina o'quvchilar Alisher Navoiy va Abdulla Qodiriyning adabiy va ijtimoiy-siyosiy hayotdagi mavqei, o'z davrida ilg'or fikrlar targ'ibotchisi bo'lganligi, ularning dunyoqarashi haqida ma'lum tasavvurga ega bo'ladilar.

Yozuvchining tarjimai holini o'rganishda uning boshqa yozuvchilar bilan adabiy aloqada bo'lganiga, ular ijodiga bo'lgan munosabatiga ahamiyat beriladi. Chunki har bir yozuvchi faqat o'z zamondoshlari bilan cheklanmasdan, o'zidan oldin yashab ijod etgan yozuvchilarning adabiy merosini o'rganadi, ularning eng yaxshi an'alarini ijodiy davom ettiradi. Shu ma'noda u o'tmish avlodlar ijodning davomchisi, kelajak ijodkorlarning ustoz, yosh avlodning tarbiyachisi hisoblanadi.

O'qituvchi yozuvchining tarjimai holi va ijodiy faoliyati haqida ma'lumot berishda darslik materiallaridan tashqari, zamondoshlarining u haqda bildirgan fikr va xotiralari hamda hayotiga doir o'zi yozgan asarlaridan foydalanadi. Masalan, Alisher Navoiyning tarjimai holini o'rganishda Xondamirning «Makorim-ul axloq» («Yaxshi xislatlar»), Olim Sharafiddinovning «Alisher Navoiy», V. Abdullayevning «Navoiy Samarqandda», I. Sultonovning «Navoiyning ijodiy metodi», N.M. Mallaevning «Alisher Navoiy va xalq og'zaki ijodiyoti» asarlari va boshqa materiallar yaxshi manba bo'la oladi.

Yozuvchining hayot yo'li va adabiy faoliyatini o'rganishda uning siymosi ibratli tarzda yoritilgan asarlarni eslatish, hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan voqealarni qisqacha hikoya qilish darsning qiziqarli bo'lishiga yordam beradi. Masalan, Alisher Navoiyning tarjimai holi va adabiy faoliyatini o'rganishda buyuk shoir ijodining gultoji bo'lgan «Xamsa»ning yaratilishi haqida gapirilar ekan, Abdurahmon Jomiyning «Xiradnomayi Iskandar» asarning xotima qismidagi quyidagi satrlarni o'qib berish mumkin:

Bu beshlarga avval boshlab urib panja,
Xushxabarlar keltirganning yurti Ganja.
Lekin turkiy tilda keldi bu naq'sh ajab,
Uni ko'rib sehrli so'zlar bog'lagay lab...
So'zamollik maydoniga sen so'rding ot,
Qayta bodan so'zning yurt porladi bot.
Sening aq'lu fikring bilan safo topdi,
E.Navoiy, lutfing bilan navo topdi.

Yozuvchining hayot yo'lini bayon etishda plastinka va magnitofon yozuvlari, o'quv va diafilmlar, rasmlar, tarixiy va adabiy materiallardan ham foydalaniladi. Ma'ruza jarayonida o'qituvchi yozuvchining asarlarini namoyish qiladi, ulardan parchalar o'qib beradi. O'z navbatida, o'quvchilar ham yozuvchining ayrim asarlaridan parchalarni yoddan o'qib mazmunini og'zaki bayon qiladilar. Darsni bu tartibda tashkil etish o'quvchilarda yozuvchi shaxsiga, uning ijodiga nisbatan qiziqish, muhabbat hissini o'stiradi, asosiy mavzu sifatida o'rganiladigan asarni puxta o'zlashtirish uchun zamin yaratadi.

1) Adib hayoti to'g'risidagi qiziqarli ommabop hikoya

Yangilanish adabiyot fanini o'qitish mazmunini o'zgartirish bilan fanni o'qitish uslubiyatini o'zgartirishni talab etadi. Shu o'rinda bu boradagi yangi texnologiya tushunchasi bilan noan'anaviy dars tushunchasining farqi haqida gapirish o'rinlidir, chunki ko'pchilik o'qituvchilar ularni farqlamay, tenglashtiradilar.

Vaholanki, noananaviy dars shunchaki bir usul bo'lib, yangi texnologiya usullar majmuasidir. Bu texnologiyaga an'anaviy dars ham kirishi mumkin, agar bu darsda yangi bilim olishda o'quvchilar ob'yekt emas, sub'ekt sifatida faol bo'lsalar. Shu bilan birga, noan'anaviy dars yangi texnologiya ruhida o'tkazilmasligi mumkin.

Biz yangi texnologiya ruhi bilan sug'orilgan noananaviy darslardan ikkitasi tafsilotini q'o'llanmaning ilova qismida berdik. (1-ilova)

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Nima sababdan adabiy ta'limda adiblar umrbayoni o'rganiladi?
2. Ijodkor tarjimai holini o'rganishning qanday turlari mavjud?
3. Mazkur tipdagi mavzularni o'tishda spektakl metodidan qanday foydalanish mumkin
4. Dars jarayonida adib hayoti to'g'risida qiziqarli ommabop hikoyani keltirish qanday ahamiyatga ega?

Darsning tayanch tushunchalari.

Adabiy ta'limda yozuvchilar umrbayoni ikki sababga ko'ra o'rganilishi. Birinchidan, adiblar millatning e'tiborida turgan kishilar bo'lganidan bolalarga, avvalo, ma'naviy namuna maktabi ekanligi. Ikkinchidan, adiblarning hayot yo'li, saviyasi asarlarda, ma'lum darajada, aks etgani sababli ularni o'rganish asarlarini tushunishga qodir bo'lishi mumkinligi.

7- mavzu: Badiiy asarni tahlil qilish yo'llari va turlari

Reja:

1. Maktabda badiiy asarni tahlil qilish yo'llari.
2. Asarlarni tahlil qilishning maqsad va asoslari
3. Tahlil turlari
4. Muammoli tahlil – asarni o'rganish usullaridan biri.
5. Maktabda badiiy asarni tahlil qilishdagi qiyinchiliklar.
6. V-IX sinflarda badiiy asarni tahlil qilish.

Adabiyotlar:

1. I.A. Karimov . Olloh qalbimizda, yuragimizda. Toshkent, 1999.
2. A.Zunnunov. Badiiy asar tahlili metodikasi. Toshkent, «O'qituvchi», 1989.
3. A.Zunnunov. Adabiyot o'qitish metodikasi. Toshkent, «O'qituvchi», 1992.
4. Q. Husanboyeva, Chingiz Aytmatov va adabiyot darslarida mustaqil fikrlashlar Til va adabiyot ta'limi, 2002, 2 – son, 13 – 20 betlar.

Maktabda badiiy asarni tahlil qilish yo'llari.

Maktabda badiiy asarni tahlil qilish yo'llari – uni o'rganishning umumiy yo'nalishini, o'qituvchi bajaradigan ishning rejasini belgilab olish yo'lidir. Tahlil usullari esa, badiiy asarni tushunish va his etish, uning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlab olish o'qituvchining har bir mashg'ulotda qo'llaydigan ish uslubidir. Tahlil usullari dars jarayonida adabiy asarni o'rganishda o'qituvchi bilan o'quvchilar bajaradigan ishlarni muayyanlashtiradi. Binobarin, bu usullar darsning barcha bosqichlarida - ifodali o'qish va qayta hikoyalash, matnni izohlash va qiyoslash, yozuvchiga ergashib tahlil qilish, asar obrazlari tartibini aniqlash va asarni muammoli tahlil qilishda faol qo'llanadi.

Adabiy asar matnini o'rganish usullari tushunchasi ta'lim usullari tushunchasiga nisbatan birmuncha chegaralangan bo'ladi. Masalan, badiiy asarning syujeti, kompozitsiyasi bo'yicha jadval tuzish asarni o'rganishda eng qiziqarli ishlardan hisoblanadi. Bu usul yozuvchi tarjimai holini o'rganishda ham, adabiy matnni tahlil qilishda ham, obzor mavzularni o'tishda va sinfdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida ham qo'llanadi. Chunonchi, «Farhod va Shirin» dostoni bo'yicha tuzilgan jadval o'quvchilar ko'z o'ngida asar muallifi qiyofasini, hayotga bo'lgan munosabatini yaqqol gavdalantirishi bilan birga, muallifning g'oyasi va dunyoqarashini chuqur anglashga yordam beradi.

Asarni tahlil qilish usullari, ko'pincha, ma'ruza va suhbat yoki o'quvchilarning mustaqil ishi shaklida amalga oshiriladi. Masalan, asarni hayotiy voqealar bilan qiyoslash ma'ruza, suhbat yoki o'quvchilar bajaradigan mustaqil ishlarning asosiy mavzui bo'lishi mumkin.

O'quvchilarning asarni idrok qilish qobiliyatlarini taraqqiy ettirish uchun zarur bo'lgan usullarni asarlarning xususiyatiga tayangan holda o'qituvchining o'zi tanlaydi. O'qituvchi uchun badiiy asarni o'rganib, eng zarur va qulay usullarni tanlash va uni muvaffaqiyat bilan amalga qo'llash ijodiy ish sanaladi. Binobarin, ruhshunoslik va adabiyot o'qitish usuli hamisha o'qituvchining hamrohi yordamchisi bo'lsa ham, undan hamma vaqt adabiyot

o'qitish jarayonida yangi- yangi usullarni o'ylab topishni, doimo ijodiy faoliyat ko'rsatishni taqozo etadi.

O'qitish jarayonida badiiy asarni idrok qilishni kuchaytiruvchi maqbul tahlil usullarini tanlash murakkab masala bo'lib, juda ko'p vaqtlardan buyon o'qituvchilar diqqatini o'ziga jalb etib kelmoqda. Metodistlardan M.A. Ribnikolva, V. V. Golubkov, N.I.Kudryashev, V.A Nikolskiy o'zbek metodist olimlaridan A. Zunnunov, S. Dolimov, K. Axmedovlar tahlil usullari ustida qunt bilan ishladilar va ma'lum darajada muvaffaq'iyatlarga ham erishdilar.

Maktabda badiiy asarni o'rganishda o'quvchilarning badiiy asarni his etishi va unga bo'lgan munosabati asar muallifi tutgan yo'lga uyg'unlashtirilishi lozim. O'qituvchi maktabda badiiy asarni o'zlashtirib olish jarayonini yaratadi. Bunda o'quvchilarning bilimni qanday o'zlashtirganliklarini bilish bilan birga, ularga badiiy asarni anglab olish yo'llarini topa bilish, adabiy matnni mustaqil tahlil qilish qobiliyatlarini rivoj toptirishga ham alohida e'tibor beriladi.

O'qituvchi maktabda o'quvchilarni asarni o'rganishga qiziqtiribgina q'olmay, tahlil jarayonida yozuvchining g'oyaviy niyatini bilib olishlariga, asar mazmunini tasavvur qilishlariga, ularda asarni estetik baholash ko'nikmalarini o'stirishga, egallagan bilimlarini aql-zakovat, his-hayajon bilan ifodalashni bilishlariga ham ahamiyat berishi lozim.

Maktabda badiiy asar o'quvchining qabul qilish qobiliyati va badiiy tafakkur qonuniyatlariga asoslangan holda o'rganiladi va tahlil qilinadi. Bu, ishning qanchalik samarali bo'lganligi asarni chuqur o'rganish, uni faol his etish orqali o'quvchida paydo bo'lgan izlanishlarda namoyon bo'ladi. Masalan, Muq'imiyning «Tanobchilar» satirasini o'rganishda o'quvchilar «Asarda qanday voqea aks ettirilgan?» degan savol «Asarda mehnatkashlarning o'tmishdagi og'ir ahvoli va ularning mahalliy amaldorlar tomonidan talanishi aks ettirilgan» deb osongina javob beradilar. Ular Maxmurning «Hapalak» she'ri, Zavqiyning «Ahli rasta» satirasi kabi asarlar yuzasidan berilgan savollarga ham shu mazmunda javob berishlari mumkin. Tabiiyki, bunday oson javob o'quvchining asarni chuqur o'rganganligini bildirmaydi. Binobarin, o'quvchilarning har biri asarda aks ettirilgan voqeani umumiy tarzda bayon qilmasdan, uning mazmuni, o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda javob berishlari lozim. «Tanobchilar» satirasini o'rganish jarayonida mahalliy amaldorlar – Hakimjon bilan Sultonoalixojalarning g'azabini, dehqonlarning ular oldida qaqshab, titrab turishlarining sababini anglaganlaridagina, Muqimiyning his- tuyg'ularini aniq tasavvur qiladilar. Demak, asarda bayon qilingan voqealarning o'quvchi ongiga singishi uchun, u asar mazmunini mantiqan his etishi lozim.

Badiiy ijod qonuniyatlariga tayanish zarurati, his – hayajonni kuchaytirish, tafakkurni rivojlantirish, ayniqsa, dramatik asarlarni o'rganishda aniq seziladi. Sahnada ijod etishga mo'ljallangan asar o'quvchi ongini faollashtiradi, his-tuyg'ularini kuchaytiradi. Har bir qahramon o'z nutqi, so'zlash usuli, hatti – harakati bilan o'quvchining ko'z o'ngida yaqqol

gavdalanadi, o'quvchilar artist va rejissyor faoliyatiga taaluqli bo'lgan badiiy va ijodiy vazifani ham anglab oladilar.

Obrazlilikni , jozibalilikni , izchillikni , hayajonlanishni idrok etish – bularning hammasi yosh kitobxonning tasavvuriga ta'sir etuvchi badiiy tilning go'zalligiga taaluqli bo'lib, bular asarni chuqur his etishlariga yordam beradi. Shu boisdan maktabda badiiy asarni tahlil qilishda o'quvchilarning ijodiy idrok etish qobiliyatini rivojlantirish eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Maktab tahlilini badiiy tafakkur qonuniyatlariga yaqinlashtirish zarurati yozuvchining g'oyaviy niyati, uning kitobxon oldiga qo'ygan vazifasidan kelib chiqib hal etiladi.

ASARLARNI TAHLIL QILISHNING MAQSAD VA ASOSLARI

Maktabda adabiyotni so'z san'ati sifatida o'qitish o'quvchilarda uni jozibali qabul qilish, mustaqil fikrlash qobiliyatini kamol toptirishni taqozo etadi.

O'quvchilar hayotiy voqea–hodisalarni bilish, odamlar va ularning ruhiyatini anglashga ehtiyoj tug'ilishi bilan adabiyotni anglashga qiziqish paydo bo'ladi. O'qituvchi badiiy asarni o'qitish orqali o'quvchilarga hosil bo'lgan ana shu qiziqishni rivoj toptiradi, ularni san'at olamiga olib kiradi, yoshi , bilim darajasini hisobga olgan holda, ularning badiiy didini o'stiradi. O'quvchilarning adabiy bilimni oshirmasdan, tarixiy dalillarni o'zlashtirishlariga, jamiyat tarixini anglab olishlariga, erishmasdan turib , badiiy so'z san'atini anglab olishlariga erishib bo'lmaydi. O'quvchilar badiiy adabiyotni so'z san'ati sifatida anglab olishlari uchun, uning go'zalligini his etishlari kerak. Shundagina ular badiiy asarni chuqur o'zlashtiradilar.

Maktabda badiiy asarni tahlil qilish o'qituvchidan adabiyotshunoslik fanini, shuningdek, pedagogika va bolalar psixologiyasi ilmlaridan xabardor bo'lishni ijodkorlikni, ilg'or tajribalarni uzluksiz o'zlashtirib borishni talab qiladi.

V – IX sinflarda badiiy asarni tahlil qilish

O'quvchilar sinfda, uyda ifodali o'qish bilangina badiiy asarni o'zlashtiradilar deb bo'lmaydi, ularda ma'lum masala bo'yicha o'qituvchiga murojaat etishga ehtiyoj tug'iladi, albatta. Chunki asarni o'qish bilan o'quvchida to'liq tasavvur va his hayajon uyg'onmaydi. Shu jihatdan ham asar sinfda tahlil qilinadi, u haqida suhbat uyushtiriladi. Shundagina o'quvchilar yozuvchi tasvirlagan voqea–hodisalarni, chizgan manzaralarini, ularning mohiyatini tushunib oladilar, asar nafosat namunasi ekanini va uning mazmunini anglab oladilar. Shundagina ularda asarga qiziqish, uni e'tibor bilan o'qishga havas, asarda yozuvchi tasvirlagan voqealar, obrazlarni, ularning xatti-harakatini bilib

olishga ishtiyoq' ortadi, ular asarni badiiy hikoya qilib berish ko'nikmasini egallaydilar.

Chingiz Aytmatovning «Oq kema» qissasi ham ajoyib namunali asarlardan biridir. Qissada ezgulik va yovuzlik, soflik va illat, insoniylik va vaxshiylik, go'zallik va xunuklik to'qnashadi. «Oq kema» qissasida tasvirlangan voqea Qirgizistonning Satosh darasida bo'lib o'tadi. Yozuvchi bu voqeani o'rmon qorovuli O'rozqul, uning xotini Bekey xola, qaynotasi Mo'min buva, Mo'min buvaning nabirasi-bola, o'rmon ishchisi Saidahmad va uning xotini Guljamol, mashina haydovchi Qulibek, O'rozqulning oshnasi Ko'katoy hamda Jalasoydagi muallima obrazlari orqali bayon etadi. Qissada Mo'min buva, bola, Qulibek bosh ijobiy qahramonlar, O'rozqul va uning hamfikrlarini salbiy obrazlar sifatida tasvirlaydi.

Qissa etti qismdan iborat bo'lib, unda qirg'iz xalqining tarixi, erk va mustaqillik uchun olib borgan kurashi tabiatga bog'liq holda ifodalangan.

Qissadagi Shoxdor ona bug'u shu ona tabiatning farzandi, ertakning asosiy qahramoni va go'zallik ramzi sifatida tasvirlanadi. Mo'min buva o'z nabirasiga Shoxdor ona bug'u haqida ertak so'zlab beradi.

«Oq kema» ertagi sof ertak emas, balki bolaning xayoli, tasavvuri, hayotiy orzularidir. Bu xayol va orzular bolada Santosh darasidagi qorovul tog'i cho'qqilaridan Issiqko'lni tomosha qilganda tug'iladi.

Qissada go'zal va xunuk tomonlarni ifodalovchi kuchlar bir-biriga qarama-qarshi qo'yiladi. Bir tomonda Mo'min buva, Bola, Qulibek, muallima ayol, ikkinchi tomonda esa O'rozqul, Ko'katoylar turadi.

O'rozqul-jaholat, tubanlik, vahshiylik, razolat, nodonlik va yovuzlik ramzi. U befarzand. Shunday bo'lsa - da, Bolaga bir og'iz iliq so'z aytmaydi. Nega shu bola meniki emas, degan hasad iskanjasida qiynaladi.

O'rozqul bemehr bo'lgani uchun, Mo'min buva Bolani Jalasoydagi maktabga o'qishga berganda, uning ustidan kuladi. Mo'min buvaning Bolani maktabdan olib kelib, so'ngra ishni davom ettirish haqidagi taklifidan g'azablanadi. Uni qabih so'zlar bilan haqoratlaydi.

O'rozqul xotini Bekey xolani haqorat qiladi, xo'rlaydi, uradi. Qaynonasi Mo'min buvani ruhan ezib, azob beradi. Chingiz Aytmatov «Bunday kishilarni kechirish kerak emas. U past, yaramas odam. O'rozqulbek kishini allaqachon daryoga tashlash payti kelganligini hech kim payqamaydi», -deb afsuslanadi. Bu yozuvchining O'rozqulga bergan o'z bahosidir.

Qissada Chingiz Aytmatov O'rozqulga o'xshagan yovuz niyatli odamlar go'zal qalbli odamlar ustidan hukmron bo'lganliklari uchun ularni yo'qotish qiyinligini aytadi. Chindan ham O'rozqul kabilar yaxshi odamlarni oyoq osti qiladilar, masxaralaydilar. Bunga sabab shuki, O'rozqullar Mo'min buva kabi yaxshi niyatli kishilar hali kurashish qobiliyatiga ega emasliklarini yaxshi biladilar. Chingiz Aytmatov qissasida Mo'min buva singari kishilarning haddan tashqari mo'minligini alam bilan tasvirlaydi.

«Oq kema» qissasining badiiyligi shundaki, unda qahramonlar obrazida qirg'izcha xalqiga xos xususiyatlar ifodalangan. Masalan, Mo'min buva qirg'izcha qalpog'ini kiyib yuradi va uni o'rmonchilarning qalpog'idan afzal ko'radi. Shoxdor ona bug'u insonlar uchun o'z shoxida qayindan yasalgan beshik keltiradi. U ikki go'dakni Issiqko'l sohillariga keltirib, ularga baxt tilab deydi: «Mana shu yangi Vataningiz bo'ladi..Ming yillar tinch–totuv yashanglar.. Ha, sizlarning avlodingiz yashaydi, ko'payadi. Sizlar keltirgan tilni avlodlar unutmaydi. Ularga o'z ona tillarida so'zlash va kuylash yoqimli bo'ladi. Insonlarga qanday yashash lozim bo'lsa, shunday yashanglar».

Chingiz Aytmatov «Oq kema» asarida boyni dafn etish marosimini tasvirlashda azaldan davom etib kelayotgan yig'lash va qirg'izcha aytishuvga alohida to'xtab, baxshilar tilidan xalqning axloqiy va go'zallik haqidagi g'oyalarini bayon etadi. U «Odamlar aql o'rniga boyligini ko'z – ko'z qilishsa, qanday yaramaslik. Hofizlar hamdu sano o'qishda bahslashishsa qanday yaramaslik, ular qo'shiqchidan qo'shiq kushandasiga aylanishadi». «Boyluk takabburlikni, takabburlik esa telbalikni tug'diradi». «Pul hukmron bo'lgan joyda ezgu so'zga o'rin yo'q, go'zallikka o'rin yo'q», - deydi.

Umuman, «Oq kema» qissasida Chingiz Aytmatov xalqning go'zallik haqidagi orzularini umiminsoniylik masalalari bilan bog'liq holda tasvirlaydi. Shuning uchun ham bu asar hayot va nafosat ramzi bo'lib qoldi.

Muammoli tahlil - asarni o'rganish usullaridan biri

Muammoli o'qitish ta'limni ilmiy asosda tashkil etishdir. Sinfda yuzaga keltiriladigan muammoli vaziyat vaqtida voqea–hodisalarning o'zaro bog'lanishi, ularning sodir bo'lish sabablari aniqlanadi. Shu jihatdan muammoli ta'lim uzluksiz o'rganish, izlanish xususiyatiga egadir.

Har bir darsda paydo bo'lgan muammoli vaziyat o'quvchilarda asarni bir butun tahlil qilishga istak qo'zg'atadi, tahlil qilishda fikrni faollashtiradi, uzluksiz tahlilni yuzaga keltiradi. Muammoli tahlilda o'qituvchining o'rta qo'yadigan savolidan tashqari, asar yuzasidan o'quvchilar ham savollar beradilar. Savollar asosida qilinadigan tahlilning afzalligi shundaki, birinchidan, o'quvchilar tahlilda qiyinchilikni his etadilar va uni yengishga intiladilar, ikkinchidan, tahlil bir maqsad tomon yo'naltirilib, o'quvchilar umuman masalani hal qilishga imkoniyat beradigan yo'lni topishga harakat qiladilar. Shu zaylda tahlilda bir butunlik ham yuzaga keladi. Masalan, M. Shayxzodaning «Mirzo Ulug'bek» fojiasini o'rganishda o'qituvchi o'quvchilarning fojiani o'qib, undan olgan taassurotlarini aniqlagach, taxminan quyidagi savollarni o'rta qo'yadi: «Olim Ulug'bek bilan shoh Ulug'bek o'rtasida qanday tafovutlar bor?». «Mirzo Ulug'bek» asarining hozirgi davr uchun g'oyaviy – estetik ahamiyati nimada?», «Nima uchun Abdulatif o'z otasi Ulug'bekni qatl etadi?» va boshqalar.

Muammoli tahlil asarni o'rganishga bag'ishlangan darslarning eng yuqori bosqichi hisoblanadi. Bu bosqich asarning asosiy xususiyatini, unda

ifodalangan asosiy fikrni o'rganish, aniqlash mashg'ulotidir. Masalan, Anvar va Abdurahmon domla, Yo'lchi va Mirzakarimboy obrazlarini o'rganishga bag'ishlangan darslarni «Mehrobdan chayon», «Qutlug' qon» romanlari, Farhod va Xisrav obrazlari, ular o'rtasidagi dialog yoritilgan darslarni «Farhod va Shirin» dostoni bo'yicha o'tkazilgan mashg'ulotlarning yuqori bosqichi deyish mumkin.

Muammoli tahlilda qo'llaniladigan usullarning uzviy birligi, muntazamligi asar xususiyatiga, sinf sharoitiga, o'quvchilarning tayyorgarligiga, o'qituvchining ijodiy ish uslubiga, mahoratiga bog'liqdir. Adabiyot o'qitishda ana shu masalalar hisobga olingan holda o'quvchilarni izlanishga, fikrlashga majbur etadigan, ularni faollashtiradigan muammoli savollar tuziladi va o'rta qo'yiladi. Shu yo'l bilan sinfda faol vaziyat yuzaga keltiriladi. Biroq muammoli savollarni tuzish bilan muammoli o'qitish hal qilindi, deb bo'lmaydi. Sinf o'quvchilari oldiga qo'yiladigan muammoli savollar adabiyotshunoslik xarakterida bo'lib, asarni bir butun anglash, uning butun murakkab tomonlari va mohiyatini bilib olishni ta'minlashni nazarda tutmog'i lozim. Adabiyotshunoslikka moyil savollar esa, axloqiy va falsafiy, siyosiy va estetik xususiyatga ega bo'lgan savollardan, masalan, «O'tkan kunlar» romanida o'zbek milliy urf – odatlari qanday aks ettirilgan?», «Qutlug' qon» romanida o'zbek xalqining XX asr boshlari hayotining qaysi tomonlari aks ettirilgan?, «Qutlug' qon» romanidagi asosiy muammo nimadan iborat?» kabi savollardan tashkil topadi.

Muammoli ta'lim o'quvchilarni voqealarni o'zaro aloqada, rivojlanishda anglashga o'rgatadi, ularda tashqi dunyoni anglash, voqealar haqida mustaqil fikr yuritish qobiliyatini o'stiradi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Maktabda badiiy asarni tahlil qilishning qanday maqsad va asoslari bor?
2. Maktab adabiy ta'limida badiiy asarlar qanday yo'llar orqali tahlil qilinadi?
3. Muammoli tahlil nima?
4. Obrazlar bo'yicha tahlil-chi?

TAYANCH TUSHUNCHALAR:

Badiiy tahlilning : a) ilmiy – filologik; b) o'quv-didaktik singari ikki katta turga bo'linishi. Shuningdek, o'quvchilar va o'qituvchi hamkorligida amalga oshiriladigan didaktik- o'quv tahlilining o'zi tahlilchilar ishtirokiga ko'ra: a) individual-yolg'iz; b) guruhiy; v) ommaviy singari uchta turga bo'linishi. Maktab adabiy ta'limida badiiy asarlar : 1) muallifga ergashib yoki yaxlit; 2) Obrazlar bo'yicha ; 3) Muammoli singari yo'lda tahlil qilinishi.

8.- mavzu: *EPIK ASARLARNI O'RGATISH*

REJA

- 1.Asar syujetini tahlil qilish.
- 2.Nasriy asarda qahramonlar obrazini o'rganish.
- 3.Yozuvchining nasriy asarda tutgan mavqeini o'rganish.

Nasriy asarlar o'rta maktab dasturida salmoqli o'rinni egallaydi va maktabda bu turga mansub bo'lgan masal, hikoya, qissa, roman janridagi asarlar o'qib o'rganiladi.

Nasriy asarlarda hayotiy voqea va odamlarning hatti-harakati, o'zaro munosabatlari aks ettiriladi. Shu sababli, maktabda ular bir butunlikda o'rganiladi, asar mavzui, unda ko'tarilgan asosiy masala yoritiladi. Shu yo'l bilan o'quvchilarda nafosat tuyg'usi shakllantiriladi, ular qahramonlar obrazining xulq-atvori bilan tanishtiriladi, ularga yozuvchining so'z san'atkori ekanligi tushuntiriladi.

Tabiiyki, maktab ta'limida yirik nasriy asarlarni to'liq tahlil qilish imkoniyati yo'q. Shu tufayli, ulardagi asosiy g'oyaviy-badiiy mazmunni anglab olishga yordam beradigan qismlar (boblar) ustida ish olib boriladi. Asar mazmunini anglab olishlari uchun esa, o'quvchilar uni sinfda va uyda o'qib chiqishlari kerak. O'qituvchining bu o'rindagi vazifasi o'quvchilarda badiiy didni o'stirish, ularning yozuvchi fikr-o'ylarini yordam berishdir. Bu vazifa, ayniqsa, hajmi kichik, obrazli xarakteri bir hodisa va to'qnashuvda ochilgan masal, hikoyalarni o'rganishda osonlik bilan hal qilinadi. Qissa va romonlarni o'rganishda esa, oldin yozuvchining ideali ifodalangan asosiy qismlar, ularni o'rganishga mo'ljallangan-mashg'ulot-darslar tartibi aniqlab olinadi. Qissa va romonlarni tarixiy yo'nalishda o'rganiladi. Shu yo'l bilan ularning yaratilish tarixi hozirgi kun uchun ahamiyati yoritiladi.

Maktabda asarlarni o'rganish yo'llarini belgilashda, bolalar psixologiyasiga suyangen holda, o'quvchilarda adabiyotga qiziqish u'ygotish, asar ustida ishlashga faol ishtirok etish ishtiyoqini qozg'atish g'oyat muhimdir. Buning uchun o'quvchilarning asar haqidagi fikrini, asarni tushunish qobiliyatini bilish kerak.

Shundagina o'qituvchi o'quvchilarda asarni o'rganishga, o'qishga mazmunini bilishga qiziqish hosil qiladi.

Ma'lumki, badiiy asar mazmuni bilan shakl birliigi, bir butun holda o'rganilishi kerak. Nasriy asar tahlilida ham bu masalaga e'tibor beriladi.

V-VII sinflarda, asosan, asar mazmuni, qahramonlarning hatti-harakati va ichki kechinmalari o'zlashtiriladi, asar kompozitsiyasi, janr xususiyati, yozuvchining voqea va obrazlarga munosabati haqida daslabki tushuncha beriladi. VIII-IX sinflarda asar V-VII sinflardagiga nisbatan chuqur tahlil qilinadi. X- XI sinflarda ta'hlil naza'riy-adabiy asosda uyushtiriladi.

Asar syujetini tahlil qilish

Kitobxon, u kim bo'lishdan qat'iy nazar, avvalo, asar mazmunini bilib oladi.

Syujet, bu–badiiy asar mazmunini tashkil etgan, o'zaro bog'langan va rivojlanib boruvchi hamda qahramonlar xulq-atvori, hatti-harakatini ochishga xizmat qiluvchi hayotiy voqealar tartibi, birligidir. M.Gorkiyning ta'kidlashicha, asar mazmuni odamlarning o'zaro aloqalari, ular o'rtasidagi qarama-qarshiliklar, simpariya va antipatiyalar, umuman, kishilar o'rtasidagi munosabatlar-u yoki bu obrazning tarixiy rivojlanishi, tashkil topib borishdir.

Har bir yozuvchi asarni turlicha ko'rinishda yaratadi, voqealarni turli tartibda bayon etadi, syujetni turli shaklda ifodalaydi. Shu sababli, har bir asar takrorlanmas badiiy xususiyatga ega bo'lib, unda yozuvchi va qahramonning o'zaro munosabati o'ziga xos tarzda ifodalanadi.

Kitobxon asar mazmunini, ifodali va badiiyligini birinchi bobni o'qish bilanoq his etadi. Masalan, Abdulla Qodiriyning «Mehrobdan chayon» romanining mazmuni birinchi qismda «Ra'noning egasi» Anvar ekanligi bayoni bilan boshlanadi. Uni o'qigan kitobxon roman mazmunini to'liq bilib olishga oshiqadi. Shunga ko'ra, o'qituvchiga nasriy asarni o'rganish (yoki suhbat) bilan boshlash tavsiya etiladi. O'qituvchi asarni o'rganishni shu tartibda boshlash bilan o'quvchilarda navbatdagi tahlilga ishtiyoq, intilish hissini uyg'otadi.

Maktabda asarning mazmunini o'zlashtirish butun boblari yoki bir qismi bo'yicha reja tuzishga, hikoyalashga yordam beradi. Reja o'qituvchi yordamida tuziladi.

Nasriy asarda qahramonlar obrazini o'rganish

Kitobxon asarda hikoya qilingan voqea bilan birga obrazlar xarakterini, taqdirini bilishga ham qiziqadi. Adabiy qahramon badiiy haqiqat bo'lib, usiz asarni ham, yozuvchining mavqeini ham bilib bo'lmaydi. Yozuvchi inson obrazini yaratish bilan uni aniq bir shaxs sifatida tadqiq etadi, badiiy aks ettiradi. Maktabda qahramon obrazini o'rnatishdagi muhim masala obrazda yozuvchining o'z ahloqiy-estetik qarashlarini ham ifodalashi va shu orqali kitobxonga ta'sir ko'rsatishini o'quvchilar ongiga singdirishdan iboratdir.

Darsda qahramon obrazini tahlil qilishda unga xos xislat-fazilatlar ochilgan taqdirdagina o'quvchilar o'z-o'zini va atrofidagi odamlarni tushunadilar, anglaydilar, inson shaxsining kamol topishi, rivojlanishi uchun nimalar qilish, qanday xislatlarni egallash kerakligini bilib oladilar. Ularning

bunday tushunchaga ega bo'lishlari uchun darsda qahramon obrazi tahlil qilinayotganda quyidagilarga e'tibor beriladi:

- obrazning hayotga va hayotda yuz bergan voqea-hodisalarga bo'lgan munosabatiga;
- o'z maqsadini amalga oshirish yo'lida olib borgan urashiga;

- xulq-atvori va qobiliyatiga;

- kitobxonga ko'rsatgan ta'siriga, o'z davri uchun qanchalik tipikligiga.

Darsda bu masalalarga ahamiyat berish va ular haqida aniq misollar bilan so'zlab berishni talab etish obraz tahlilining mazmunli, muvaffaqiyatli o'tishini ta'minlaydi.

Qahramon obrazini tahlil qilishda qiyosiy tavsif usulidan ham foydalaniladi. Bu usul o'quvchilarining obraz haqida to'liq tasavvurga ega bo'lishlariga yordam beradi.

Qahramon obrazini o'rganishda uning tashqi ko'rinishi, xarakterini yoritish ham muhim ahamiyatga ega. Chunki yozuvchi qahramonning tashqi ko'rinishi, harakati orqali uning jismoniy sifatlarini, harakatlaridagi xarakterli belgilarni ko'rsatadi.

Yozuvchining nasriy asarda tutgan mavqeini o'rganish

Yozuvchining nasriy asarda tasvirlangan voqealarda tutgan mavqeini o'rganmasdan turib, u haqida tasavvurga ega bo'lish mumkin emas, uning mavqei ma'lum izchillikda o'rganila boradi.

VIII-IX sinflarda o'quvchilar asarlarda aks ettirilgan qahramon obrazlarining yozuvchi-hikoyachi sifatida namoyon bo'lishini ko'radilar. X-XI sinflarda ular asarlardagi lirik chekinishlar, badiiy tasvirlar orqali obrazlar olamiga kiradilar. Shu yo'l bilan ularda asar muallifi haqida kengroq tasavvur hosil bo'ladi, ular badiiy adabiyotga xos xususiyatlarni anglay boshlaydilar, hayot haqida o'z muloxazalarini bayon etish, asarga baho berish ko'nikmalarini egallaydilar.

Maktabda nasriy asarni o'rganishda tabiat tasviriga alohida e'tibor beriladi. O'qituvchilar asarlarni o'qib, o'rganish bilan tabiat tasviri qahramon xarakterini, kechinmalarini, ruhiyatini adibning g'oyaviy niyatini anglashga, bilishga yordam berishini payqaydilar.

Masalan, XI sinfda o'rganiladigan «Mehrobdan chayon» romanida Anvarning to'y kunini kelishib olish niyatida Ra'no bilan uchrashgan quvonchli damlarida tabiatda yuz bera boshlagan hodisani Abdulla Qodiriy shunday ifodalaydi: «Kuchli shamol qo'zg'algan edi. Shamol go'yo ko'maklashgan kabi orqadan esib Ra'noni Anvar tomonga moyil etdilar. Terak orqasida qoladigan oy ham kuchlik elning ko'magida terak boshidan bularga mo'ralab oldi. Ikki yoshning hozirgi holini ko'k sahnaning erga yaqinroq qismiga uchibdi».

Bu tasvir Anvar bilan Ra'no o'rtasidagi samimiy sevgiga uyg'undir. Shuningdek, ushbu tasvirda yozuvchining ikki yoshga munosabati, ularning birgalikda baxtiyor hayot kechirishlari haqidagi orzusi ham ifodalangan.

Maktabda tabiat mohiyatini ochish va uni o'rganishda tabiat tasvirining asar mazmuni bilan uyg'unlashib ketishi masalasi va uning kitobxonga ta'sirni o'quvchilarga uqtirish juda muhim. Zero, tabiat tasviri o'quvchining hayotda munosabatini, ijtimoiy hayotda tutgan mavqeini anglab olishda muhim vositadir. Yozuvchi tabiat manzarasini, unda yuz bergan hodisalarni, orzu-istaklarini bayon etadi.

Yozuvchi tabiatni o'z ijodiy uslubiga xos tarzda turlicha tasvirlaydi. Masalan, Oybek «Qutlug' qon» romanida tabiatni asosiy qahramonlarning hayoti, ruhiy kechinmalariga bog'liq holda tasvirlash bilan birga ularning kayfiyatlari, kechinma va his-tuyg'ulariga, ahvoliga qarshi tarzda ham tasvirlagan: «Zangori bir nur bilan porlagan tiniq samoda balandlanib, mag'rur turnalar allaqachonlar uchib o'tdi. Yana bahor. Quyosh kundan-kun kuchliroq qizdiradi. Churuk bug'otlari osilgan, qish bo'yi shiplardan suv siljib tomchilab, burchak-burchakka qisilishga majbur etgan eski uylarning tomlari chetida maysalar ko'karadi. Keyinroq bu maysalar, ko'katlar orasida lolaqizgaldoqlar qon-olov rang bilan yona boshladi. Yarmidan ortig'i sotilgani uchun, Shokir otaning tumorcha shaklli kichkina hovlisidagi nokning yo'g'on, egri, churuk tanasida kekkeygan ikki katta butoq ham oppoq gul bilan qoplangan».

Oybek bu parchada tabiatning erta bahor go'zalligini tasvirlash bilan hayoti og'ir, g'amli bo'lgan Shokir ota ana shu go'zallikdan bahra ololmasligini ko'rsatgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Nima uchun o'quvchilarga epik asar syujet chizig'idagi barcha nuqtalarni aytib berish mumkin emas?
2. Yozuvchining nasriy asarda tutgan mavqeini o'rganish qanday ahamiyatga ega?
3. Nasriy asarda qahramonlar obrazini qanday yo'llar orqali o'rgatish maqsadga muvofiq.

Darsning tayanch tushunchalari

O'quvchilarning o'zlashtirmay qolishlaridan qo'rqib epik asar syujet chizig'idagi barcha nuqtalarni aytib berish mumkin emasligi. O'quvchilarni asardagi voqealar rivojini personajlar xarakterini asoslashga yo'naltirib, mustaqil

fikrlashga odatlantirish maqsadga muvofiq ekanligi. Badiiy asar har bir bola tomonidan o'ziga xos idrok etilgandagina, ular ma'naviyatini shakllantirishga ta'sir ko'rsatishi mumkinligi.

9. MAVZU: LIRIK ASARLARNI O'RGATISH

REJA:

- 1.Lirik asarni ifodali o'qish-shoir nazarida tutgan ta'sirini o'quvchiga o'tkazish yo'li.
- 2.Lirik asarlarni tahlil qilishning maqsad va asoslari.
- 3.V-XI sinflarda lirik asarlarni o'rganish.
- 4.O'qitishning zamonaviy metodlarini lirik asarlarni o'rgatishda qo'llash.
- 5.O'qitishning zamonaviy metodlari va aqliy hujum

Adabiyotlar:

- 1.Adabiyot nazariyasi II tomlik I,II tom Toshkent «Fan», 1978.
- 2.To'xta Boboev Adabiyotshunoslikka kirish bo'yicha o'quv-metodik qo'llanma. Toshkent «O'qituvchi»,1979.
- 3.A.Zununov, N.Hotamov Adabiyot nazariyasi. Toshkent: «O'qituvchi», 1982.
- 4.To'xta Boboev Adabiyotshunoslik asoslari. Toshkent: «O'zbekiston», 2002.

Ma'lumki, lirikada nasriy va dramatik turlardan farqli o'laroq, voqelik shaxsning his-tuyg'ulari, kechinmalari, idroki orqali aks etadi. She'riy shakl lirikaning xarakterli xususiyati bo'lib, shoir his-tuyg'usiga to'la beriladi. She'riy shakl lirikada ohangdorlik va musiqiylikni vujudga keltiradi.

Voqelikning muayyan shaxs (subyekt) orqali aks etishi lirika xarakterini belgilovchi muhim xususiyatdir. Ana shu xususiyat lirikada juda ko'p masalalarni o'ziga xos shaklda hal etishni taqozo qiladi. Lirik asar, odatda, kichik hajmli bo'lishiga qaramay, turmushni badiiy, obrazli aks ettirishning barcha xususiyat va belgilariga ega bo'ladi. Lirikada ham voqelik qarama-qarshilik nasriy asar, dostonlardagi kabi voqea-hodisalar orqali emas, balki tuyg'ular ziddiyatli, kurashi orqali aks etadi. Demak, nasriy asarda voqealar rivoji, lirikada esa kechinmalar rivoji yetakchilik qiladi. Mana shu kechinmalar rivoji lirik qarama-qarshilikdan iborat bo'lib, u hamma vaqt chegaralangandir. Bu qarama-qarshiliklar asosni eskilik bilan yangilik, yaxshilik bilan yomonlik, go'zallik bilan xunuklik, olijanoblik bilan pastkashlik o'rtasidagi kurash tashkil etadi. Shu tarzda lirik asarda ham aniq shaxsiy kechirmalar ifodalanadi, shu jihatlari bilan shaxsiy kechinmalari orqali hayotning go'zal va xunuk tomonlari aks ettiriladi. «Kechinma» so'zi keng ma'noga ega bo'lib, u turli sharoitda yuzaga kelgan turli emotsiyalarni o'z ichiga oladi. Falsafiy va siyosiy fikrlar ham, sevgi haqidagi o'ylar ham, garchi o'z mazmuniga ko'ra turlicha bo'lsada,

aniq insoniy his va sub`ektiv emotsional xususiyatga ega bo'lgan fikr sifatida kechinmalar tarkibiga kiradi. Shu boisdan lirik she'rlar hajm jihatidan kichik bo'lsa ham, chuqur mazmunli bo'ladi. Doston, masal, hikoya, qissa va romanlarda yozuvchi boshqa odamlar haqida, lirik she'rlarda esa yozuvchi o'zi to'g'risida, o'zining xayol va o'ylari, orzu-istaklari, hissiyotlari va boshqa odamlarga, tabiatga bo'lgan munosabatlari haqida gapiradi. Hikoya, qissa, roman va masallarda yozuvchi tasvirlanayotgan voqeaga xolis munosabatda bo'lib, unga o'z bahosini beradi. Lirik asarlarda esa bu munosabat shoirning kechinmalari va his-tuyg'ulari orqali ifoda etiladi. Lekin hayotga bo'lgan munosabatini hamisha o'zi-birinchi shaxs nomidan emas, balki ayrim hollarda ikkinchi va hatto, uchinchi shaxs nomidan ham ifodalashi mumkin.

Lirik tur janrlarning asosida ham inson hayoti, muhabbati va nafrati, sevinchi va iztirobi o'zining badiiy ifodasini topadi. Insonning hayot hodisalari va tabiatga munosabatidan turli-tuman lirik lavhalar, lirik janrning xilma-xil turlari yuzaga keladi. Shu sababli boshqa adabiy turlarga mansub bo'lgan qarama-qarshilik, xarakter, syujet, kompozitsiya, tipiklashtirish va individuallashtirish kabi adabiy tushunchalar lirikaga ham xos bo'lib, ular lirikaning o'ziga xos tabiati bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Maktabda lirikani o'rganishda uning ana shu xususiyatlarini ochishga e'tibor beriladi.

V-XI sinflarda lirik asarlarni o'rganish.

V-XI sinflarda o'quvchilar maktab o'quv dasturidan o'rin olgan she'riy asarlarni o'qib o'rganadilar. Ularni o'rganishda har bir she'rning shoir ijodida tutgan o'rni, she'rda shoir shaxsiyati, obrazining ifodalanishi o'quvchilarning yoshi va bilimi darajasiga mos ravishda tahlil qilinadi, she'rning mazmuni beriladi.

Bu sinflarda lirik asarni o'rganishning asosiy usuli o'qituvchi va o'quvchining ifodali o'qishidir. Bu ishda o'qituvchining o'zi she'rni ifodali o'qiydi, so'ngra ifodali o'qish qoidalariga rioya qilgan holda o'qishni o'quvchilardan talab etadi.

Ifodali o'qish bilan o'quvchi she'rda shoir tasvirlagan voqea, manzara, obraz haqida tasavvurga ega bo'ladi. Bunga u, har bir so'z, misra mazmunini chuqur o'zlashtirish orqali erishadi.

Maktabda she'riy asarlar turli shaklda tahlil qilaniladi: aniq reja asosida ifodali o'qiladi, ayrim so'z, misralarga izoh beriladi, obrazlar taqqoslanadi, suhbat tashkil qilinadi, tabiatga sayohat (bu sirtdan bo'lishi ham mumkin) uyushtiriladi, rasmlar namoyish etiladi, texnika vositalaridan foydalaniladi. Bu usullar ko'zlangan maqsad va vazifadan kelib chiqqan, xususiyati, o'quvchilar tayyorgarligi, qiziqishini hisobga olgan holda qo'llaniladi.

Lirik asar tahlili kirish va yakunlovchi mashg'ulotlarni o'z ichiga olgan suhbat yo'li bilan o'tkazilganda o'quvchilar o'qituvchining asar va uning

muallifi haqida qilgan qiziqarli kirish so'zini qiziqish bilan tinglaydilar va suhbatda faol ishtirok etadilar.

Ma'lumki, V sinfdan Mirtemirning «Baliq ovi» she'ri tahlili ifodali o'qish bilan boshlanadi. Keyin suhbat asosida unda ifodalangan asosiy fikr-g'oya aniqlandi. Suhbatda o'quvchilar baliq ovi jarayoni shoirning ichki kechinmalari, quvonch va hayajoni bilan birgalikda tasvirlanganini, shoir quvonchlarida Vatan tabiati go'zalligiga maftunligi ham o'z ifodasini topganligini bilib oladilar. Bunga erishish uchun o'qituvchi o'quvchilardan she'rdan quyidagi satrlarni o'qishni talab qiladi yoki o'zi o'qiydi.

Tashlay qolsam non ushog'in,
Ulgurishib kelar talay
Ilinsaydi ulkanrog'i.
Eltar edim jon buvimga.
-Hay, rostanmi, hay baliqchi
tangelikmi, changalikmi?
Balli, deydi uquvimga...
Ilinmaydi, lekin hozir.
Bundan keyin to'r tashlayman,
Tashlasam ham zo'r tashlayman,
Qo'lga tushar bari oxir.

O'qituvchi suhbatni davom ettiradi va o'quvchilar e'tiborini tog' bag'rida joylashgan qishloq bolalari hayoti tasviriga tortadi, shuningdek, matndan mehr ulug'langan misralarni o'qitish orqali o'quvchilarni mehrli bo'lishga undaydi. Suhbat so'ngida o'qituvchi o'quvchilarga «she'r sizlarda qanday taassurot qoldirdi?», «Nima uchun shoir mehrni ulug'laydi?» kabi savollar beradi, javoblarini to'ldiradi va yakunlaydi.

O'qituvchi uyushtirgan ushbu suhbatda o'quvchilar «Baliq ovi» she'rining lirik qahramoni-shoirga mehr, inson muhabbati, zavq, shodlik baxsh etganini bilib oladilar.

Umuman V-IX sinflarda lirik asarlarni o'rganish tahlil, qilishdagi asosiy vazifa shoirning ularda ifodalangan voqeaning guvohi bo'lishini, ichki kechinmalari tasvirlanishni anglab olishlariga erishishdan iboratdir.

O'qitishning zamonaviy metodlari va aqliy hujum

Ta'lim-tarbiya jarayoniga «interfaol metodlar» nomi bilan kirib kelayotgan metodlardan biri **aqliy hujumning** maqsadi o'quvchilarning faolligini oshirish, ularni erkin, mustaqil mulohaza yuritishga undash, hammani bir xil qolipda fikrlashdan ozod qilish, ma'lum mavzu yuzasidan har xil fikrlarni to'plash va masalaga ijodiy yondashuvni ta'minlashdan iborat. Amerikalik mutaxassis A.G.Osborn tomonidan tavsiya etilgan bu metodda o'quvchilar oldiga ulardan aqliy zo'riq'ishni talab qiladigan muayyan bir masala qo'yiladi. Shu masala bo'yicha ishlayotgan har bir o'quvchi tomonidan

aytilgan fikrni rag'batlantirish va qayd etib borish, ishtirokchilarning erkinligini ta'minlash, bildirilgan fikrlar asoslanishini talab etish, bahs davomida birorta fikrni e'tirozsiz qoldirmaslik talab qilinadi. O'quvchilar tomonidan aytilayotgan fikrlarga e'tiborsizlik bilan qarash, ularni tanqid qilish yoki fikrlaridan kulish taqiqlanadi.

Aqliy hujum-o'quv muammolarini hal qilishda keng qo'llaniladigan metod. U qatnashchilarning tasavvurlari, bor bilimi va imkoniyatlaridan unumli foydalanishga yo'naltirilgan. Mazkur metod o'quvchi oldiga qo'yilgan qar qanday muammoli masalaga ko'p sonli yechimlar topishga imkon yaratadi.

Aqliy hujumdan foydalanilganda quyidagi qoidalarga amal qilinadi:

1. O'ylash jarayonida hech qanday baholashlarga yo'l qo'yilmaydi. Agar bu jarayondagi g'oyalar baholanadigan bo'lsa, qatnashchilar moddiy manfaatdorlik yo'lga tushadilar va o'z fikr-g'oyalarini himoya qilishga urg'u beradilar. Yangi fikrlar, yangicha kashfiyotlar xususida o'ylamay qo'yadilar.
2. Har bir o'quvchi bitta masala yuzasidan xilma-xil mulohazalar yuritishga yo'naltiriladi. O'quvchilarda kutilmagan fikr, favqulodda g'oyalar tug'ilmasa, qatnashchilar o'z fikrlarini qayta qo'llashga bir – birlarini takrorlashga majbur bo'ladilar.
3. G'oya va fikrlarning miqdori rag'batlantiriladi. Ma'lumki, miqdor odatda o'sib sifatga aylanadi. Tezkor izchillikda katta miqdordagi g'oyalar paydo bo'lganda ularni baholash mumkin. Qatnashchilarning o'z tasavvurlariga erk berishiga imkoniyat yaratilishi kerak. Bu erkinlik natijasida yaxshi, betakror va kuchli g'oyalar tug'iladi.
4. Har bir o'quvchi o'zgalar g'oyasiga asoslanishi va ularni o'zgartirishi mumkin. Chunki, fikrdan fikr tug'iladi. Avval taklif etilgan g'oyalarni biriktirish yoki o'zgartirish ko'pincha asos bo'lgan fikrdan kuchliroq, yaxshiroq g'oyalarni keltirib chiqaradi.

Aqliy hujumdan foydalanish shartlari quyidagilardan iborat:

1. O'quvchilar erkin o'tiradigan qilib joylashtiriladi.
2. O'quvchilarning g'oya va fikrlarini yozish uchun varaqlar tayyorlab qo'yiladi.
3. Hal etilishi lozim bo'lgan muammo aniqlanadi.
4. Ish jarayoni belgilab olinib, o'qituvchi «Ilg'ab oling, g'oyalarga asoslaning, q'o'shing, kengaytiring, o'zgartiring» kabi luq'malar orqali bahs – munozarani boshqarib turadi.
5. Qo'yilgan muammo yuzasidan barcha fikrlar tinglanadi va yozib boriladi.
6. O'zgalarning fikrlaridan kulish, kinoyali sharhlarga aslo yo'l qo'yilmaydi.
7. Varaqlar g'oya va fikrlar bilan to'lganda ular ko'rinarli yerga osib qo'yiladi.
8. G'oyalar tugamaguncha ish davom ettirilaveriladi.

9. Barcha fikr va g'oyalar tinglangach, yangi , kuchli, asosli va original g'oyalar o'quvchi tomonidan rag'batlantiriladi, baholanadi.

Ushbu qoida va shartlarning amaliyotda bajarilishini 5 – sinfda o'tkazilgan bir dars misolida ko'rsatganmiz (2-ilova).

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Lirik turning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Lirik asardan ta'sirlanish inson kamolotida qanday o'ringa ega?
3. Lirik asarlarni o'rgatishda o'qitishning qanday zamonaviy metodlarini qo'llash mumkin?

Darsning tayanch tushunchalari:

Lirik asarda ifodalangan tuyg'uni his etmoq, undan ta'sirlanmoq uchun odam shunday tuyg'uni kechirgan bo'lishi kerakligi, inson kamolotida lirik asardan ta'sirlanmaslik qusuri o'rnini to'ldirishning qiyinligi. Lirikani his qilish adabiyot darslarini o'zlashtirish uchun emas, balki kishini hissiy «ochlik»dan qutultirish, unda zarurligi.

10 – mavzu: Dramatik asarlarni o'rgatish

Reja:

1. Dramaning adabiy tur sifatida o'ziga xos xususiyatlari
2. Dramatik asarni o'rganish usullari
3. Dramatik asarni o'rgatishda o'qituvchi kirish so'zining ahamiyati

Adabiyotlar:

1. Adabiyot nazariyasi. Ikki tomlik. I, II tom. Toshkent: «Fan», 1978.
2. Akbar Aliev. Maktabda yozuvchi uslubini o'rganish. Toshkent: «O'qituvchi», 1977.
3. A. Zunnunov, N. Hotamov. Adabiyot nazariyasi. Toshkent: «O'qituvchi», 1982.
4. B. Imomov. Tragediya va harakter. Toshkent, 1977.
5. Sh. Orifiy. Maktabda Liro – epik asarlarni o'rganish. Toshkent: «O'qituvchi», 1981.
6. J. Esonov. Maktabda badiiy asar tilini o'rganish. Toshkent: «O'qituvchi», 1973.
7. T. Boboev. Adabiyotshunoslik asoslari. Toshkent: «O'zbekiston», 2002.

Dramaning adabiy tur sifatida o'ziga xos xususiyatlaridan biri , uning sahnada ijro etilishi hisoblanadi. Shu sababdan dramatik asarlarda kishilar

obrazi faqat harakatda ifodalanadi, o'zaro so'zlashuvlarida, bu holat qahramonlarning bahs va munozaralarida namoyon bo'ladi. Shuning uchun drama janri so'z san'atiga mansub bo'lsa ham, sahnada ijro etilishi bilan roman va qissa janridan farq qiladi. Dramada har bir obraz o'z xarakteriga xos xislatlarni jonli tili, hatti-harakati orqali namoyish qiladi. Shunga ko'ra, dramada muallif nutqi bo'lmaydi, balki uning nutqi qavs ichida izohlanadi. Kitobxon yoki tomoshabin dramada sodir bo'layotgan qahramonlarning o'zida payqab oladi. Binobarin dramaturg o'z qahramonlarining hayoti haqida hikoya qilmaydi, balki ularni harakatda ko'rsatadi. Dramatik janr asarlari adabiyotning eng murakkab shakli bo'lib, unda har bir shaxs muallifning izohisiz, o'z so'zi va ismi bilan harakat qiladi, harakat, qarama-qarshilik va dialoglar qahramonlarning xarakterini ochishda asosiy vosita sanaladi.

Dramatik asar qahramonlari o'zlarini faqat harakatda namoyish qiladilar, ularning nutqi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, hatti-harakati bilan bevosita bog'lanadi. Dramatik asarlarda ohang, pauza va ovozning baland – pastligi katta ahamiyatga ega bo'lib, nutqning o'ziga xos bu xususiyati sahnada yanada aniqroq ko'rinadi.

Dramaturg qahramonlarning harakatini ochib berish uchun zarur bo'lgan voqea–hodisalarnigina ifodalaydi. Boshqacha qilib aytganda, tanlab olingan voqea–hodisalar dramada ishtirok etuvchi shaxslar o'rtasidagi qarama-qarshilikni asoslash uchun xizmat etadi. Tasvirlangan masalaga bevosita aloqasi bo'lmagan yoki harakat rivojini susaytiruvchi hayotiy dalillar olinmaydi. Shuning uchun ham dramada biror hayotiy voqea boshdan – oyoq batafsil tasvirlanmaydi, unda inson hayotining eng muhim nuq'talari aks ettiriladi, ya'ni dramaturg o'z g'oyaviy niyatlariga qarab butun voqealarni shunday markazlashtiradiki, tomoshabin katta-katta voqealar mohiyatini kichkina shtrixlardan ham anglab oladi.

Drama syujeti o'zining rivojlanish tezligi va g'oyat siqirligi bilan xarakterlidir. Dramatik asar syujeti o'ziga xos bu xususiyati bilan nasriy asar syujetidan farq qiladi.

Shuningdek, dramatik asar nasriy va lirik asardan teatr uchun yoziladiganligi va sahnada ijro etilishi bilan farq qiladi.

Dramatik asar syujeti hayotiy qarama-qarshiliklar asosida q'uriladi, hayotiy kurashlarni aks ettirish o'ringa qo'yiladi.

Yuqorida qayd qilingan xususiyatlariga qarab maktabda dramatik asarni o'rganish usullari belgilanadi.

Dramatik asarni o'rganishda o'quvchining kirish so'zidan keyin, nasriy asarlarni o'rganishda bo'lgani kabi, u sinfda va uyda o'qiladi, so'ngra matn ustida ish olib boriladi. O'zbek adabiyotining atoqli vakili Maqsud Shayxzodaning «Mirzo Ulug'bek» fojiaviy asari endilikda o'rta maktab adabiyot dasturidan mustahkam o'rin olgan asarlardan biri bo'lib qoldi.

Tragediya qahramonlarining ilojisiz vaziyatdagi og'ir kolliziyalari (qarama-qarshi kuchlarning murosasiz kurashlari) asosida oqibati fojia bilan tugaydigan dramatik janr hisoblanadi. Demak, fojiaviy asar ayovsiz kurash,

o'tkir ziddiyat, favqulodda keskin qarama-qarshilik zamini bo'lgan asardir. Unda xarakter va ehtirolarning kurashi aks etadi, yirik tarixiy fojialar, davrlarning almashinuvi kabi ulkan hodisalar tasvirlanadi.

«Tragediya, - deydi V.G.Belinskiy, - dramatik poeziyaning oliy bosqichi va gultojidir. Shuning uchun ham tragediya dramatik poeziyaning butun mohiyatini o'z ichiga oladi, uning hamma elementlarini qamraydi. Tragediyaning mohiyati kolliziya, ya'ni qalbning tabiiy, jarayoni, maylning axloqiy burch yoki daf qilinmas bir to'siqlik bilan to'q nashuvidir.»

Yuqorida ta'kidlanganidek, fojia ana shu xususiyatlari bilan drama va komediya dan farq qiladi. O'zbek adabiyotida fojia ning yorqin namunasi Maqsud Shayxzoda ning «Mirzo Ulug'bek» asaridir.

Shaxzoda ushbu asarda bosh qahramon – Ulug'bek bilan «daf qilinmas» qora kuchlar o'rtasidagi murosasiz kurash, ziddiyat va bu tengsiz kurashda Ulug'bekning fojiali qurbon bo'lishini aks ettirdi.

Tabiiyki, asarda tasvirlangan murakkab voqealarni o'rganish maxsus tayyorgarlikni – fojia matnini jiddiy e'tibor bilan o'qib chiqishni, obrazlarni guruhlashni, tanqidiy adabiy asarlardan foydalangan holda tarixiy va to'qima obrazlarni aniqlashni, asar muallifining san'atkorlik mahoratini belgilashni talab etadi. Namuna sifatida o'qituvchi ma'ruzasi matnini keltiramiz:

Maqsud Shayxzoda fojia janridagi «Mirzo Ulug'bek» asarida Amir Temurning nabirasi, Shoxruxning o'g'li Ulug'bekning shohlik va olimlik faoliyatini, unga xos shaxsiy xislatlarni hayotiy haqiqatlar asosida, XV asr birinchi yarmidagi ijtimoiy – siyosiy hayotda davom etgan ziddiyatlarga boq'liq holda tasvirladi, Ulug'bek qurbon bo'lganini ko'rsatdi.

Asarda Ulug'bekning olimlik xislati o'z shogirdi Ali Qushchi bilan qilgan suhbatlari, oy tutilishi xususida qilgan bahslari, tabiatda yuz beradigan hodisalarning siri, ularning qonuniyatini ochish haqidagi fikr yuritishlarida ochiladi. Uning shohlik faoliyati Toshkentga hujum qilgan qipchoqlarga qarshi kurashi orqali ko'rsatiladi. Ana shu voqea ta'sirida Ulug'bekda ichki ruhiy iztirob, dard, alam kuchayadi. Buni biz Ali Qushchiga: «Oh azizim, shu serxatlar yirtqich zamon senu menga ilmu fanga fursat qayoqda?»- deb aytgan so'zlarida ko'ramiz.

Ulug'bek adolatli hukmdor sifatida ish yuritadi, mamlakatda osoyishtalik bo'lishi uchun harakat qiladi, ilm-ma'rifat rivojiga, xalqni undan bahramand qilishga e'tibor beradi. U o'z mehnatining natijasini ko'rishni orzu qiladi. Maqsud Shayxzoda Ulug'bekning bu orzu – umidlarini ichki monologi orqali ochadi:

Qirq yil bo'ldi koinotning kitobin o'qib,
Ma'rifatning dargohiga qo'ydim ixlosim.
Og'ir bo'ldi qismat menga ortgan vazifa,
Men, sultonlar o'rtasida bo'ldim donishmand.
Donishmandlar tepasida sulton sanaldim,
Ma'rifatni hukumatga qilib rahnamo,

Bu o'lkani yerida ham yulduzlar yoqdim.
Insonlarga aytib turdim: boqdin samoga,
Qancha toza va musaffo, farahbaxsh, zebo.
Ey, odamzod, ibrat olgan yulduzlardan sen
Xayrixohlik va balandlik xislatlaridan.
Shaltoqlarda ag'namagin, ko'taril, yuksal,
So'qir baxtdan ko'rar ko'zli baxtsizlik afzal.
Eh, saodatlar yaratilmas buyruqlar bilan,
Zehnlariga nur urug'in sepdim muttasil,
Katta hosil kutmoqdaman, nuroniy hosil!

Ulug'bek haqiqatgo'y, qat'iy so'zli bo'lib, inson degan nomni ulug'lagan, xotin-qizlarga hurmat ehtirom saqlagan shoh edi. Undagi bu oliy fazilatlar onasi Gavharshodbegim bilan uchrashganda namoyon bo'ladi. Onasi bilan uchrashgan payt tasvirlangan lavhada Ulug'bek o'ziga hayot baxsh etgan ulug' zot-onasidan minnatdor bo'lgan, onalik haqqini hamisha o'z gardanida his etgan yuksak qalbli inson bo'lganini ko'ramiz.

Ulug'bek Feruzani qalbdan sevadi. Uning haqida Abdulatif tarqatgan gaplarni ig'vo deb biladi. Ammo, onasi Gavharshodbegimdan ham bu xunuk xabarni eshitgach, Ulug'bekda shubha kuchayadi. Lekin, shunda ham u o'zini dadil tutishga harakat qiladi, haqiqatning tantana bo'lganini ko'ramiz. Dramaturg Shayxzoda Feruza voqeasi bilan Ulug'bekda paydo bo'lgan iztirob, ruhiy kechinmalarni shunday tasvirlaydi:

Ko'p g'alati zamonda yashar ekanman,
Qalbidagi haroratni insonga berib,
Evaziga olmoqdaman sovuq g'arazlar.
Men otamga, jannatmakon Shohruh Mirzoga
Kamarbasta o'g'il bo'ldim qirq yil muttasil.
Ammo shuni o'g'illardan ko'rmadim, hayhot!
Abdulaziz fikri zaif, jismi nogiron.
Abdulatif- jisman tetik, xulqi xatarli.
Bu-ku mayli! Onalarning ikrom- izzatin
Umr bo'yi talq'in etdim ahli vatanga.
O'z onamga ehtiromim evaziga men
Ne eshitdim! Zug'um bilan ta'na, arazlar.
Bu ham mayli! Feruzaning sha'niga g'iybat!
Yoki uning biron aybi bormikan bunda!
Yoki osmon kitobini varaqlab ochib,
Sirlarini o'rganmoqchi bo'lganim uchun
Falak mendan qasos olishga tushgan!
Yo'q, tushmagin vasvasaga, Mirzo Ulug'bek!
Shubha- boshqa, dalil- boshqa, xulosa- boshqa!
Vasvasalar shaytonga xos, umid – insonga.

Bu satrlarda Ulug'bekning faqat ruhiy iztirobi emas, balki o'zi bilan zamon o'rtasidagi ziddiyat, o'g'li Abdulatifdan noroziligi, Feruzaning pokligiga, haqiqatning g'alaba qilishga ishonchi ham o'z ifodasini topgan.

Ulug'bek kamtar, mehnat ahllariga mehribon shoh. Undagi bu fazilatlar Samarqand atrofida ov qilib qaytib kelayotganda dehqon Otamurodga bo'lgan samimiy munosabatida ko'rsatilgan. Ulug'bek dehqonga zulm qilgani uchun Abdulatifni taxt merosxo'rligidan mahrum etadi, uni Balxga hokim qilib tayinlaydi.

Ulug'bek Abdulatifning zimdan ish ko'rsatayotganini sezgach va u ko'rsatayotgan qarshilik keskin tus olayotganini ko'rgach, ruhan eziladi. Ayniqsa, Feruza haqida Abdulatif to'qigan ig'vo, tuhmat Ulug'bekning qalbiga qattiq ta'sir qiladi.

Ulug'bek bilan Abdulatif va uning atrofdagilar o'rtasidagi qarama-qarshilik, umuman u bilan zamon o'rtasidagi ziddiyat zindonda yotgan Piri Zindoniylar bilan uchrashish lavhasida ham ochiladi, shu erda u o'zini fojiaga olib kelgan ziddiyatlarning sababini anglab oladi.

Voqealar so'ngida Ulug'bek Abdulatifning munofiq, taxtparast ig'vogar bo'lib yetishganiga, uning shunday bo'lishiga saroydagi muhit sabab bo'lganiga qat'iy ishonch hosil qiladi. U dushman tomonidan shaharning qurshab olinishidan, xalqning och qolishi, noroziligining kuchayishidan dushmanning elchi yuborib taslim bo'lishini talab etishidan azob chekadi, orzu – umidlari, ezgu niyatlari amalga oshmasligini his qiladi. Shayxzoda undagi ana shu ruhiy azobni o'z do'stlariga aytgan so'zlari orqali yoritadi:

Hammangizning ra'yingizni tingladim, do'stlar,
Hammangizga astoydil arzi – tashakkur!
Bilamanki, gaplaringiz vijdon sadosi,
Do'stlik bilan sadoq'atning qayg'usi, xolos.
Yolg'iz qolib bu pandlarni tortib ko'raman
Tafakkurning g'oyat hassos tarozusida.
Endi ruxsat, hammangizga – xayrli kecha.
Men u bilan shu tundayoq, kengashmoqchiman!

Ulug'bek tunda Amir Temurning qabriga kelib, o'g'li Abdulatifning qabih ishlarini, boshiga tushayotgan kulfatlarni, podsholik va olim sifatida qilgan ishlarning oqibati fojiali bo'layotganini izhor etadi va bobosidan madad so'rab, yo'l-yo'riq ko'rsatishni iltimos qiladi:

Bu kulfatli zamonda bergin maslahat,
Tag'in lashkar, tag'in jangu, yaroq-aslaha!
Oxiratga qadar shumi sultonlar ishi?..
Turkistonda garchi menga teng keladigan
Mergan yo'g'u, ammo urush ta'bimga yoqmas.
Jang, ma'raka, odam qirish, safarda yurish..

Sening sevgan nabirangga , menga iztirob,
Bobo Temur, bu jumboqqa o'zing ber javob:
Shohlar burchi yashatmoqchimi yoki o'limmi?
Quvvat nima ? Muruvvatmi yoki zulmmi:

Shayxzoda ushbu satrlarda Ulug'bekning ma'naviyatini, tarixning sirli muammolari qarshisida lol qolgan ulug' insonning ruhiy fojiasini tasvirlagan, ulug' shoh fojiasining eng yuqori nuqtasini ana shu lavhada ifodalangan.

Ulug'bek Piri Zindoniylar timsolida xalq kurashchilarini ko'radi. U shoh sifatida umri tugaganligiga ishonch hosil qilsa-da, olim sifatida samarali mehnat qilganini his etadi, shu fazilati tufayli nomining mangu qolishiga ishonadi.

Ulug'bek bobosi Amir Temur va otasi Shohruh qabrlari yonida fojiali hayotiga shunday yakun yasaydi:

Uxlang, uxlang shum dunyoning betinch shohlari,
Siz pashshadan ham beozor yotibsiz bunda,
Faqat goho kirasizlar tushlarga tunda,
Yotasizlar yangi-yangi qo'shinlar kutib,
Shahringizga ular kelar vaqtida etib..
Shohlar umri puchligiga bu isbot tugal.
Tiriklikning ro'yxatidan, kim bilar , bu gal-
Qay birini o'chirarkan kotibi azal.
Kim biladi, balki navbat menga etgandir,
Chunki umrim ozi qolib, ko'pi ketgandir.
Yo'q, yo'q, sulton o'lsa hamki donishmand yashar,
Olimlarga mangu hayot tarixi – bashar.

Ulug'bek o'z orzulari amalga oshadigan, baxtli zamon bunyod bo'lishiga ishonadi, shu fikr- o'ylari unga taskin beradi.

O'tib ketar bu dahshatlar, bu ma'rakalar,
Urush, vabo va jaholat o'tib ketadi.
Oh, naqadar saodatli bo'lur dunyomiz,
Va naqadar aziz bo'lur erkin odamzod.
Bu jahonda birodarlar qolur-ku, oxir,
Bir so'zimiz yo izimiz. U oydin elda,
Zora meni va bizlarni eslasalar bas!
Shunday do'stlar. Ammo, hanuz sulton ekanman,
Saltanatning muhri mening qo'limda ekan,
Buyurishga hali borkan salohiyatim,
Bu mansabda qilib qo'yay so'nggi yaxshilik.

Bu monologda Ulug'bek insonparvarligi , ilg'or g'oyalarga sodiqligi ifodalangan. Ulug'bek insonlarga so'nggi marta yaxshilik qilish niyatida Piri Zindoniyni zindondan ozod qilishga farmon beradi, Feruzani o'ziga qayta nikohlab oladi.

Ulug'bek bir guruh fitnachilar tomonidan qatl etiladi. Bu shum xabarni eshitgan , umrida hech ko'z yoshi to'kmagan Piri Zindoni ham yig'lab, qattiq qayg'uradi.

Men yig'layman, yurak qoni bilan yig'layman!
Etim qolgan el dardida kuyib yig'layman!
Bosh qo'yaman tuprog'iga ulug' insonning!

Dramaturg Maqsud Shayxzoda «Mirzo Ulug'bek» asarida hayotiy fojiani tasvirladi. U bizlarda insoniyat , kelajak avlod uchun ilm-fan ravnaqi yo'lida xizmat qilgan , fazo haqidagi fanga asos solgan ulug' inson Ulug'bekka nisbatan mehr-muhabbat tuyg'usini uyg'otdi. Biz «Mirzo Ulug'bek» fojiasini o'qir ekanmiz, qalbimizda Vatanimiz, xalqimiz tarbiyalab yetishtirgan Ulug'bekdek allomalar bilan faxrlanish tuyg'usi jo'sh uradi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Dramaning adabiy tur sifatida o'ziga xos xususiyatlarini ayting?
2. Dramatik asarni o'rganishda o'qituvchining kirish nutqi qanday ahamiyatga ega?
3. Tahlil kutilganidek bo'lishi uchun o'quvchilarga drama nazariyasiga oid qaysi tushunchalar haqida biroz ma'lumot berish lozim?

Tayanch tushunchalar:

Dramatik asarni o'rganish maktab o'quv dasturida 8-sinfdan boshlanishi. Tahlil kutilganidek bo'lishi uchun o'quvchilarga drama nazariyasidan birmuncha ma'lumot berish lozim ekanligi. Chunonchi, o'quvchilari remarka, luqma, butaforiya dekoratsiya, musiqa , mizanstsena, sahna ko'rinish, parda personaj singari anglatadigan tushunchalarni bilgandagina dramatik asarni osonroq qabul etishi mumkinligi

11- mavzu: Adabiy – nazariy tushunchalarni o'rgatish.

Reja:

1. Adabiy – nazariy tushunchalar adabiyot kursining tarkibiy qismi.
2. Adabiy – nazariy tushunchalar – adabiy ta'limning ilmiy – falsafiy asosi.

- 3.O'quvchilarda adabiy – nazariy tushunchalarni shakllantirish asoslari.
- 4.Adabiy – nazariy tushunchalarni o'tishda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish.

Adabiyotlar:

- 1.Adabiyot nazariyasi. Ikki tomlik. I, II tom. Toshkent: «Fan», 1978.
- 2.Akbar Aliev. Maktabda yozuvchi uslubini o'rganish. Toshkent: «O'qituvchi», 1977.
- 3.A. Zunnunov, N. Hotamov. Adabiyot nazariyasi. Toshkent: «O'qituvchi», 1982.
- 4.B. Imomov. Tragediya va xarakter. Toshkent, 1977.
- 5.Sh. Orifiy. Maktabda Liro – epik asarlarni o'rganish. Toshkent: «O'qituvchi», 1981.
- 6.J. Esonov. Maktabda badiiy asar tilini o'rganish. Toshkent: «O'qituvchi», 1973.
- 7.T. Boboev. Adabiyotshunoslik asoslari. Toshkent: «O'zbekiston», 2002.

O'quvchilarda adabiy – nazariy tushunchalarni shakllantirish

Maktabda adabiyot nazariyasi adabiyot tarixiga, ma'lum tarixiy sharoitdagi adabiy jarayonga, u yoki bu badiiy asarga bog'lab o'rganiladi. Shu tarzda o'quvchilarga I – IV sinflarda adabiyot nazariyasidan berilgan dastlabki bilim V – IX sinflarda esa izchillikda o'rganiladi, kengaytiriladi va umumlashtiriladi. Olingan har qanday bilim hayotda – amaliyotda samarali q'o'llanilishi bilan kuchli. Shuning uchun ham o'quv dasturida o'quvchilarga adabiyot nazariyasidan ma'lumot berish bilan birga, ularning olgan adabiy – nazariy tushunchalarini mustaqil ishda, adabiy – tanqidiy asarlarni o'qish jarayonida ishlata olish ko'nikmasini hosil qilish lozimligi talab qilinadi. Shu bilan birga, o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan nazariy bilimlar ular ongida uzoq vaqt davomida, sinfdan - sinfga o'tish bilan shakllanib borishi nazarda tutilib, bu bilimlarni vaqt – vaqti bilan takrorlab, mustahkamlab borish kerakligi tavsiya etiladi. Masalan, adabiyot - san'atning bir turi, atrof – muhitni anglashda va inson tarbiyasida kitobning ahamiyati haqida V sinfdan o'rganilgan nazariy tushuncha VI sinfdan badiiy asarda insonning asosiy qahramon sifatida tasvirlanishi haqidagi umumiy nazariy ma'lumot bilan to'ldiriladi. Natijada, V –VI sinf o'quvchilari bu nazariy tushunchalarni o'zlari o'qigan xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyot namunalari «Uch og'a – ini botirlar», «Chambil q'amali» dostoni, H. Olimjonning «Oygul bilan Baxtiyor» (5 - sinf), Oybekning «Ulug' yo'l», O'. Hoshimovning «Robiyaning hikoyasi» (6 - sinf) bilan bog'langan holda o'rganib, so'z san'atida ifodalangan masalalar bilan tanishadilar. Ular adabiy janrlarning xilma – xil ekani va shu janrlarda yaratilgan badiiy asarlarda inson asosiy qahramon sifatida yoritilishini, uning ichki kechinmalari va xatti – harakati badiiy aks ettirilishi haqida tasavvurga ega bo'ladilar.

V-IX sinflardagi adabiyot darslarida o'quvchilarni tez va ifodali o'qish ko'nikmasini egallashga o'rgatish, ularda badiiy asarni tahlil qilish malakasini hosil qildirish asosiy vazifa qilib belgilangan. Buning natijasida ularda o'qitishga havas, adabiyotga muhabbat tuyg'usi o'stirilib, badiiy did shakllantiriladi.

Maktabda adabiyot o'qitish oldiga qo'yilgan bu maqsadni amalga oshirishda adabiy – nazariy tushunchalar muhim ahamiyatga ega. Masalan, V sinfda o'quvchilar adabiyotni muntazam suratda o'rganishga kirishar ekanlar, dastur talabiga ko'ra, ular avvalo, adabiyotning san'at turi ekanligi, uning o'quv fani sifatidagi vazifalari, o'zlarini o'rab olgan borliq va o'z – o'zini anglashda kitobning roli bilan asta – sekin tanisha boradilar, adabiy tur va janrlarning xilma – xilligi hiq'ida muayyan tasavvurga ega bo'ladilar.

Adabiyotning san'at turi va o'quv fani sifatidagi mohiyatini o'quvchilarga tushuntirayotganda, o'qituvchi, avvalo, «adabiyot» so'zi arabcha «adab» so'zining ko'plik shaklidan olinib, u ikki ma'noda qo'llanib kelayotganligi haqida ma'lumot berishi kerak. Chunonchi, «adabiyot» so'zi keng ma'noda barcha kitob turlari, ro'znoma va oynomalarni anglatga, tor ma'noda, ya'ni maxsus ma'noda badiiy adabiyot, faqat badiiy asarlar (roman, qissa, hikoya, she'r, drama va boshqalar) ni o'z ichiga qamrab oladi. Badiiy adabiyot kishilik taraqqiyotining eng qadimgi davrlaridayoq paydo bo'lgan bo'lib, dastlab og'zaki holda tildan – tilga ko'chib yurgan, keyinchalik yozuv paydo bo'lgach, badiiy adabiyotning yozma shakli yaratila boshlagan.

O'qituvchi adabiyot san'atning bir turi ekanligi haqida ma'lumot berar ekan, san'atning xilma – xil turlari: badiiy adabiyot, musiqa, rassomlik, haykaltaroshlik, me'morchilik, raqs va boshqa turlari borligini eslatib, bu san'at turlarining barchasiga xos xususiyat - obrazlilik, obraz orqali voqealikni aks ettirishdan iborat ekani, biroq voqelikni aks ettirishda bularning har biriga xos o'z xususiyati, o'z quroli borligini tushuntiradi. So'ngra badiiy adabiyotning hayotdagi o'zni va ahamiyati haqida quyidagicha ma'lumot berish mumkin:

Badiiy adabiyotning quroli so'zdir, shu bilan u boshqa san'at turlaridan farq qiladi. Badiiy adabiyotda hayot, voqelik va kishilar rivojlanishda, taraqqiyotda tasvirlanadi. Badiiy adabiyot hayotni so'z orqali tasvirlagani uchun **so'z san'ati** deyiladi. Badiiy adabiyotda hayotning muhim voqea-hodisalari, kishilarning xislatlari, ma'naviy olami, ruhiyati, hayotiy faoliyati tasvirlanadi, bularning hammasi jonli obrazlar vositasida gavdalanirilib, yozuvchining hayotga, jamiyatga bo'lgan munosabati, xulosalari ifodalanadi. Shu ma'noda badiiy adabiyot turmushni o'rganish va ayni paytda, dunyoni o'zgartirish quroli hisoblanadi. Chunki badiiy adabiyot o'quvchining hissiyoti, ongi va qalbiga kuchli ta'sir etadi. Yozuvchi o'z g'oya va tilaklarini ifodalovchi ijobiy obrazlar yaratar ekan, biz ulardan ko'p narsa o'rganamiz, ularga taqlid qilgimiz, ularday bo'lgimiz keladi. Yoki yozuvchi o'ziga yoqmagan, o'zi inkor etadigan jihatlarni salbiy obrazlar vositasida tasvirlash bilan birga, ularga nisbatan o'quvchida nafrat hislarini uyg'otadi.

Badiiy adabiyotning ma'rifiy va tarbiyaviy mohiyati haqidagi bu ma'lumotlarni dasturda talab etilgan atrof - muhitni anglash va inson tarbiyasida kitobning o'рни haqidagi tushuncha bilan uyg'unlashtirgan holda hikoya qilgan ma'qul. Bunda o'quvchilardan IV sinfda qanday kitoblar o'qigani, ularda tasvirlangan qanday ijobiy obrazlar o'zlariga yoqqanligi haqida savol – javob asosida suhbat uyushtirish mumkin. Suhbat chog'ida o'qituvchining V sinf o'quvchisiga tanish bo'lgan ayrim doston va hikoyalar mazmuni va g'oyasini, ulardagi eng asosiy obrazlar mohiyatini ochadigan nazariy tushunchalarni (o'xshatish, sifatlash, jonlantirish, q'arshilantirish va hokazo) eslatib borishi g'oyat foydalidir.

Darsda buyuk so'z san'atkorlari va daholarning kitob haqidagi fikrlaridan o'qib berish yoki oldindan ko'rgazmali q'urol sifatida tayyorlab qo'yilgan karton qog'oz va kartochkalar bilan tanishtirish samarali ish turlaridan hisoblanadi.

Badiiy adabiyotning mohiyati va vazifalari haqidagi bu dastlabki ma'lumotlar o'quvchilarga V sinf dasturida talab etilgan xalq og'zaki ijodi, uning ertak, doston kabi janrlari va maxsus turi – xalq donoligining ifodasi bo'lgan topishmoqlar, maqollar hamda badiiy adabiyotning adabiy ertak, hikoya, qissa haqidagi nazariy tushunchalarni anglab olishga yordam beradi. Bunda dasturda tavsiya etilgan «Uch og'a – ini botirlar», «Malikai Husnobod» ertaklari, «Chambil qamali» dostonidan parcha, topishmoqlar va maqollarni o'rganish misolida xalq manfaatlariga boq'liq tarixiy voqealar, xalq farzandlarining ichki va tashqi dushmanlarga, yovuz kuchlarga qarshi qahramonona kurashlari ifodalanganini o'quvchilar ongiga singdirish lozim. Xalq og'zaki ijodining yozma badiiy adabiyotdan farq qiluvchi xususiyatlari haqida so'z ketganda unga badiiy to'qima va xalq ijodiy tasavvuriga katta o'rin berilishi haqida ma'lumot berish kerak. Topishmoq va maqol tushunchalarini izohlaganda ham ularning o'ziga xos xususiyatlari va vazifalari borligini ta'kidlab, ularning V-VI sinf o'quvchilarining yoshi va saviyasiga muvofiq' keladigan namunalarini aytish maqsadga muvofiqdir.

Xalq og'zaki ijodi asarini o'rganish katta ma'rifiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega. Xalq og'zaki ijodi janriga oid asarlar o'quvchilarda dastlabki axloqiy tushunchalarning shakllanishiga imkon beradi, ularning hissiyotiga kuchli ta'sir qiladi, tasavvurlarini kengaytiradi, u o'quvchilarda adabiy ta'limini kamol toptirishda asosiy omil hisoblanadi. O'quvchilar asar qahramonlarining hatti – harakatlarini, asarda ishlatilgan badiiy tasvir vositalarini muhokama qilish jarayonida badiiy - g'oyaviy tahlil ko'nikmalarini egallaydilar, ba

diy vositalarning boyligini bilib boradilar. Chunonchi, «Chambil qamali» dostonida Rayhonarabning Chambilga bostirib kirganligiga qarshi qo'zgon Go'ro'g'li qo'shinnining qahramonligini, uning zo'r kuchga ega ekanini yorokin ifodalashda doston uchun karakterli bo'lgan mubolag'a, o'xshatish, doimiy sifatlash, jonlantirish, takror, manzara kabi tasvir vositalarinnig vazifalari va mohiyatini aniq misollarda tushuntirish orqali qahramonlarning qarashlari,

g'oyaviy nuqtai nazari, hayotga munosabatini anglashda o'quvchilarga yordam beradi. Bu bilan o'quvchilarning badiiy asarni mukammal idrok etishgagina emas, balki ma'naviy dunyosiga ham ta'sir etadi. Shundagina g'azabdan «har tuki choponlarini teshib o'tgan», dushman boshini maydalab Chambil dashtini «qon qilgan» kabi mubolag'ali tasvirlangan Rustam , sher, arslon, qoplon, sirtlon va nortuyalarga o'xshatilgan doston qahramonlari o'quvchilarning yuksak orzularga aylanadi, ular uchun hayotda qanday bo'lish kerakligini ko'rsatuvchi namuna bo'ladi.

Maktabda o'quvchilar she'riy va nasriy asar tushunchalarini bilib oladilar. She'riy nutq tuzilishiga xos asosiy xususiyatlar uning vazni, qofiyali, ritmli , musiqiy (ohangli) bo'lishidir. Demak, ohang jixatidan ma'lum bir tartibga solingan, his-tuyg'u ifodasi sifatida vujudga kelgan ta'sirli ritmik nutq she'r deb ataladi. She'r asosida insonning kechinmalari yotadi. She'r inson qalbinnig nozik his-tuyg'ularini , fikr va xissiyotlarini , ehtirolar kurashi va rivojini g'oyat ta'sirli aks ettiradi. She'rda fikr-mulohaza, his-tuyg'u shaklan siqiq, mazmunan yorq'in , jozibali, musiq'iy tarzda ifodalanadi. Rus tanqidchisi N.A. Dobrolyubov she'r uchun uch xususiyat: ezgulik, go'zallik , donolik bo'lishi shart deb ta'kidlangan edi. Bularning birortasi bo'lmasa ham, nutq she'r bo'la olmaydi. Nutqning she'r bo'lishi uchun she'riy mazmun va she'riy shakl zarur. She'r tuzilishining asosini ritmik o'lchov –hijo (bo'g'in) tashkil etadi. Misralardagi hijolarning miqdoriga qarab she'rning musiq'iyliigi belgilanadi. Musiqiylik esa she'rning bosh ifoda vositasi bo'lib, she'r tuzilishida asosiy mavq'eni egallaydi. Chunki she'riy nutq musiqiylikni vujudga keltiradigan ritm, vazn, hilo, turoq, q'ofiya , band, ohang, pauza, urg'u va boshqa she'r tuzulishiga oid qismlardan tashkil topadi.

O'quvchilar she'riy nutq tushunchasini o'zlashtirganlaridan keyin nasriy nutq haqidagi nazariy ma'lumotni ancha osonlik bilan tushunib oladilar. Bu haqida suhbat boshlaganda o'quvchilarga «Oygul bilan Baxtiyor», «Yoz» kabi asarlar she'riy nutq shaklida, «Yonar daryo», «qahraton q'ish», «Chin inson qissasi» kabi asarlar nasriy nutq shaklida yozilgani aytiladi. Shundan so'ng bevosita nazariy tushunchani izohlashga kirishadi.

V-VI sinflarda o'zlashtirilgan adabiy-nazariy tushunchalar VII sinfda badiiy tahlil jarayonida takrorlanib, murakkablashib boradi. Shu bilan birga, bu sinfda adabiy qahramon , hikoya, qissa kabi tushunchalar kengroq o'rganiladi. Asosan o'quvchilarning adabiyotda inson va uning ichki olami, hatti-harakatining badiiy aks ettirilishi ustida olib borgan kuzatishlari nazariy jihatdan umumlashtiriladi. Natijada o'quvchilar hayotda inson turli holatlarga tushganligi va turlicha ijtimoiy munosabatlarga duch kelganligi uchun yozuvchilar uchratgan asarlarida o'zlari ko'zlagan g'oyani ifodalovchi turli kompozitsiyalar va syujetlar yaratganliklarini anglab etadilar.

VI sinf o'quvchilari dastur talabiga ko'ra, sujet tushunchasini ham o'zlashtiradilar. O'qituvchi bu tushuncha haqida ma'lumot berar ekan, uning adabiy asar qahramoni , asarda inson obrazining o'rni kabi tushunchalar bilan mustahkam boq'liq ekanligini ta'kidlashi lozim. Chunki syujet badiiy asarning

bevosta mazmunini tashkil etgan, o'zaro bog'langanligi va rivojlanib boruvchi hayotiy voqealar tartibini tashkil etadi. Syujet asar qahramonlarining harakati, o'zaro munosabatlari tufayli shakllanadi. Asar syujeti unda tasvirlangan qahramonlar bilan uzviy bog'liq bo'lib, hayotni badiiy ifodalash va zarur g'oyani ilgari surishda katta ahamiyatga ega. Demak qahramonlarning o'zaro murakkab munosabatlari asar syujetini tashkil etadi. Qahramonlarning o'zaro munosabatlari esa voqea-hodisalarda namoyon bo'ladi. Shu ma'noda voqea hodisalar tartibi asar syujetining asosini tashkil etadi.

Bu nazariy ma'lumotni o'quvchilarga puxtaroq singdirish uchun Abdulla Qahhorning «Ko'r ko'zning ochilishi» hikoyasi syujeti asosini tashkil etgan voqea –hodisalar tasviridan foydalanish mumkin. Abdulla Qahhor o'z hikoyasida xalqimizning qahramonona kurashini Ahmad polvon obrazi orqali ifodalab xarakterining shakllanib borishini, hayot saboqlaridan uning ko'zi ochilib, ozodlik ishiga sadoqatli, mard, jasur vatanparvarga aylanishini ko'rsatadi. Demak, hikoya syujeti qalamga olingan davrni ko'rsatishga, qahramon xarakterining shakllanib borishi tarixini namoyon etishga, asar g'oyasini ifodalashga xizmat qiladi.

Shuni ham ta'kidlash joizki, V-VI sinflarda badiiy tilning tasviriy vositalarini o'rganish ishini o'quvchilarga adabiy asarni yaxlit idrok etishiga yordam beradigan adabiy qahramonona va syujet tushunchalarini shakllantirishdan boshlanadi. Chunki, maktab tajribasidan ko'ringanidek, badiiy tilning tasviriy vositalariga oid nazariy tushunchalarni o'quvchilar qiyinlik bilan o'zlashtiradilar. Shuning uchun ularning bu sohadagi bilimlari ko'pincha yuzaki, butun bir asar bilan bog'lanmagan bo'ladi, o'rganilgan asarda aniqlangan tasviriy vositalarni ikkinchi bir asarda, ular uchun yangi bo'lgan badiiy matnda topolmaydilar.

Aslida esa V-VI sinf o'quvchilari uchun yaxlit bir asar mazmun tushunarli va qiziqarli bo'ladi, lekin sifatlash va istiora kabi oddiy tushunchalarni anglab olishlari g'oyat qiyin ko'chadi. Shuning uchun ham tasviriy vositalariga oid nazariy tushunchalarni o'rganishni butun bir asar tahlilidan boshlash kerak.

VII-IX sinflarda badiiy asarlarda hayotning turli shakllarda aks ettirilishi, ularda xarakter va muhitning o'zaro bog'liq holda tasvirlanishi, adabiyotda haqiqat va badiiy to'qimaning mavjudligi, adabiyotning obrazlilik va ijtimoiy ahamiyati kabi nazariy tushunchalar o'rganiladi. Undagi janrlar to'g'risidagi umumiy adabiy – nazariy tushunchalar esa, bir tomondan, o'quvchilarning V-VI sinfda olgan nazariy ma'lumotlarning boyishiga va mustahkamlanishiga yordam bersa, ikkinchidan, ularni ta'limni davom ettirishga tayyorlaydi. Chunonchi, bu sinflarda beriladigan tushunchalar o'quvchilarning badiiy til haqida ilgari o'zlashtirilgan bilimlarini yanada boyitadi va chuqurlashtiradi.

VII-IX sinflarda badiiy asar tili, ayniqsa, tasviriy vositalar ustida olib boriladigan ish o'quvchida badiiy tilni tushunish ko'nikmasini hosil qiladi, til orqali ular asarning g'oyaviy – badiiy mazmunini tushunadilar, uning qanday vositalar bilan ifodalanishini bilib oladilar. O'quvchilar biror narsa yoki

hodisani ifodalash uchun soʻz yoki soʻz birikmalarining oʻz maʼnosidan boshqa maʼnoda qoʻllanilishini anglatuvchi tushuncha koʻchim deb atalishini oʻzlashtiradilar va badiiy asarlarni tahlil qilish jarayonida oʻzlariga ilgari tanish boʻlgan oʻxshatish, majoz, istiora, metonimiya kabi tasviriy vositalar koʻchim turlari ekani toʻgʻrisidagi maʼlumotni oʻzlashtirib oladilar, ular tilga xos hodisa boʻlgan koʻchma soʻzning qoʻllanish doirasini, maʼno tovlanishlarini taʼmin etishini koʻchim tufayli badiiy nutqning uslubiy vazifalari ortishini anglaydilar.

Shuningdek, oʻquvchilar badiiy til asar mazmunini roʻyobga chiqaruvchi, mazmunini ochib beruvchi birdan-bir vosita ekani, til faqat kishilar oʻrtasida aloqa vositasi boʻlibgina qolmay, gʻoyaviy va emotsional taʼsir vazifasini oʻtashi haqida ham tasavvurga ega boʻladilar.

VII-IX sinf oʻquvchilari adabiyotni hayotni badiiy aks ettiruvchi maxsus sanʼat turi sifatida anglar ekanlar, bunga ular janrlar haqidagi nazariy tushunchani oʻzlashtirmay erisha olmaydilar, chunki janrda badiiy adabiyotning obrazlilik xususiyati ifodalaniladi. Oʻquvchilar adabiyot darslarida xalq ogʻzaki ijodi va yozma adabiyotning ayrim janr xillari, adabiy turlar, nasriy va sheʼriy nutqning bir-biridan farqi, tasviriy vositalar, adabiy qahramon, ertak, masal va boshqa badiiy asarlardagi badiiy toʻqima haqida nazariy maʼlumotga ega boʻlar ekanlar, qadam-baqadam hayotni borliqni obrazli aks ettirish mohiyatini anglab boradilar. Oʻquvchilar ayrim badiiy asarlarni oʻrganish jarayonida nazariy jihatdan obrazlilik tushunchasi bilan birga, mavzu, gʻoya, syujet, kompozitsiya tushunchalarini oʻzlashtiradilar.

Dastur talabiga koʻra, ilgari sinflarda oʻzlashtirilgan ertak, topishmoq, doston, maqol sheʼriy va nasriy nutq (V sinf), hikoya, qissa, maqol, yumor, ruboiy, qitʼa, ballada, lirik sheʼr, fard, memuar asar, satira, komediya kabi janr tushunchalari IX sinfda boyitiladi, badiiy adabiyot janrlari, jumladan, tarixiy roman haqida batafsil nazariy maʼlumot beriladi, oʻquvchilar egallagan bilimlar mustahkamlanadi. Maktabda oʻquvchilar oʻngida janr tushunchasini shakllantirish prinsipi muntazamlilik va uzluksizlikdir. Sinfdan sinfga oʻtgan sari ravishda janrlar haqida maʼlumot berilishi, har biri alohida oʻrganiladigan asarning janr xususiyati chuqur tahlil etilishi va umumlashgan aniq, ixcham ilmiy taʼrif sifatida oʻquvchi ongiga etkazilishi kerak.

Matab dasturida garchi badiiy adabiyot janrlari haqida IX sinfda umumlashtiruvchi nazariy maʼlumot berish talab etilgan boʻlsa-da, badiiy adabiyotning turli janrlariga oid asarlar barcha sinflarda uchraydi va bunda oʻquvchilarga qisqa nazariy maʼlumot berib boriladi. Dasturning bunday tuzilishi turli sinf va yoshdagi oʻquvchilar ongida u yoki bu janrga xos maʼno va xususiyatlarning oʻzlashib, mustahkamlanib borishiga imkon beradi.

Adabiy – nazariy tushunchalar adabiyot kursining tarkibiy qismigina emas, balki adabiy taʼlimning ilmiy – falsafiy asosi ham ekanligi. Adabiyot nazariyasidan yetarlicha bilimga ega boʻlmagan oʻquvchi badiiy adabiyotning nozikligini, badiiy soʻzning joziba qʻudratini tuya olmasligi. Oʻquvchilar

yuq'oriroq' sinflarga o'tgan sayin ularning adabiyot nazariyasiga oid fikrlari chuqurlasha borishi kerakligi

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Adabiy – nazariy tushunchalar adabiyot kursining tarkibiy qismigina emas, balki adabiy – ta'limning ilmiy- falsafiy asosi ekanligini asoslab bering.
2. O'quvchilarda adabiy – nazariy tushunchalarni shakllantirishning maqsad va asoslari nimalardan iborat?
3. Nima uchun adabiy nazariy tushunchalarni o'tishda o'quvchilarning yosh xususiyatlari inobatga olinadi?

Mavzuga oid tayanch tushunchalar:

Adabiy – nazariy tushunchalar adabiyot kursining tarkibiy qismigina emas , balki adabiy ta'limning ilmiy – falsafiy asosi ham ekanligi . Adabiyot nazariyasidan yetarlicha bilimga ega bo'lmagan o'quvchi badiiy adabiyotning nozikligini, badiiy so'zning joziba qudratini tuya olmasligi. O'quvchilar yuqoriroq sinflarga o'tgan sayin ularning adabiyot nazariyasiga oid fikrlari chuqurlasha borishi kerakligi

12- mavzu: Ko'rsatmali quroldan foydalanish.

Reja:

1. Adabiyot darslarida ko'rgazmalilikning vazifasi.
2. Ko'rgazmalilikning sintaktik vositalari.
3. Darsda ko'rgazmali vositalardan foydalanish usuli.
4. Ko'rgazmalilikda savol va topshiriqlardan foydalanish.

Adabiyotlar:

1. M. Mirfayozov. 4-8-sinf adabiyot darslarida ko'rgazmalilik. «O'qituvchi», 1986.
2. K. D. Ushinskiy. Tanlangan pedagogik asarlar. Toshkent: 1959.
3. Q. Yo'ldoshev. Adabiyot o'qitish metodikasi. Toshkent: «O'qituvchi», 1994.
4. A. Zunnunov. Adabiyot o'qitish metodikasi. Toshkent: «O'qituvchi», 1992.
5. Q. Jo'raev. Adabiyot kabineti va o'qitishda ko'rgazmalilik. Toshkent: «O'qituvchi», 1965.

Adabiyot darslarida ko'rgazmalilikni maqsadga muvofiq ravishda amalga oshirish bilan o'quvchilarni yozuvchi ijodi va uning badiiy asarlarini, adabiy-nazariy bilimlarini anglab, bilib olishlariga, adabiy-madaniy nutqlarini o'stirishga erishish o'qituvchining oldida turgan muhim vazifalardir. Bu vazifalar turli holat, vaziyatda turli xarakterda amalga oshiriladi.

Ko'rgazmalilik amalga oshirilgan darsdan o'quvchilarda faollik oshib borishi zarur. Agar ularda yana shu faollik bo'lmasa, masalan, tasviriy san'at asarlari ustida o'tkazilgan mashg'ulotda o'quvchilar faolligi sezilmasa, bunday ko'rgazmalilikning ahamiyati ham bo'lmaydi.

Musiqqa dars ohangdorligini kuchaytirishning sinalgan vositalaridan biri bo'lib, unda ayniqsa lirik asarlarni o'rganish jarayonida foydalanish g'oyat samaralidir.

O'quvchilarga ta'sir etish uchun sinfda emosional sharoit yaratish, «ko'rish ko'rgazmaliligi» ni tashkil etish, sinfni jihozlash muhim rol o'ynaydi. Masalan, kuz haqidagi she'r o'rganilganda sinfni kuzgi yaproqlar, pishgan mevalar bilan jihozlash lozim. O'quvchilarni ertak bilan tanishtirganda sinf xonasini ilmiy-fantastik va sarguzasht adabiyotlar bilan jihozlash, ertaklar xonasini tashkil qilish, shuningdek, tabiat to'g'risidagi asarlarni o'rganishda dars, maktab binosida emas, tabiat qo'ynida o'tkazilishi maqsadga muvofiq'dir. Yozuvchi asarni yaratishdan oldin hayotni, hayotiy sharoitni, odamlarni o'rganadi, so'ngra ijodga kirishadi, asar orqali fikran kitobxon bilan suhbatlashadi, dardlashadi. Lekin hozirgi davr o'quvchilari o'tmish hayot, masalan, XIV – XIX asrlardagi hayot ifodalangan asarlarni o'qiganlarida, u davrdagi moddiy, ma'naviy hayot haqida to'liq tasavvurga ega bo'lmaydilar. Ularda shunday tasavvur hosil qilishga o'tmish madaniy yodgorliklari, me'morchilik, haykaltaroshlik asarlarini, tasviriy san'at obidalarini namoyish etish yordam beradi.

2. Kinofilm va televideniya ekran va tovush ko'rgazmaliligi mujassamlashgan bo'lib, ularda voqea kishilar obrazi orqali ifodalanadi. Shu jihatdan ham kino va televideniya ta'lim va tarbiyada muhim ahamiyatga egadir. Ulardan darsda samarali foydalanish o'qituvchining texnik vositalarni qanchalik yaxshi bilishi va ularni amalda qo'llay olishiga bog'liqdir. Maktablardagi mavjud o'quv va diafilmlar biografik va obzor harakteriga ega bo'lib, ularda yozuvchilarning hayoti, asarlarida ifodalangan voqea va obrazlar, yozuvchi zamondoshlarining rasmi, maktublaridan namunalar aks ettirilgan. Kinofilmlarda Alisher Navoiy, Furqat, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Oybek, Abdulla Qahhor hayoti, ijtimoiy – adabiy faoliyati, «Qutlug' qon», «O'tkan kunlar», «Sinchalak» asarlarida tasvirlangan voqea va obrazlar, ularning hatti-harakati ko'rsatilgan. Ushbu ekran ko'rgazmalari o'quvchilarda hayotiy va kishilar haqida katta taassurot uyg'otadi, hayotda o'z o'rinlarini belgilab olishlariga yordam beradi.

3. O'qituvchi ko'rgazmali vositalardan foydalanishni rejalashtirgandan, avvalo, dars jarayonida, darsning har bir bosqichida uning didaktik vazifasini belgilab olishi kerak.

Metodik adabiyotlardan ko'rgazmali vositalardan yozuvchining hayoti va ijodini, badiiy asarlarini o'rganishga bag'ishlangan mashg'ulotning yakunlovchi qismida foydalanish tavsiya etiladi. Chunki, yakuniy mashg'ulot adabiy asarlarni san'atning bohqa turlari bilan taqqoslash uchun katta imkoniyat yaratadi. Obrazlarni qiyoslash esa, o'quvchilarga asarni puxta tushunishga, ular uchun yangilik bo'lgan qirralarini baholashga yordam beradi. Obrazlarni qiyoslashda ko'rgazma vositalaridan foydalanishda didaktik masalaga ham ahamiyat beriladi, albatta.

Darsda badiiy asarni o'rganishda kinofragment namoyish qilinar ekan, o'quvchilarning matnni teran idrok qilishlariga e'tibor beriladi. Shundagina kinofragment asarda ifodalangan lavha va obrazlarni qiyoslashda yaxshi natija beradi. Shuni ham unutmaslik kerakki, qiyoslashda o'quvchilarning diqqat-e'tibori obrazlar harakati bilan bir qatorda kinofragmentda til vositasida ularning o'ziga xos tarzda ifodalanishiga, yozuvchining qahramonlar hatti-harakati va voqealarni tasvirlashdagi uslubiga ham jalb etiladi. Shunday qilingan taqdirda kinofragment adabiy matnni o'rganishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Maktablarda o'tkazilgan tajribalarda badiiy asarni o'rganishning barcha bosqichlarida ham ko'rgazmali vositalardan foydalanish yaxshi natija berganini ko'rsatdi. Masalan, «Uzum» she'rini o'rganishda, shu she'r asosida yaratilgan diafilmni namoyish etish bilan o'qituvchi ko'tarinki ruh yaratdi, o'quvchilarni fikran poetik olamga olib kirdi.

Material tanlash: Ko'rgazmali material tanlash dars oldiga qo'yilgan vazifa talabiga ko'ra amalga oshiriladi. Material tanlashda o'qituvchi uning sifatiga e'tibor beradi, undan foydalanish me'yori va usulini belgilab oladi.

Darsda o'tilayotgan mavzu xususiyatiga ko'ra, ba'zan bir necha xildagi ko'rgazma vositalaridan foydalaniladi. Masalan, «Furqatning ijodi» mavzuyi bo'yicha tashkil qilingan kirish mashg'ulotida shoirga nisbatan muhabbat uyg'otish maqsadida kinokadrlar to'liq ko'rsatiladi, plastinka orqali zamondoshlarining fikr va xotiralari eshittiriladi. Alisher Navoiy, hayoti va ijodi haqida beriladigan ma'lumotda kinokadrni ko'rsatish, plastinkadan g'azallarini eshittirish bilan birga, shoirning rasmi ham namoyish etiladi.

Darsda san'at turlarining o'zaro aloqadorligi ularga ehtiyotkorlik bilan yondashishni, ularning har biriga xos xususiyatga e'tibor berishni talab qiladi. Masalan, Furqatning «Sayding qo'yaber sayyod» she'ri o'rganilganda qo'shiqchining ijrochilik san'atiga va she'rga bastalangan musiqaga, asardagi lirik qahramon, sayyod va sayd tasviriga e'tibor beriladi. Xonandaning yoq'imli ovozini eshitgan, musiqaning mayinligi, yoqimlilikini his etgan o'quvchilar asar qahramonlarining ruhiyatini, holatini chuqur anglab oladilar.

Ko'rgazmali vositalarning mohiyatini adabiy mavzular, badiiy asarlarda ifodalangan voqea va obrazlarni anglab olishni ta'minlashi bilan belgilanadi.

Masalan, darsda Abdulla Qodiriyning «O'tkan kunlar» romani asosida yaratilgan kinofilm namoyish qilinganda o'quvchilarda, endi asarni

o'qish shart emas, degan tasavvur hosil bo'lishi mumkin. Shunga qaramay, kinofilm mazmuni bilan romandagi tasvirni taqqoslash uchun asarni, albatta o'qish zarurligi o'quvchilar ongiga etib borishi zarur, chunki roman qunt bilan o'qib chiqilib, tahlil qilinsa, obrazlarning hatti-harakati va asardagi tasviriy vositalarning kinofilmdagi tasvirdan farqlanish sabablari oydinlashadi.

Umuman, adabiyot darsida unga yaqin turlaridan foydalanish o'qituvchidan ehtiyotkorlikni, ulardan foydalanish usullarini puxta egallab olishni taqozo etadi.

5. Adabiyot darsining samaradorligini tasviriy san'at, musiqa, kinofilmlardan foydalanish usullarini egallash orqali eshitiladi. O'quvchilarning san'at turlarining adabiyot bilan yaqinligini tushunib olishlari uchun, ularga har bir san'at turi haqida tushuncha berish lozim. Shu bilan birga, san'atkorlar to'g'risida ham ma'lumot berish kerak.

Masalan, V-IX sinflarda yozuvchining rasmini ko'rsatganda, o'qituvchi uni ishlagan rassom, rasmda yozuvchining qaysi davrdagi qiyofasi, hayoti aks ettirilgani to'g'risida ma'lumot beradi, X-XI sinflarda esa rasmni chizgan rassomning ijodi, uslubi haqida ham hikoya qiladi.

Shundan so'ng o'quvchilar bilimini mustahkamlash uchun ularga topshiriqlar beradi, savollar bilan murojaat qiladi.

V sinfda «Uch og'ayni botirlar» ertagi o'rganilayotganda unga ishlangan rasmlar namoyish qilinar ekan, o'qituvchi o'quvchilarga matnda rasm mazmuniga mos misralar topishni topshiradi. «Oygul bilan Baxtiyor» ertagini o'tishda unga ishlangan rasmlarni ko'rsatib, unda chizilgan lavhalar, rasmda Oygul rasmi asardagi tasvirga qanchalik o'xshashligi haqida suhbat o'tkazish mumkin. Bu ertak mazmunini puxta o'zlashtirib olishga yordam beradi.

V sinfda Mirtemirning «Yoz» she'ri o'rganilganda o'quvchilar shu faslga doir rasmlar bilan tanishtiriladi, va o'qituvchi ularga qarata: «She'rni o'qib, shoirning yoz faslini yaxshi ko'rishini, yoz fasli go'zal ifodalanganini bilib oldingiz. Rasmlarda Mirtemir tasvirlagan yoz faslida tabiat qanday aks ettilrilgan?»- deb murojaat qiladi.

O'quvchilar yozuvchi asariga ishlangan asar mazmuni yuritilgan rasmlarga jiddiy munosabatda bo'lishlari, rassomning san'atkorlik mahorati haqida aniq tasavvurga ega bo'lishlari lozim.

Maktabda ko'rgazma vositalaridan foydalanishda o'quvchilarga beriladigan topshiriq baholash xarakterida ham bo'ladi. Darsliklarda asarlarga ishlangan rasmlar o'quvchilarni estetik jihatdan tarbiyalaydi, ularning tasviriy san'at asarlarini idrok etishlari va uni baholashni o'rganishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Rasmlarni tahlil qilish orqali o'quvchilar badiiy asarni g'oyaviy axloqiy jihatdan tushunib oladilar, uni baholash ko'nikmasini, rassomlar ishidagi yutuq va kamchiliklarini aniqlash malakasini ham egallab oladilar.

Maktabda ayniqsa, yuqori sinflarda asar mazmunidan kelib chiqib, ko'rgazmali qurollar yasash o'quvchilarda ijodkorlik, o'zaro hamkorlik o'rganilayotgan yozuvchi hayoti va asarlariga muhabbat hissini oshirib boradi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Adabiyot darslarida ko'rgazmalilikning vazifasi nimadan iborat?
2. Ko'rgazmalilikning sintatik vositalari nimalar?
3. Zamonaviy pedagogika tomonidan ko'rsatmani qurollar qanday tasnif etilgan?
Badiiy so'z ko'rsatmaliligi nima?

Tayanch tushunchalar:

Ta'limning ko'rsatmaliligi tamoyili didaktikaning metodologik asosi bo'lmish bilish nazariyasidan kelib chiqqanligi. Ko'rsatmali qurollarning turlari zamonaviy pedagogika tomonidan 1. Tabiiy ko'rsatmalilik. 2. Tasviriy ko'rsatmalilik. 3. Grafik ko'rsatmalilik. 4. Badiiy so'z ko'rsatmaliligi tarzida tasnif etilishi

13. MAVZU: ADABIYOT BO'YICHA SINFDAN VA MAKTABDAN TASHQARI ISHLAR,

REJA:

1. Adabiyot to'garaklari: ifodali o'qish, adabiy-ijodiy, drama.
2. Adabiyot bayramlari va adabiy uyushmalar
3. Kutubxonada o'tkaziladigan mashg'ulot
4. Fakultativ mashg'ulotning vazifasi va xususiyati.

Adabiyotlar:

1. Q.Oripov, M.Obidov. Ifodali o'qish. Toshkent. «O'qituvchi» 1982 .2. K.Husanboev. Chingiz Aytmatov va adabiyot darslarida mustaqil fikrlash// Til va adabiyot ta'limi, 2002, 2-son, 13-20 betlar.
3. N.Nishonova. Adabiyot va ekologiya . Til va adabiyot ta'limi, 2003, 2-son, 33-36-betlar.

Maktabda sinfdan tashqari ishlarning ommaviy turlaridan biri to'garak mashg'ulotlaridir. Adabiyot to'garaklari o'quvchilarda badiiy ijodga qiziqish uyg'otishda, ularning fikrlash qobiliyatini kamol toptirish va dastur materiallarini puxta o'zlashtirishlarini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

O'quvchilarda badiiy adabiyotga, yozuvchining ijodiga qiziqish uyg'otish va o'stirish, ijodkorlik qobiliyatini tarbiyalash va rivojlantirish to'garaklar oldiga

quyidagi asosiy vazifadir. To'garak mashg'ulolarida o'quvchilarning adabiy ijodkorlik, badiiy ifodali o'qish, adabiy o'lkashunoslik faoliyatlarini o'stirishga e'tibor beriladi.

Maktabda tashkil etiladigan adabiyot to'garaklari ifodali o'qish, adabiy-ijodiy va drama to'garaklaridan iborat bo'ladi.

Ifodali o'qish to'garagiga ko'proq V-IX – sinf o'quvchilari jalb etiladi va ularga turli janrdagi badiiy asarlarni ifodali o'qish qoidalari o'rgatiladi.

Adabiy-ijodiy to'garakda o'quvchilar ijodidan namunalar-she'r, hikoya, maqola, insho va dasturda sinfdan tashqari o'qishga tavsiya etilgan asarlar o'qib, tahlil qilinadi. Shu yo'l bilan o'quvchilarda ijodkorlikka havas uyg'otiladi, asarni tahlil qilish malakasi tarbiyalanadi.

Drama to'garagida ham dasturda sinfdan tashqari o'qishga tavsiya etilgan dramatik asarlar o'qilib, tahlil qilinadi, shu orqali o'quvchilarda obraz yaratishga intilish tuyg'usi, aktyorlik faoliyati shakllantiriladi.

Maktablarda o'tkaziladigan adabiy kecha adabiyot bo'yicha o'tkaziladigan sinfdan tashqari mashg'ulotlarning eng ko'p tarqalgan turlaridandir. Yaxshi, puxta tayorgarlik bilan o'tkazilgan adabiy kechalar o'quvchilarning estetik tuyg'usi va badiiy didini tarbiyalashda qudratli vositadir.

To'garaklar mavzusi turlicha bo'ladi. Va reja o'quvchilarning fikr-o'ylari, istaklari, tajribalari, maktab imkoniyati hisobga olingan holda tuziladi.

Keyingi yillarda maktablarda «Kitob do'stlari» nomida ham to'garaklar tashkil etila boshlandi. Bu to'garaklar sinfdan tashqari o'qishni tashviq etishda o'qituvchining yaqin ko'makchisiga aylanayotir.

«Kitob do'stlari» to'garagi qatnashchilari o'qish kerak bo'lgan asarlar ro'yxatini tuzadilar, yangi kitoblar ko'rgazmasini tashkil etadilar, kitobxonlar konferensiyasini o'tkazishda faol qatnashadilar. «Kitobxon ovozi», «Yosh ijodkorlar» nomida devoriy gazeta chiqaradilar, o'quvchilar sevgan asarlari bo'yicha munozara uyushtiradilar.

To'garak ishtirokchilari yozuvchining, masalan, Alisher Navoiy, Abdulla Qodiriy, Fitrat, Cho'lpon, Usmon Nosir, Erkin Vohidov, Odil Yoqubov, Said Ahmad, Abdulla Oripov, Halima Xudoyberdiyeva va boshqalar ijodiga bag'ishlab adabiy kechalar o'tkazadilar. To'garak dasturi yozuvchilar esdaligini o'rganish, asarlariga ishlangan rasmlar orqali yozuvchi bilan tanishish, hayoti va ijodi bilan bog'liq bo'lgan joylarga sirdan sayohat qilish, muzeylardan olgan taassurotlarini o'rtoqlashish kabi mavzulardan tashkil topishi mumkin.

Adabiyot bayramlari va adabiy uyushmalar

Adabiyot bo'yicha sinfdan tashqari ishlar ikki shaklda—adabiyot bayramlari va adabiy uyushmalar shaklida o'tkaziladi.

Adabiyot bayrami bayramlarga bag'ishlab o'tkaziladigan adabiy kechalar, uchrashuvlar, tanlovlar, olimpiadalar, o'yinlar, karnavallardan iborat bo'ladi.

Adabiyot bayrami doimiy suratda o'tkazib boriladi. Bu bayramlarda kitob xaftaligi, tanqidchi va yozuvchilar bilan uchrashuvlar kitob ko'rgazmasi uyushtirish mumkin.

Adabiyot bayramida adabiyotshunoslik, san'atshunoslik, o'quvchilarning ijodiy ishlari bo'yicha ko'rgazma tashkil etiladi, tanlov o'tkaziladi. Tanlov olimpiada, ishno, ifodali o'qish, o'quvchilar yaratgan hikoya, ertak, qo'shiq, she'rlar bo'yicha bo'ladi, mehnat va urush faxriylari bilan uchrashadilar, turli bayramlar uyushtiriladi. Adabiyot bayramlarida ijodiy jamoa-maktab klubi, to'garak va adabiy uyushma ishtirokchilari. Adabiyot bayramlarida ijodiy jamoa-maktab klubi, to'garak va adabiy uyushma ishtirokchilari atoqli arboblari, ulkan san'atkor va yozuvchilar tug'ilgan kunni nishonlaydi. Farhod va Shirin, Layli va Majnun, Otabek va Kumush, Anvar va Ra'no, Yo'lchi va Gulnor, Gulsara, Nurxon kabi sevimli adabiy qahramonlar haqida suhbat tashkil qiladi.

Adabiy bayramlar, tanlovlar ma'lum reja va maxsus tayyorgarlik bilan o'tkaziladi. Shundagina ular ijodiy, tarbiyaviy xususiyat kasb etadi, tinglovchilar va tomoshabinlarda yoqimli kayfiyat uyg'otadi, bayram va tanlov ishtirokchilari o'z mehnatlaridan zavqlanadilar, ularda ijodiy ishga qiziqish tuyg'usi ortadi. Zotan, bularning barchasi o'quvchilarda o'z ishlaridan qoniqish hissini tarbiyalashda muhim ahamiyatga egadir.

Kitob ko'rgazmasi: Kitob ko'rgazmasi maktab kutubxona xodimi, o'qituvchi va o'quvchilar ishtirokida tashkil etiladi. Ko'rgazmadagi kitoblari ehtiyotlik bilan aniqlanadi. Buning uchun ko'rgazmaga maxsus kishi maslahatchi qilib tayinlanadi. Ko'rgazmadagi kitoblardan yozuvchilar ijodi, obzor mavzulari o'rganilayotgan jarayonda foydalaniladi.

Ko'rgazma yangi, turli janr va mavzulardagi asarlar, xalq og'zaki ijodi namunalari bilan boyitib boriladi.

Ko'rgazmalar mavzu jihatdan yangilanib turiladi. Masalan, «Abdulla Qodiriy-mashhur, el sevgan adib», «Erkin Vohidov-el suygan shoir», «Abdulla Oripov-otash qalb shoir», «Ulug' Vatan urushi yillarida o'zbek adabiyoti», «o'zbek adabiyotida xalqlar do'stligining ifodalanishi», «Yozuvchilar ijodida mehnat mavzuining yoritilishi» va boshqalar. Ayrim vaqtlarda sinfda kichik mavzularda, masalan, «Alisher Navoiy lirikasi», «Abdulla Qahhorning hikoya va qissalari», «Odil Yoqubov asarlarida diyonat, insof, kamtarlik g'oyalarining ifodalanishi» mavzularida ko'rgazma tashkil etib, darsda undagi kitoblardan foydalaniladi.

Kutubxonada o'tkaziladigan mashg'ulot

O'quvchilarning mustaqil o'qish madaniyatini egallashlaridagi aqliy mehnatlari ko'rsatkichlar, varaqlar, katologlar, bibliografiyalar tuzish kabi ishlardan iborat bo'ladi. Bu ishga ham o'qituvchi raxbarlik qiladi, o'quvchilar bilan kutubxona xodimlarining hamkorligini o'rnatadi. O'quvchilar barcha ishlarni aniq reja va jadval asosida amalga oshiradilar. Reja bir yilga mo'ljallab tuziladi.

Kutubxonada o'tkaziladigan mashg'ulotda, masalan, V sinf o'quvchilari kitobning yozilish tarixi, yaratilishi, nashr qilinishi, jihozlanishi bilan tanishib, uning jamiyat va inson hayotdagi ahamiyati, kutubxonada kitob tanlash yo'llari haqida ilk ma'lumot oladilar. VI sinf o'quvchilariga bibliografiya va uni to'zish ko'rsatkichlar tayyorlash to'g'risida tushuncha beriladi, shuningdek, bolalar uchun nashr etilgan qobusnomalardagi ma'lumot, ma'lumotnomalardan foydalanish ham o'rgatiladi.

VII sinf o'quvchilari katalog va entsiklopedik lug'atlardan foydalanishni bilib oladilar. VIII sinf o'quvchilarida alfavit tartibidagi bibliografiya katologi asosida kitobdan foydalanish malakasi hosil qilinadi. XI sinf o'quvchilari faqat bolalar kutubxonasidagina emas, balki nohiya, shahar, jumhuriyat kutubxonalarida ko'rsatkich va kataloglarning asosiy to'rlari bilan, entsiklopediya lug'atlari bilan, kitoblarga obzor bergan gazeta materiallari bilan ishlash ko'nikmasini egallaydilar.

Shu narsa muhimki, X- XI sinf o'quvchilari quyi sinflarda kutubxona mashg'uloti yuzasidan olgan bilimlarini amalda qo'llay boshlaydilar. Bu ularning kelgusida kitob bilan ishlashlarida, butun hayotlari davomida muhim ahamiyatga ega bo'lib q'oladi. Shunga ko'ra, o'qituvchi kutubxona xodimi bilan birgalikda o'quvchilarga yozuvchilar to'g'risida bibliografiya ma'lumotlar tayyorlashni o'rgatadi, adabiy-tanqidiy asarlar, taniqli kishilar, inqilob va Ulug' Vatan urushida jasorat ko'rsatganlar hayoti yoritilgan kitoblarni o'qish, bibliografiya tuzish, ma'ruza qilishga tayyorlanishni topshiradi. Shu asosda u o'quvchilarning muntazam sur'atda kitob o'qishiga, bilim olishga erishadi.

Fakultativ mashg'ulotning vazifasi va xususiyati

Maktabda adabiyot bo'yicha fakultativ mashg'ulot VIII sinfdan boshlanadi, uning vazifasi o'quvchilarning qiziqishi, aqliy faoliyatiga qarab belgilanadi. O'quvchilar mashg'ulotga ixtiyoriy suratda qatnashadilar.

Fakultativ mashg'ulot sinfda o'tiladigan adabiyot darslari bilan bog'lab boriladi, shu yo'l bilan o'rta maktab adabiyot kursining mazmuni to'ldiriladi va rivojlantiriladi, adabiy ta'lim darajasi oshiriladi, o'quvchilarning darsda egallagan bilimlari chuqurlashtiriladi.

Fakultativ kurslarda adabiyotni o'rganishda qo'llanadigan usul va o'qish jarayonini tashkil etish shakllari adabiyot darslarda qo'llanadigan usul va ish shakllardan farq qilmaydi.

Fakultativ mashg'ulotlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, o'quvchilar unda yozuvchilar ijodini, adabiy bilimlarni, adabiy-badiiy hodisalarni baholash, tahlil qilish malakalarini sinfda o'tiladigan asosiy kursga nisbatan chuqur egallaydilar.

Fakultativ kurs mashg'ulotlari sinfdagi asosiy darslar bilan sinfdan tashqari ishlar o'rtasidagi birlikni saqlashga xizmat qiladi.

Fakultativ kurs mashg'uloti sinfdan tashqari olib boriladigan ishlarga nisbatan yo'nalishda bo'ladi, unda ta'im sistemasini rivojlantirish asosiy vazifa qilib qo'yiladi. Bu vazifani amalga oshirish uchun fakultativ mashg'ulotlarda ma'ruza, suhbat, munozara, seminar va amaliy ishlar bilan birga, sinfdan tashqari ishlarning ayrim shakllari, masalan, adabiy o'yin, tanlov, viktorina, ko'rgazma, adabiy kompozitsiyalar ham uyushtiriladi. Agarda fakultativ kurs 10-15 o'quvchidan iborat bo'lsa, suhbat usulidan foydalaniladi. Chunki barcha o'quvchilar bu mashg'ulot ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladilar, ular bilan o'qituvchi o'rtasida keng hamkorlik vujudga keladi.

Fakultativ mashg'ulotlarda o'qituvchi o'zining kirish yoki yakunlovchi ma'ruzasida ma'lum mavzu bo'yicha berilgan bilimlarini tartibga soladi, umumlashtiradi, o'quvchilarni ilmiy va nazariy bilimlardan xabardor qiladi.

Ma'ruza orqali beriladigan bilim o'quvchilardan uni zo'r diqqat-e'tibor bilan tinglashni talab qiladi. Chunki ular ma'ruza rejasini tuzadilar, ma'ruzaning ayrim o'rinlarini yozib o'boradilar.

Fakultativ kursda o'qituvchi sinfdagiga nisbatan, har bir o'quvchi bilan ko'proq munosabatda bo'ladi, o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatini hisobga olgan holda, ma'ruza bilan birga, mashg'ulotni tadqiqot usulida ham uyushtiradi. Tadqiqot usulining qo'llanishi ularda tadqiqotchilik ko'nikmasini o'stiradi.

Fakultativ mashg'ulotlarda uyushtiradigan suhbat, munozara turli xarakterda bo'lishi, ba'zan ma'ruzaning uzviy qismi sifatida o'tkazilishi mumkin. Suhbatda izlanish (evristik) usulidan foydalanib, o'quvchilarga muammoli topshiriq berish orqali ularning izlanish faoliyati, bilish qobiliyati rivojlantiriladi va shu yo'l bilan ta'limning samarali bo'lishiga erishiladi.

Fakultativ mashg'ulotlardagi amaliy ishlar o'tganlarni takrorlash xarakterida bo'lib, o'quvchilarning oldin egallagan bilimlari takrorlanadi, umumlashtiriladi va mustahkamlanadi. Mashg'ulot davomida o'quvchilar kichik hajmdagi mustaqil ishlarni ham bajaradilar. Bu jarayonda ular badiiy asarni tahlil qilish, badiiy asar matni, tanqidiy maqola va ilmiy adabiyotlar ustida ishlaydilar, bibliografiyalar tuzadilar. Bu esa o'z navbatida, ularda badiiy asar ustida ishlash, ilmiy adabiyotlardan foydalanish usullarini egallab borishlariga yordam beradi.

Fakultativ mashg'ulotlarda amaliy ishlar o'quvchilar guruhi va yakka o'quvchi bilan amalga oshiriladi. Mashg'ulotlarda har bir masala aniq maqsad asosida hal qilinadi.

Seminar mashg'uloti o'quvchilarda mustaqil fikrlash ko'nikmasini o'stiradi, ularning o'zaro fikr almashuvi uchun qulay sharoit yaratadi. Seminar mashg'ulotida o'quvchilar referatlar yozadilar, ma'ruza qiladilar, uni o'zaro muhokama qiladilar, ayrim muhim muammolar haqida suhbatlashadilar,

o'qituvchi kirish yoki yakunlovchi so'z so'zlaydi. Maslahat, yo'l-yo'riq shaklidagi seminar esa, masalani hal qilish, anglab olish, ayniqsa, ma'ruza qiladigan o'quvchilarga katta yordam beradi.

Fakultativ mashg'ulotlarda olib boriladigan barcha ish turlarida, asosan, o'quvchilarning ishni mustaqil bajarishlari va mustaqil fikrlashlariga e'tibor beriladi. Bu esa, o'z navbatida, ta'limning yakka-yakka tarzda ham bo'lishini taqozo etadi. O'qituvchining rahbarlik roli va mas'uliyat hissini ham oshiradi. O'quvchilar bajaradigan mustaqil ishning samarali bo'lishi uchun o'qituvchidan har tomonlama puxta tayyorgarlik ko'rishni talab qiladi.

O'qituvchi fakultativ mashg'ulotlarda suhbat va munozaralar uyushtirishdan oldin ularning mavzusini belgilaydi, rejasini, o'quvchilarga beradigan savol va topshiriqlarni tuzadi, bajariladigan amaliy ishlarni aniqlab oladi, suhbat va munozara mavzusiga doir adabiyotlarni ko'rsatib, ularni o'qishni tavsiya qiladi, shu bilan birga, o'quvchilarning ilmiy-tanqidiy manbalar bilan mustaqil ishlash ko'nikmalarini egallashlari uchun maslaxat, yo'l-yo'riq beradi. Bu maslahatdan asosiy maqsad-o'quvchilarga o'qigan kitob va maqolalarining bibliografiyasini tu'zish, ulardan ko'chirmalar olish qoidalarini, kutubxonolarda katalog, ma'lumotnomalardan foydalanish, kerakli kitoblarni tanlash, ulardan konspekt olish, kartochkalar tayyorlash, ma'ruza matnlarini yozish yo'llarini tushuntirishdan iborat bo'ladi. O'quvchilar tayyorlagan ishlar ko'rib chiqiladi, maqsadga muvofiqlari ma'qullanadi, kamchiligi bor bo'lgan ish egalariga maslahat beriladi. Shu yo'l bilan o'quvchilarda bu ishlar haqida to'liq tasavvur xosil qilinadi, kitob bilan ishlash, undan foydalanish ko'nikmasi o'stirib boriladi.

Fakultativ mashg'ulotlarda ham odatdagi darslar kabi asosiy e'tibor badiiy asarga, uni tahlil qilishga, yaratilish tarixiga, obrazlar sistemasiga, tasvir vositalariga qaratiladi, ko'rgazmali vositalaridan foydalaniladi.

Fakultativ mashg'ulotga qatnashuvchilarning bilimi sinf mashg'ulotidagi kabi baholanmaydi. Ularning bilimi, faoliyatiga qo'yiladigan baho, bu-o'qituvchi va o'rtoqlarining u tayyorlagan va qilgan ma'ruzalari, mavzularni o'rganishda, munozara va suhbatlarda faol ishtiroki uchun bildirgan samimiy qutlovlari va tabrik so'zlaridir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Adabiyot bo'yicha sinfdan tashqari ishlar, deganda nimalarni tushunasiz?
2. Adabiyot bo'yicha sinfdan tashqari ishlarning qanday turlari mavjud?
3. Nima uchun fakultativ mashg'ulotlarni tanlash ixtiyoriy, qatnashish majburiy?
4. Nima uchun fakultativ mashg'ulotlarda o'quvchilarga odatdagi yo'nalishda baho qo'yilmasligi kerak?

Darsning tayanch tushunchalari:

Sinfdan tashqari ishlar tarbiyalanuvchilarda ijodkorlik mayllarini uyg'otish bilan ahamiyatli ekanligi. Adabiyot bo'yicha sinfdan tashqari ishlarning:

a) adabiy konferensiya; b) adabiy uchrashuv; v) adabiy bahslar; g) adabiy montaj (quroq); d) adabiy ko'rgazmalar; e) adabiy kechalar singari turlari mavjudligi.

Fakultativ mashg'ulotlarni tanlash ixtiyoriy, qatnashish majburiyligi. Adabiyot darslaridagi asosiy vazifa o'quvchilarni qiziqtirish bo'lsa, fakultativ mashg'ulotlardagi vazifa qiziqishni chuqurlashtirish ekanligi. Fakultativ dars qatnashchilari miqdorining 15 nafardan oshmasligi, o'quvchilarga odatdagi yo'snda baho qo'yilmasligi kerakligi.

Adabiyot to'garagi faoliyatini tashkil etish. Adabiyot o'qituvchisi badiiy so'zga muhabbat qo'ygan yoshlarni rag'batlantirishi kerakligi. Mana shu maqsadlarga xizmat qiladigan eng yaxshi vosita adabiyot to'garagi ekanligi. Adabiyot to'garagida ko'pi bilan 15-20 odam ishtirok etishi lozimligi. Maktablarda adabiyot to'garaklarining 1. Adabiy-ijodi to'garak. 2. Drama to'garagi. 3. Ifodali o'qish to'garagi 4. Adabiy o'lkashunoslik singari turlari keng tarqalganligi.

14. MAVZU: O'QUVCHILARNING YOZMA NUTQINI O'STIRISH

REJA:

- 1.Yozma ishlar va o'tkazish
- 2.Maktab inshosi turlari
- 3.Yozma ishlarni tekshirish va baholash, kamchiliklarini tuzatish

Adabiyotlar:

- 1.S.Dolimov Ta'limiy bayon va insho. Toshkent: «O'qituvchi» 1968 .
- 2.U.Dolimov. M.A'lamova. Insho va diktantni qanday yozish kerak? Toshkent: «Universiteti» 1991
- 3.S.Ismatov, O'rta maktablarning yuqori sinflarida insho. Toshkent: «O'qituvchi», 1973.
- 4.Afoqova N. Insho qanday yoziladi? Buxoro, 1999.

Maktabda o'quvchilarning nutq madaniyatini o'stirishda adabiyotdan o'tkaziladigan yozma ish asosiy rol o'ynaydi va u turli shaklda o'tkaziladi.

I-IV sinflardagi bayon va insho ta'limiy xarakterga ega bo'lib, o'qituvchi rahbarligida o'tkaziladi. Bu sinflarda o'quvchilar mazmuni o'zlashtirilgan ertak,

hikoyalar bo'yicha bayon, hayotiy tajribalari va rasmlar asosida kichik hajmda insho yozadilar.

V-IX sinflarda adabiy mavzudagi yozma ishlar, adabiy o'qish mashg'ulotlarida asarning mazmunan chuqur anglab olish maqsadida o'tkaziladi. Bu yozma ishlar asar mazmunini, obrazlar harakterini reja asosida yozma hikoyalash va matnni yozma tahlil qilishdan, savollarga yozma javob berish va o'qilgan asardagi asosiy fikrni, uning mazmunini qisqacha yozib olishdan, annotatsiya, taqriz yozish va parcha, epigraflar tanlashdan iborat bo'ladi.

X-XI sinflarda yozma ish turlari birmuncha ko'payadi va mazmunan murakkablashadi: insho, annotatsiya va taqriz yozish, sodda va murakkab reja tuzish, asosiy fikrni, mazmunni qisqacha yozib olishdan tashqari, ma'ruza matnlari tayyorlanadi, o'qilgan asarlar bo'yicha kundalik daftar yuritiladi.

Yozma ishlarni o'tkazish

Maktabda o'tkaziladigan yozma ishlarning eng muhim va murakkab turi inshodir. Insho o'quvchilarda nutq, kitob ostida mustaqil ishlash, hayotni kuzatish natijasida o'zlarida paydo bo'lgan taassurotlarni umumlashtirish malakasini, ijodiy qobiliyatni o'stirishda, umuman bilimlarni puxta egallashlarida muhim rol o'ynaydi.

O'quvchi insho yozish uchun etarli bilimga, o'zi ma'lum bo'lgan narsalarni aniq tartibga sola bilish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim. Buning uchun u badiiy asarlarda aks ettirilgan voqea va obrazlarni chuqur anglab olishi, sinfdan tashqari ishlarni mustaqil suratda bajarib borish kerak.

Maktab inshosi turlari

Umumiy o'rta maktab o'quvchilari yozadigan insholar uch guruhga bo'linadi: 1) adabiy mavzudagi insholar; 2) o'quvchilar hayoti bilan bog'liq bo'lgan insholar; 3) tasviriy san'at asarlari asosida insholar.

Birinchi guruh insholar uchun badiiy adabiyot, ikkinchi guruh insholar uchun ijtimoiy hayot, odamlarning mehnat faoliyati, uchinchi guruh insholar uchun tasviriy san'at asarlari (kishi portreti, joylar, tabiat, odamlar, jumladan, bolalar faoliyati tasvirlangan rasmlar), haykaltaroshlik asarlari asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Adabiy mavzudagi insholar adabiy asarlar tahlilidan iborat bo'ladi va ular, o'z navbatida, ikki turga bo'linadi: 1) sinfdan o'rganiladigan asarlar asosida yoziladigan insholar; 2) mustaqil o'qilgan asarlar asosida yoziladigan insholar.

Ushbu insholarning birinchi turiga tasnif tipidagi ishlar-yakka obrazga, bir necha obrazlarga, yozuvchining ijodiy faoliyati va obrazlariga qiyosiy tavsif berilgan insho, asardagi voqea, lavha tasvirlangan insho, asarning g'oyaviy mazmuni yoritilgan insholar kiradi. O'quvchilar bu tur insholarni izchillikda yozib borish orqali insho nazariyasi haqidagi bilimni ham egallab boradilar,

shuningdek, bunday insholar o'quvchilarning adabiyot va ona tili kursi bo'yicha olgan bilimlarini aniqlab borishga ham yordam beradi.

Mustaqil o'qilgan badiiy asarlar asosida insho turiga sinfdan tashqari o'qilgan asarlar bo'yicha yozilgan va o'quvchilarning ijodiy tajribasi yoritilgan insholar kiradi. Odatda, o'quvchilar bu tur insholarda o'zlari tanlab olgan asarni tahlil qiladilar.

Ikkinchi guruh, ya'ni hayotni kuzatish asosida yozilgan insholarga o'quvchilarning ijtimoiy hayot, mehnat, kishilar faoliyati haqidagi shaxsiy kechinmalari yuritilgan insholar kiradi. Bu insholar maqola, ocherk, she'r, hikoya, va rivoyat, ya'ni ijodiy tajriba xarakterida bo'ladi.

Og'zaki va yozma insholar: «Insho» deganda biz mustaqil suratda bajarilgan yozma ishlarni ko'z oldimizga keltiramiz. Ammo ayrim vaqtda «insho» tushunchasi o'quvchilarning mustaqil suratda og'zaki bayon etgan nutqiga nisbatan ham qo'llaniladi.

Maktabda og'zaki va yozma insho o'tkazish uchun bir xilda tayyorgarlik ko'riladi. Ya'ni mavzu, uning hajmi va mazmuni aniqlanadi, o'quvchilar mavzuga doir material to'playdilar, uni izchillikda yoritish yo'llarini belgilab oladilar. Og'zaki va yozma insho o'rtasidagi farq shundaki, birida fikr og'zaki, ikkinchisida yozma suratda bayon etiladi.

Adabiyot dasturida adabiy mavzuda og'zaki va yozma insholarni o'tkazishga alohida ahamiyat beriladi. Chunonchi, I-IV sinflarda adabiy qahramonning hatti-harakat, xulq-atvori haqida yozma va og'zaki qisqacha tavsifa, VII sinfdan reja asosiy adabiy qahramonlarga (bir qahramonga va ikki qahramonga) yozma va og'zaki tavsif, VIII-IX va X-XI sinflarda esa, asar qahramonlariga yozma ravishda tavsif berish talab etiladi.

Maktabda yozma va og'zaki insholar o'tkazib borish orqali o'quvchilarning nutq malakalari o'stiriladi, ularni o'tkazish jarayonida o'quvchilarga insho asosilari-insho mavzui va uni yoritish yo'llari, insho rejasi va uni tuzish yo'llari, rejaning mavzuga va mazmunga mos bo'lishi tushuntirib boriladi.

Umuman, maktabda og'zaki va yozma insholar bir-biriga bog'liq holda olib boriladi va shu yo'l bilan o'quvchilarda nutq malakasi o'stiriladi. Nutq malakasini egallash esa, har bir madaniyatli kishi, jumladan, o'quvchilar uchun hayotiy zaruriyat bo'lib, umumiy o'rta maktab ta'limida alohida ahamiyatga ega.

V-IX sinflarda o'tkaziladigan insho turlari tavsif rivoya, tasvir, mulohaza xarakteridagi insholardan iboratdir. Bu sinflarda shu turlar bo'yicha insho uchun mavzu tanlashda o'quvchilarning istak va xohishi hisobga olinadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Inson shaxsi takomilida yozma nutq barkomolligi qanday mavqega ega?
2. Insho pedagogik maqsadga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
3. Insho shakliga va janriga ko'ra qanday tasnif qilinadi?

4. Insho xatolari qanday turlarga va ular qanday baholanadi?

Darsning tayanch tushunchalari:

Yozma nutq barkamolligi inson shaxsi takomilida alohida mavqega egaligi. Inshoni quyidagicha tasnif qilish mumkinligi:

Pedagoigik maqsadga ko'ra: a) ta'limiy insho; b) nazorat insho. Shakliga ko'ra a) og'zaki insho; b) erkin insho; v) adabiy ijodiy insho. Janriga ko'ra : a) rivoya insho; b) tasviriy insho; v) muhokama insho; g) taqriz insho.

Inshodagi xatolarning a) qo'pol; b) qo'pol bo'lmagan singari turlarga bo'linishi. Qo'pol xatolargina bahoga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi. Bir-ikki uslubiy, besh-olti imlo, besh-olti tinish jami o'n to'rt-o'n besh xatoga yo'l qo'yilgan insholarning ham ijobiy baholanish mumkinligi.

15 – mavzu: **Adabiyot darslarida texnika vositalaridan foydalanish**

Reja:

1. Adabiyot fanini axborot texnologiyalarining multimedia vositalari asosida o'qitish
2. O'quv materiallarini obrazli ko'rinishda taqdim etishning ahamiyati.
3. Internet va adabiyot.
4. «Qutadg'u bilig» internet tarmoqlarida.

Axborot texnologiyalarni ta'lim tizimiga tadbiq etish o'quv jarayonining samaradorligini oshirish imkonini beradi. Ta'lim tizimida axborot texnologiyalarni qo'llash shaxsiy kompyuterlar va axborot texnologiyalarinnig pedagogik dasturiy vositalari hamda multimedia vositalarining yaratilishi bilan bog'liqdir.

Bugungi kunda AT larining multimedia vositalarida o'quv materiallarini obrazli ko'rinishda ifodalash imkoniyati mavjud. Ma'lumotlarning matn ko'rinishida emas, balki obrazlar ko'rinishida taqdim etilishi bilim olish va fikrlashga ijobiy ta'sir qiladi. Obrazlar ko'rinishidagi o'quv materiallari matn ko'rinishidagiga nisbatan o'quvchi diqqatini tez jalb etishi bilan birga oson o'zlashtirishga ko'proq yordam beradi. Chunonchi, mashhur donishmand allomalar Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy va A.Eynshteynlar obrazlar asosida fikr mulohaza yuritganlar.

Ta'lim tizimida axborot texnologiyalari dasturini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ma'lumotlarni obrazlar ko'rinishida taqdim etish bo'yicha kompyuter o'quv dasturi tuzayotgan mualliflar parallel ravishda o'quv materiallarini obrazlar ko'rinishida taqdim etishning orginal usullarini ham yaratmoqdalar.

Zamonaviy axborot texnologiyalari an'anaviy o'qitish texnologiyasidan inson intellekti rivojlanishining yangi shoxobchasiga mos

keladigan obrazli ko'rinishda ma'lumotlarni taqdim etishi, muloqot tillari bilan boq'liq muammolarni echishga hamda jahondagi kommunikatsion jarayonlarning rivojlanishiga olib kelishi bilan ham farqlanishi mumkin.

O'quv materiallarini obrazlar ko'rinishida taqdim etish vositasida o'quvchilarning bilish jarayonga, jumladan, o'quv materiallarini qabul qilish, ma'nosini anglash, esda saqlash va takrorlash kabi jihatlariga ma'lum darajada ta'sir etish mumkin. Shuningdek, bu metodika o'quvchilarning bilim olishga qiziqishlarini orttirishi bilan birga o'quv materialini ko'p kuch sarf qilmasdan o'zlashtirishlariga erishtiradi. Buni an'anaviy o'qitish metodikasi bilan taqqoslaganda yaqqol ko'rish mumkin.

An'anaviy o'qitish metodikasida o'quv materiallari, xususan, matn va formulalar ko'rinishida berilib, o'quv materiallarini namoyish qilish imkoniyati deyarli mavjud emas. Bunday ko'rinishda berilayotgan o'quv materiallarini o'zlashtirish asosan o'quvchi tomonidan ketma-ket ravishda qabul qilinadi, shu sababli ularni esda qoldirish va o'zlashtirish jarayoni sust kechadi.

O'quv materiallarini obrazli ko'rinishda taqdim etishda esa har xil ko'rinishdagi ranglar, harakat, ovoz kabi vositalar o'quvchilarning o'quv materiallarini qabul qilish qobiliyatini oshirishi bilan birga ularning berilayotgan materiallarini tahlil qilish, taqqoslash hamda abstraktsiyalash kabi muhim sifatlarini rivojlantiradi. Endilikda o'qitishning bu jarayonini multimedialarni elektron nusxa ko'rinishida chop etishni taqozo etmoqda.

Shu o'rinda qayd etib o'tish kerakki, axborot uzatishning bu usuli tufayli buyuk davlat arbobi, shoir va mutaffakir Alisher Navoiyning ijodi hozirgi kunda dunyo miqyosida, jumladan, AQSH, Evropa va Osiyo mamlakatlaridagi yirik ilmiy markazlarda katta e'tibor bilan o'rganilmoqda. Bu esa yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatadi.

Masalan, shoirning g'azallari, sahnalashtirilgan va filmi ishlangan asarlarining imitatsion modelini yaratib, asarlar mazmunini ular orqali ochib berish yaxshi samara beradi.

Xullas, o'quvchi va talabalarga kompyuter va axborot texnologiyalari asosida zarur bilimlarni etkazish ularning bu bilimlarini o'zlashtirish darajasini oshirishga yordam beradi.

«Qutadg'u bilig» Internet tarmoqlarida

Mamlakatimizda bugungi kunda kompyuter va axborot texnologiyalari, telekommunikatsiya tarmoqlari, ma'lumotlar uzatish va internetga kirib borishni rivojlantirish ustivor yo'nalishlardan biriga aylangan. Bu borada maxsus farmon va qaror qabul qilindi. Unda 2010 yilgacha respublikamiz aholisining qariyb 60 foizi xalkaro aloqa tarmoqlaridan foydalanishi uchun imkoniyat yaratilishi ko'zda tutilgan.

Hozirgi paytda jadal taraqqiy qilayotgan dunyodan ortda qolmaslik uchun xalqaro internet tarmoqlari bilan doimiy aloqada, muloqotda bo'lish

zaruriyatga aylangan. Bizdagi mavjud adabiyotlar tahliliga ko'ra , internet quyidagi xususiyatlarga ega :

- axborot qabul qilish, uni boshqarish va o'zgaralar uchun taqdim qilish infratuzilma vazifasini bajarish;
- jahon intellektual boyligiga kirish va undan bahramand bo'lish imkoniyatini berish;
- xalqaro aloqalar o'rnatish imkoniyatini berish;
- ish yuritishning eng jadal darajasiga erishish;
- qog'ozbozlik , byurokratik to'siqlarni bartaraf etish;
- internetda nashr qilish

Insoniyatning axborot almashuv texnologiyalarini o'zlashtirganligiga hali uncha ko'p vaqt bo'lgani yo'q. Tadqiqotchilarning kuzatishlaricha, AQSH da 50 mln aholi o'rtasida so'rovlar o'tkazilib, internetning boshqa axborot almashuv vositalariga nisbatan o'zlashtirilishi darajasi aniqlangan. Unga ko'ra , radioni to'la o'zlashtirishga-37 yil, televideniaga – 26 yil, shaxsiy kompyuterga - 18 yil , internetga esa bor yo'g'i 4 yil vaqt kerak bo'lgan ekan.

Biz uchun internet sohasi butunlay yangidek ko'rinadi. Bu, bir qaraganda to'g'ri . Ammo aksariyat rivojlangan mamalakatlar fanining istalgan sohasi bo'yicha (ko'pgina sohasi bo'yicha) ko'pgina internet sahifalari yaratganlarki, bu hol mazkur yo'nalishlarda internet muloqotlari yuritishga bemalol imkon bermoqda. Hamdo'stlik va bir qator yevropa mamlakatlari internet tarmoqlarida bu borada sezilarli ishlar qilinmoqda. Quvonarlisi shuki, insoniyat tarixidagi yetuk mutafakkirlar va ular yaratgan bebaho meros ham asta-sekin internet tarmoqlarida ko'rinmoqda. Masalan, xalqaro internet tarmoqlaridan bobokalonimiz Yusuf Xos Hojib va uning "Qutadg'u bilig" asari to'g'risida ham anchagina ma'lumotlar olingan (3-ilovalar).

Umuman olganda , internet bugungi adabiyotshunoslik fani hamda adabiy jarayon uchun zaruriy manba va qo'llanma vazifasini bemalol bajarishi mumkin. Adabiy asarlar va ularga bo'lgan munosabat , turli tavsif va talq'inlar uzoq va yaqindagi qardoshlarimiz tomonidan internet tarmoqlarida bir qadar yoritilmoqda. Ammo bizda, ayrim ishlar qilinadigan bo'lsa-da, hali adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik borasida, qolaversa, merosimiz namunalarini internet tarmoqlarida yoritish talab darajasida emas. Buning uchun eng avvalo olimlarimizning o'zlari ham mazkur sohani tezroq egallashlari lozim.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. O'quv materiallarini (ekranda) obrazli ko'rinishda taqdim etishning qanday ahamiyati bor?

2. Adabiyot darslarida texnika vositalar qanday maqsadlarda ishlatiladi?

3. Internet orqali olingan adabiy –nazariy ma'lumotlar o'quvchilarga qanday etkaziladi?

Mavzuga oid tayanch tushunchalar:

Ta'limning zamonaviy texnologiyalari; adabiyot fani va axborot texnologiyasi, multimedia va adabiyot, internet va adabiyot ; o'quv materiallarini obrazli ko'rinishda taqdim etishning adabiy bayonchilikdan ustun ekanligi

1-ILOVA

Bu darsning mavzusi «Erkin Vohidovning hayoti va ijodi» bo'lib, 11-sinf-dagi shu mavzuga bag'ishlangan 3 soatning birinchisidir.

Matbuot anjumani va mashvarat-dars shaklida o'tkaziladigan bu darsga o'quvchilar avvaldan tayyorgarlik ko'rib, Erkin Vohidov ijodiga doir jurnal va gazetalarda chop etilgan materiallar bilan tanishib, ulardan darslikdagidan kengroq ma'lumot oladilar. Dars dastavval «Assalom O'zbekiston!» tonggi dastur ko'rinishida olib boriladi.

O'quvchilardan biri bu ko'rsatuvni olib boruvchi boshlang'ich, ikkinchi o'quvchi esa ko'rsatuvga taklif etilgan shoir Erkin Vohidov rolini o'ynaydilar. Dars «ko'rsatuvni olib boruvchining» quyidagi so'zlari bilan boshlanadi:

Boshlovchi: O'zbekim deb keng jahonga
Ne uchun madh etmayin!
O'zligim bilmoqqa davrim
Berdi imkon, o'zbekim!

Bu satrlar hammangizga taniqli bo'lgan O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov qalamiga mansub. Bugun biz u kishini studiyamizga taklif qilganmiz. Shoir kelgunga qadar u haqida qisqacha ma'lumot bermoqchiman, deb quyidagilarni o'qiydi:

«Erkin Vohidov 1936 yil 28 dekabrda Farg'ona viloyat Oltiariq tumanida o'qituvchi oilasida tug'ilgan jurnalist bo'lardi. Ertalab uyg'onishi bilan kundalik rejasini tuzadi. Asosli tanqidni yoqtiradi. Alisher Navoiy mahorati haqida kitob yozishni orzu qiladi. Sevgan fasli-yangilanish, uyg'onish davri-bahor. Uch farzandning otasi, nabiralarning sevikli buvajoni, yosh qalamkashlarning ustози. O'zbekiston xalq shoiri, Hamza mukofoti nishondori, Oliy Majlis deputati, O'zbekiston Qahramoni».

Assalomu alaykum, Erkin aka! Tonggi dasturimizga xush kelibsiz! Hozirgina biz teletomoshabinlarga «O'zbekim» she'ringizdan bir hayqiriqni o'qib berdik. Qarang, 30 yil avval yozilgan bu satrlar bugun ham o'ta dolzarb, xuddi endi yozilganday tuyuladi. Buning sababi Sizning mahoratingizmi?

Erkin Vohidov: Rahmat. To'g'ri aytasiz. Xaqiqatan ham, o'zligimizni namoyish etadigan davr keldi. Ammo dunyoda bo'layotgan voqealar doim

hushyor bo'lishimizni taq'ozo etadi. Biz hushyor bo'lgan holda istiqloq ne'matlarini saqlashimiz, qo'riqlashimiz kerak.

Boshlovchi: Erkin aka, barcha qalamkashlarning, san'at istaklarining ilhombaxsh kuchi xalqqa borib taqaladi. Siz buni bir to'rtlikda ifoda etgansiz:

*El-ustozim, men esa-tolib!
So'z durlarin termoqdir ishim
Odamlarning o'zidan olib
Odamlarga bermoqdir ishim*

Erkin Vohidov: Albatta. Xalqimiz ajoyib. Odamlar ichida ko'p bo'laman, turli gaplarni, og'izdan-og'izga o'tib keladigan rivoyatlarni, latifalarni eshitaman. E'tibor bersangiz, deyarli barcha so'z ustalari, kulgu darg'alari tesha tegmagan gaplarni aynan xalqdan oladi. Men ham ilhomni xalqdan qidiraman, ilhom mahsulini yana xalqimga havola qilaman.

Boshlovchi: O'zbek she'riyati jahondagi eng boy va yuksak milliy madaniyat turlaridan biri sifatida rivojlanib kelgan. U o'zining mumtoz vakillari Navoiy va Boburlari bilangina emas, balki G'afur G'ulom, Oybek, Hamid Olimjon singari XX asr daholari bilan ham mashhurdir. Bugungi kunda ana shularga teng keladigan zamondoshlarimiz bor. Shulardan biri Erkin Vohidov. Uning maydonga kelishi qanday kechgan?

Erkin Vohidov: O'zing to'g'ringda gapirish ancha noqulay. Yaxshisi men o'zim tengi avlod to'g'risida gapiray.

Elliginchi yillar oxiri, oltmishinchi yillarning boshida bir avlod yozuvchilar adabiyotiga kirib keldi. Bu davrda jamiyatda yangi ruh, yangicha qarashlar boshlandi. Bu to'lq'inda Abdulla Qahhor, Said Ahmad, Saida Zununova, Maqsud Shayxzoda, Asqad Muxtor, Mirtemir, Pirimqul Qodirov, Odil Yoqubov, O'tkir Hoshimovlarning asarlari dunyoga keldi.

Men ham shu oqimga bir jilg'a bo'lib qo'shildim. Bizning avlod urushni ko'rgan oxirgi avloddir.

Boshlovchi: Agar shoir bo'lmaganingizda, agar she'riyat bo'lmaganda, Siz kim bo'lib ulg'ayishingiz mumkin edi?

Erkin Vohidov: Shoirlik o'zi asli kasb emas, inson borlig'i, dunyoqarashi desa ham bo'ladi. Agar shoir bo'lmasam, sharqshunos olim, jurnalist bo'lishim mumkin edi. Kim bo'lsam ham adabiyotga yaq'in odam bo'lardim.

Boshlovchi: Bir she'ringizda:

*Qulluq qil, demasman,
Yurt tuprog'ini o'p,
Unga q'o'llar emas, fidolar kerak,
Uning senu mendek shoirlari ko'p,
Buyuk elga endi daholar kerak*

deb yozasiz. Dahoni kutganingiz nimani bildiradi? Biz endigina o'zligimizni tanib, «daho»lardan, «buyuk»lardan qutulib, erkinlik nashidasini surayotgan paytda xalqimizga yana daho kerakmikan?

Erkin Vohidov: Daho deganda, tarix saboqlaridan ma'lum, o'zini soxta «daho» deb e'lon qilgan shaxs anglanmaydi. Daho deganda men zamon tafakkuridan ilgarilab ketgan aqlni, davrni, ommani olga harakat qildiruvchi aqlni tushunaman. Men o'zbeklar ichida yana daholar paydo bo'lishini orzu qilaman.

Shunday fidolar bugun O'zbekiston siyosiy olamiga kirib kelmoqalar va ulardan umidimiz katta

Boshlovchi: O'z-o'zidan men so'ramoqchi bo'lgan gapga o'tdingiz. Hozirgi kunda Oliy Majlisdagi faoliyatingiz haqida to'xtalsangiz.

Erkin Vohidov:

*Ona tilining dardin saqlab ko'ngilda
Nola qilsang, ko'kka chiqar faryodim,
Etmish yetti pushtim so'zlagan tilda
So'zlarmikan yana avlodim,-*

Deb kuyib-yonib yurgan edik, mana o'n uch yildirki, o'zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. Bunda mening ham hissam borligidan baxtiyorman. Lekin baxtiyorlikning o'zi kifoya qilmaydi. Bu qonunning amalga oshishi qanday bo'lyapti? Biroz sustkashlik qilmayapmizmi? Yoshlar tarbiyasi qanday yo'sinda kechmoqda? Bu va boshqa masalalar kun tartibiga qo'yilgan bir davrda ma'rifat va ma'naviyatga ustuvor yo'nalish berilishi ayni muddao bo'ldi.

Boshlovchi: Erkin aka, dastur ijodkorlari bir lavha tayyorlashgan. Hozir shuni tomosha qilsak-da, so'ng suhbatimizni davom ettirsak. («Bir burda non» she'ring saxnalashtirilgan namoyishi. She'r 1980 yilda yozilgan. Chol yerda yotgan non burdasini olib, ko'ziga surtadi. Buni suratga olgan sayyoh suratni chet el ro'znomalarida chop qiladi).

Boshlovchi: Shu she'ring yozilish tarixini gapirib bersangiz.

Erkin Vohidov: Saksoninchi yillarda va hatto mustaqilligimizgacha chet elda O'zbekiston haqida noto'g'ri tasavvur hukm suradi. Bizlarni qashshoq, madaniyatsiz qilib tasvirlashga urinilardi. Shunga norozilik sifatida bu she'r dunyoga kelgan.

Boshlovchi: Erkin aka, bugungi kunda adabiyot olamiga kirib kelayotgan yosh shoirlar haqida qanday fikrdasiz?

Erkin Vohidov: Men boshqa ham yurtlarim singari vaqtli matbuotni, chop etilayotgan yangi kitoblarni kuzatib boraman. Umidli yoshlarimiz ko'p va bu hol meni quvontiradi. Shoirlar safiga Yahyo Tog'a, Iq'bol Mirzo, Tursunoy Sodiqova o'zlarining otashnafas ijodlari bilan qo'shildilar. Menga ayniqsa Normurod Narzullaevning bir she'ri juda yoqadi:

*Ey, O'zbekim, yakdil bo'l-u odam bo'l,
El dardiga darmon bo'l-u malham bo'l,
Yo'lboshchingga qanot bo'l-u hamdam bo'l,
Ey ona xalqim, sen bilan qalbim!*

Har bir shoir, yozuvchi o'ziga bir savolni berishi kerak:

Shoir esang,
Shoir bo'lib,
Nega kelding hayotga,
Eling yotsa dardga to'lib,
Kelolmasang najotga?!

Nazrul Islom

Ruhi mendan

Shunda hisob so'raydi.

Shoir bo'lib elga bu kun

Darkormisan, der menga

Fidolikka xalqing uchun

Tayyormisan, der menga. («Ruxlar isyoni»)

O'zbek xalqi chumoliga o'xshaydi: doim mehnatda, harakatda. Lekin o'z tashvishlardan tashqari, el-yurt tashvishini, hayot muammolarini ham har birimiz o'ylashimiz lozim. Bu yurtda yashab, unga nima berdim deb so'rashi kerak odam o'zidan. Shundagina kelajagimiz porloq, baxtiyor bo'ladi.

Boshlovchi: Erkin aka, vaqtingizni ayamay dasturimizga kelganingiz uchun tashakkur. Sizga uzoq va sermaxsul umr, oilangizga xotirjamlik tilaymiz. Xayr, salomat bo'ling!

Erkin Vohidov: Rahmat. Xayr.

Shundan so'ng darsning davomi konferensiya dars usulida olib boriladi. «Konferensiya» o'quvchilarning quyidagi chiqishlaridan iborat bo'ladi.

1-o'quvchi: Erkin Vohidov 1936 yil Farg'ona viloyat Oltiariq tumanida tug'ildi. 1960 yili ToshDUning filologiya fakultetini bitirdi.

«Yosh gvardiya» va G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotlarida mas'ul lavozimlarda ishlaydi. «Yoshlik» jurnalida bosh muharrir bo'ldi. 1983 yilda «Sharqiy qirg'oq» to'plami uni Hamza nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti bilan taqdirlandi. Shoir «Hurmat belgisi» ordeni bilan mukofotlangan. O'zbekiston xalq shoiri. O'zbekiston qahramoni nomini olgan, Oliy Majlis deputati.

2-o'quvchi: Erkin Vohidov 3-4 yoshligida singlisi va ukasi kasallikdan vafot etdilar. O'zining yozishicha, ota-onasidan to'qqiz yoshidan yetim qolib, tog'asi qo'lida tarbiya oldi. Tog'asi adliya xodimi bo'lsa ham, she'riyatga, adabiyotga qiziqqan odam edi. Ko'p fozil kishilar bilan do'st bo'lib, uchrashuvlar qilib turishardi. Bolaligida texnika, fizika, matematika, astronomiya, keyinchalik tarix, geografiyaga ham qiziqqan shoirning she'riyatga oshno bo'lishga G'ayratini to'garagi, ustoz Mirtemir singari, universitetdagi ijodiy muhit katta ta'sir qilgan.

Prozaga o'tadigan kun, xotiralar yozadigan davr keladi, albatta. Orzusi-shu davrning imkon qadar kech kelishi.

3-o'quvchi: Erkin Vohidov bolalikda tez ulg'aydi. Juda mehribon, zukko odamlar davrasida o'sdi. U qalamga juda erta oshno bo'ldi, unga suyandi, undan madad oldi.

Hali G'afur G'ulom, Oybek, Mirtemir, Shayxzoda, Sobir Abdulla, Uyg'un, Zulfiya, Saida Zununova singari o'zbek orkestrining ulug' cholg'ulari yangrab turganda, ularning ichidan yosh Erkin Vohidovning nayi ham sas tarata boshladi. Bu nay tovushini hamma eshitdi. Uning «Kamtarlik», «Tong lavhasi», «Inson yashamoqdan tolmasin uchun», «O'n sakkizga kirmagan kim bor», «Po'lat», «Xayrli kech» degan she'rlarini yodlab yuradigan bo'ldilar. Birinchi she'riy kitobi «Tong nafasi» 1961 yilda «Aql bilan yurak», 1964 yilda «Mening yulduzim» kabi to'plamlari chop etildi.

4-o'quvchi: Erkin Vohidov she'riyatida zamonaviy ruh bo'rtib turadi. Uning «Yoshlik devoni» (1969) muhammas, g'azal, q'asidalardan tashkil topgan. Shoir ko'proq aruz vaznida ijod qiladi. Uning «Lola sayli», «Yoshligim, kel», «Shirin», «Do'st bilan odob uying» singari she'rlari g'azal janrining mukammal namunalaridir.

Do'st bilan odob uying,
Gar bo'lsa u vayrona ham,
Do'st qadam qo'ymas ekan,
Vayronadir koshona ham...
Do'st qidir, do'st top jahonda.
Do'st yuz ming bo'lsa oz,
Ko'p erur bisyor dushman
Bo'lsa u bir dona ham.

5-o'quvchi: Erkin Vohidovning 70-80-yillardagi she'riyatida ijtimoiy kuylari yanada kuchaydi. Bu shoirning «Nido» (1965), «Hozirgi yoshlar» (1974), «Tirik sayyohlar» (1978), «Sharqiy qirg'oq» (1981), «Bedorlik» (1985), «Muhabbatnoma», «Sadoqatnoma» (1986) kabi to'plamlariga kirgan rang-barang she'rlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Ular ichida «O'zbekim» (1968) alohida o'rin egallaydi. Bu o'zbekning qadr-q'immatini baland ko'taruvchi, ulug'lovchi qasidadir.

1964- yilda yozilgan «Nido» poemasi ham o'ziga xos uslubga ega. Unda Vatan urushida halok bo'lgan mard, fidoyi otalarning o'rnini bosish, xalqimizning munosib avlodi bo'lib yetishish g'oyasi ilgari suriladi.

Hayqiraman,
Tog'lar bag'ridan
Gumburlagan sado keladi.
Ona Yerning otash qa'ridan
«O'glim!» degan nido keladi.

6-o'quvchi: Hozirgi zamonning dolzarb, rang-barang ijtimoiy mavzulari tasviriga bag'ishlangan jiddiy, o'ychan she'rlar Erkin Vohidov ijodida asosiy, salmoqli o'rin egallaydi. Shu bilan birga, shoir bisotida quvnoq, xushchaqchaq, samimiy yumorga boy she'rlar ham mavjud. Shoirning «Donish qishloq latifalari» turkumiga kirgan «Matmusaning qalpog'i», «Matmusaning qishlog'i»,

«Matmusaning lagani», «Matmusaning uylanishi», «qiziquvchan Matmusa» kabi xushchaqchaq she'rlari o'quvchilarga manzur bo'ldi. («qiziquvchan Matmusa»she'rini yoddan o'qiydi).

7-o'quvchi: Erkin Vohidov xilma-xil lirik she'rlar yozish bilan birga «Buyuk hayot tongi» (1960), «Orzu chashmasi» (1970), «Baxmal» (1974), «Ruhlar isyoni» (1979) kabi dostonlar ham yaratgan.

8-o'quvchi: Erkin Vohidov dramaturg sifatida ham tanilgan. Uning 1970 yildagi mashhur «Oltin devor» komediyasi mana o'ttiz yildan ziyod vaqtdan beri O'zbekiston Milliy akademik drama teatri sahnasidan tushmay kelyapti. «Oltin devor» da dramaturg boylikka hirs qo'yish, qing'ir yo'llar bilan mol-mulk orttirishga intilish ustidan quladi, halol ishlab, halol yashash g'oyasini olga suradi. Asarda kinoya, kesatiq, masharash, so'z o'yini askiya kabi kulgi vositalaridan unumli foydalanilgan.

9-o'quvchi: Erkin Vohidov ijodida «Istambul fojiasi» (1985) she'riy dramasi alohida ajralib turadi. Unda poklik bilan nopoklik, to'g'rilik bilan egrilik, halollik bilan ko'zbo'yamachilik, adolat bilan adolatsizlik o'rtasidagi keskin kurash aks ettirilgan.

«Istambul fojiasi» da kolxoz raisi Jalol, uning xotini Saodat va akasi Iskandar obrazi mavjud. Urushga ketgan Iskandar asir tushadi, ko'p qiyinchiliklar, jabr-sitam ko'radi. O'z yurtida esa uni qahramonlarcha halok bo'lganlar qatorida ko'klarga ko'tarib, uning sharafiga ukasi Jalol kolxoz raisi bo'ladi. Saodatni sevgan Iskandar unga erisha olmaganidan armiyaga jo'nagan bo'ladi. Ancha yillardan keyin Jalol va Saodat chet el safarida Iskandar bilan uchrashishadi. Bu voqea ayniqsa ta'sirli tasvirlangan. Iskandar birinchi navbatda «Ona yurtidan bir kaft tuproq keltirmadingmi?» deb so'raydi. Jalol mayiz beradi. Bir dona mayizni og'ziga solgan Iskandar «Shukur, shukur, yurtim nafasini tuygandek bo'ldim» deb entikadi. Erkin Vohidov ona Vatan tuyg'usining q'anchalik muqaddas, qanchalik bebaho ekanligini g'oyat ta'sirli ifodalagan.

10-o'quvchi: Erkin Vohidov tarjimonlik sohasida ham ko'pgina yutuqlarga erishgan. Rus yozuvchi va shoirlarining asarlari qatorida Gyotening «Faust» tragediyasini ham o'zbek tiliga o'giran.

Taniqli shoir hozirgi kunda ham sermahsul ijod qilmoqda. Uning dolzarb she'rlarini turli ro'znomalarda o'qish mumkin. Bundan tashqari, Erkin Vohidov mamlakatimiz siyosiy hayotida ham muhim vazifani bajarmoqda. O'zbekiston Oliy Majlisi deputati sifatida davlat miqyosidagi turli muammolarni yechishda o'z tajriba va bilimlarini ayamaydi.

11-o'quvchi: Erkin Vohidovning ko'pgina she'r va g'azallariga kuy bastalangan. «O'zbekim», «Inson o'zing», «O'n sakkizga kirmagan kim bor» va boshqalar shular jumlasidandir.

Dars Sherali Jo'raev ijrosidagi «O'zbekim» qo'shig'ini magnitofondan eshittirish bilan yakunlandi.

Mahmudxo'ja Behbudiyning hayoti va ijodini o'rganish bo'yicha spektakl-dars

Quyidagi dars ishlanmasi noan'anaviy bo'lib u XX asrning boshlarida yashab ijod etgan ma'rifatparvar adib Mahmudxo'ja Behbudiyning hayoti va ijodiga bag'ishlangan spektakl-dars bayonidir. Mazkur dars ishlanmasi muallifi (JUDU qoshidagi akademik litsey o'qituvchisi) G. Mamedova zamonaviy pedagogika talablariga muvofiq darsni qiziqarli o'tkazish usullaridan birini tavsiya etgan. Namuna sifatida o'qituvchining dars ishlanmasi matnini keltiramiz: ¹ Akademik litseylar dasturida Behbudiyning hayoti va ijodiga 2 soat vaqt ajratilgan. Bu soatlarni biz spektakl – dars sifatida o'tkazish ham mumkin.

Darsga oldindan tayyorgarlik ko'rib, o'quvchilarga Behbudiyning hayoti va ijodi bo'yicha materiallar topib kelishni uyga vazifa qilib topshirildi. Darsga «Xubbi vatan – minal iymon» degan shior tanladik. Sinf taxtasiga mashhur kishilarning Behbudiyning haqidagi quyidagi fikrlari yozib qo'yilgan.

Siyosiy, ijtimoiy faoliyati va bilimining kengligi jihatidan Turkistonning o'sha vaqtdagi jadidlaridan unga teng keladigan yo'q deb o'ylayman.

Fayzulla Xo'jaev, Mahmudxo'ja Behbudiyning uyg'onish davri o'zbek adabiyotida birinchi o'rinni olishga loyiq zotdir.

Hoji Muin ibn Shukrullo.

Taxtaga, shuningdek, Mahmudxo'ja Behbudiyning portreti, uning asarlarida hayoti va ijodiga bag'ishlangan xronologik jadval ilib qo'yildi.

Mumtoz kuy sadosi ostida o'qituvchi Behbudiyning hayoti va ijodi, o'zbek adabiyotidagi o'rni, madaniyatimiz rivojiga qo'shgan hissasi haqida quyidagilarni gapirdi: «O'zbek adabiyotining yirik namoyondasi, ma'rifatparvar alloma, yozuvchi, dramaturg va jamoat arbobi Mahmudxo'ja Behbudiyning 1875 yilning 20 yanvarida Samarqand shahrida mufti oilasida dunyoga keldi. Oiladagi muhit undagi turli sohalarga qiziqishning tezroq ro'yobga chiqishiga imkon tug'dirdi. Behbudiyning otasi islom huquqshunosligi bo'yicha yirik olim bo'lib, bu borada bir necha kitob va risolalar chop ettirgan edi. Ayniqsa, otasi yozgan «Hidoya» asari uning to'g'risida katta rol o'ynaydi.

Behbudiyning, ayniqsa, adabiyot, tarix fanlari, siyosatshunoslik va til o'rganishga jiddiy e'tibor berdi. Arab tilini qunt bilan o'rganishga jiddiy e'tibor berdi. Arab tilini qunt bilan o'rganib, bir necha arab davlatlarida bo'ldi. Qozon va Ufaga ham borib, Ovro'pa madaniyati bilan qiziqdi. Gazeta-jurnallarda maqolalar bilan chiqib boshladi. Xususan, Ismoilbek Gaspirali bosh muharrir bo'lgan «Tarjimon» gazetasi Behbudiyni buyuk ma'rifatparvar qilib voyaga yetkazdi.

Xalqning dunyoqarashi, milliy ongini yuksaltirishda matbuotning o'rni nihoyatda muhim ekanini anglab, Samarqand gazetasi, «Oyna» jurnaliga asos soldi.

Behbudiyning o'zbek va fors-tojik tillarida 200 dan ortiq asar maqolalar yaratgan. Jumladan, «Muntaxabi jug'rofiyai umumiy», «Kitob – un atfol»,

«Muxtasari tarixi islom», «Amaliyoti islom» kabi darslik va kitoblar yaratdi. Uning «Padarkush» yoki o'qimagan bolaning holi» dramasi o'zbek dramaturgiyasiga, teatriga poydevor qo'ygan asar hisoblanadi.

Behbudiyning xalq o'rtasida ortib borayotgan obro'yini ko'rolmagan amirlik rahbarlari uni bolsheviklar chaqiruvi bilan Qarshida ushlab, Said Olimxon farmoni bilan qatl qiladilar.

Behbudiyning o'zbek adabiyotidagi o'rni beqiyosdir. U yaratgan asarlar yana bir necha asrlar davomida kelajak avlodga qolajak.» So'ngra sinfga Behbudiyni timsolida oppoq kiyimda nuroniy adib qo'lida kitob va qalam bilan kirib keldi. U juda xomush, allanimalarni o'ylab, o'zicha pichirladi.

«Ey ollohi azimush- shon! Bu mag'ir saning g'azabingmidur? Avf et biz insonlarni hidoyat et! Yer yuzinda sulh vasalohi umumiy ato ayla, insonlarga imkoniyat ber! Zolimlarni qahr, mahv bo'lsin zulm, yashasun adolat va haqiqat, omin.. Chirog'larim, men ko'p davlatlarda bo'ldim. Boshqa xalqlar hatto dunyoning u bir uchidagi qarindoshlari ila birlashur ekanlar, biz o'z ichimizdagi qarindoshlarimizdan ayrilsak, uyatdir, axmoqlikdur, turk tomiriga bolta urmoqlikdur. Turkistonda barcha xalqlar uchun muxtoriyat e'lon qilindi va siz bilingki, haq olinur, lekin berilmas.

Muhtaram yoshlar! Zamon siznikidir, qarilar zamoni o'tkan. Siz qiromga bobasirat bo'lib, o'n daf'a o'lchab, bir daf'a kesingiz. ...Bu fikrni boshingizdan chiqarmangizkim, sizning o'z boshingizga taraqqiy qilmog'ingiz mushkuldir. Ey, o'g'lonlarim, manim so'zlarimni quloqlaringizga olingizlar. Peterburg va Moskva dorilfununlarida doktorlik, qonunchilik, injinerlik, sudyalik, ilmi iqtisodni egallangiz, so'ngra ilm o'rganingiz!»

Shu payt ikki g'addor bek timsolidagi o'quvchi uning oldiga keldi va ikki yonidan olib : «qo'lga tushdingmi, jadid, kofir, tilchi? Buxoroga janob oliyga tig' tortqon sizning maslakdoshingiz emaslarmi edi? Sizlarni o'ldirmak kerak. Sizlar qutulmoq uchun Baytullo bormoqni bahona ko'rsatasiz»-dedi.

Behbudiyni: «Afandilar, bizlar Baytulloni ziyorat etmak uchun Samarqanddan chiqqan edik, bizning gunohsizligimiz shoyat ma'lumdir», dedi.

Beklardan biri achchiqlanib: «O'ldurultug'on jadidlar uchta edi, endi sen bilan to'rtta bo'ldi, seni ham o'ldurmak kerak,»- dedi Behbudiyni siltab tashladi. Behbudiyni oyoqqa turib g'azab bilan : «Agar bizning hayotimiz hurriyat va xalq baxt-saodati uchun qurbonlik sifatida kerak bo'lsa, biz o'limni ham xursandchilik bilan kutib olamiz!»- dedi va sahnadan chiqib ketdi.

Sahnaga jadid talabalar va hozirgi davr talabalari kirib keldilar. Ular o'rtasida muloqot boshlandi.

1-jadid talaba: Ha, aziz mullozodalar, muhtaram ustozimizning qatli haqidagi xabar rosa bir yildan so'ng tarqaldi. 1920 yilning aprelida butun Turkiston motam tutdi. Ayniy, Cho'lpon, Fitrat ustoz haqida marsiyalar bitishdi. (Fitratning «Behbudiyning sag'anasin izladim» marsiyasi o'qildi).

Cho'kimishdi yer uzra olam tusugi,
Uksuzlik boyqushi qanot qoqardi
Botuvda q'izarib turgan bulutdan

Ezilgan ko'nglimga motam yog'ardi
Haqsizlik shahrining qon hidli eli
Armonim go'lidan bir yaproq uzib
Bahorsiz cho'llarga sovurib q'o'ydi
Ul nozli yaprog'im so'lib, sarg'ayib
Yo'qsul qolganlarga har yon yugurdi
Zolimlar , mazlumlarni , zulmlarning-da
Qayg'ular, alamlar, ulumlarning-da
Bariga uchradi, barchasin ko'rdi,
O'z yuq'ot qonin izladi, so'rdi,
Bir darak topmagach, birdan bir tikildi
Bor kuchin to'pladi.

Zolimning taxtini titratgan bir tovush
qichqirdi:

- Otamning qabrini qayerga yoshurdin?!

Bot so'yla!..

Qirli toj ko'b qo'rqdi botur tovshidan,

Seskanib , titrab... yoshurindi

Bir javob bermasdan.

2 – zamonaviy talaba: Muhtaram mullozodalar, siz tahsil olgan «Usuli jadid», «Usuli savtiya» nomli shuhrat topgan yangi maktabda qanday g'oyalar ilgari surilgan hamda qanday darsliklardan foydalanilgan?

3- jadid talaba: Biz tahsil olgan yangi usul maktabida zamonaviy oliy maktab g'oyalari ilgari surilgan. qanchadan qancha yoshlarni taraqqiy qilingan Ovro'pa mamlakatlariga o'qishga yuborishga muvaffaq bo'lgan, o'zbek teatrining birinchi g'ishtini qo'ygan, nashru matbuotni ham boshlab bergan fidoyi jadidlar edi.

4- jadid talaba: Yangi usul maktablarida «Risolayi savod», «Risolayi jo'g'rofiyai Rusiy », «Kitobat – ul - atfol», « Amaliyoti islom», «Tarixi islom» kabi kitoblar darslik sifatida qo'llanildi.

3-zamonaviy talaba: Behbudiyning publisistika sohasidagi xizmatlarini nima deb bilasiz?

5-jadid talaba: Behbudiyning publisistika sohasidagi xizmatlari ham beq'iyosdir. Uning ko'plab maqolalari «Oyna» jurnali va «Samarqand» gazetalarida chop etildi. Uning «Turkison idorasi», «Turkistonda maktab jarida», «Buxoroda usuli jadid», «Yoshlarga murojaat», «Extiyoji millat», «Ikki emas, to'rt til kerak» kabi publisistik maqolalari o'zbek xalqining milliy tafakkurini, yangicha qarashlarini shakllantirishda ahamiyati katta.

6-jadid talaba: 1906 yili «Xurshid» gazetasida Behbudiyning «Feleton» nomli maqolasi bosilib chiqdi. Unda bizning ham mustaqil uz yo'limiz bo'lishi kerak, agar biz o'z manfaatlarimizni qattiqroq himoya qilmasak, yaqin yigirma yil ichida ko'p oyoq osti bo'lishimiz ehtimol , degan mulohazalarni bildirgan.

7-jadid talaba: Behbudi o'zbek dramasi shakllanishiga asos soldi. Darhaqiqat, u uzoqni ko'ra biluvchi dono inson edi. Uning sal kam 100 yil ilgari

surgan g'oyalari xuddi bugun aytilganday jaranglab turibdi. Uning qay darajada haq ekanligini vaqt ko'rsatadi. Behbudiy millat farzandlarining o'qimishli bo'lishini istadi. Xalqqa har oyna kerak ediki, xalq unda o'z aksini ko'rsa.. Shu ehtiyoj bilan «Padarkush» dramasi dunyoga keldi.

«Padarkush» dramasidan 3-4 parada dars jarayonida namoyish etildi.

So'ngra bahs – munozara boshlanadi. Albatta , savollar o'qituvchi tomonidan puxta o'ylab tuzilgan, muammoli edi.

Bahs-munozaradan so'ng dars mavzusi xulosalandi. Uyga vazifa qilib «Behbudiyning «Padarkush» dramasida ilm- ma'rifat g'oyalarining ifodalanishi» mavzuyida uy inshosi yozish topshirildi.

2-ILOVA

5- sinf dasturiga Abdurauf Fitratning «Yurt qayg'usi I», «Yurt qayg'usi II» nomdagi sochma she'rlari kiritilgan bo'lib, ularni o'zlashtirishga ikki soat ajratilgan.¹ Fitratning mazkur asarini o'rganishga bo'lgan dasturiy talab *«shoirning «Yurt qayg'usi» deb nomlangan she'rlarining yaratilish sabablari, she'rlarida vatan ozodligi , har bir odamning vatan taq'diri oldidagi javobgarlik tuyg'usining ta'sirchan tasvirlanishi, she'rlardagi samimiylilik va ifoda qudrati»* ni o'quvchilarga anglatishdan iborat. Darslikdagi asar matniga shu nuq'tai nazardan yondashiladi va savol-topshiriqlar shunday talqin qilinib, quyidagi lavha bilan tanishtiriladi: *«Turkiyadan dunyoqarashi jiddiy o'sib qaytgan Fitrat Buxoroda jadidchilik harakatining shakllanishi va kengayishida faol q'atnashdi. Bu harakatning asosiy maqsadi Turkistonni mustamlaka kishanlaridan ozod etish, buning uchun xalqda ozodlikka tashna ruh paydo qilish, ma'rifat ko'zini ochish, uning ijtimoiy ongini o'stirish edi»*. Bunday lavha orqali Vatan haqida she'rlar yaratgan, qalbida yurtiga muhabbati behad o'g'lonning o'zi qanaqa bo'lganligini o'quvchilar tasavvur qilishlariga erishish kerak. Shundan so'nggina «Yurt qayg'usi» she'ri mutolaasiga o'tiladi.

«Yurt qayg'usi» adabiyotshunoslikda sochma she'r deb ataladi. U qofiyalarga solinmagan. Fikrlar nasriy shaklda ifodalangan, ammo unda ichki tartib , shiddatli musiqiylik bor. Shuning uchun ham u she'r. Bu she'r shunday ohang bilan o'qilishi kerakki, undagi

«Yurt qayg'usi» adabiyotshunoslikda sochma she'r deb ataladi. U qofiyalarga solinmagan. Fikrlar nasriy shaklda ifodalangan, ammo unda ichki tartib , shiddatli musiqiylik bor. Shuning uchun ham u she'r. Bu she'r shunday ohang bilan o'qilishi kerakki, undagi dard, alam yaqqol ifodalanishi shart. O'quvchi o'qituvchining mutolaa ohangidan she'r ruhini his etishi lozim. She'r tahliliga kirishilar ekan, asar matni yuzasidan o'rta tashlanadigan savol - topshiriqlar o'qituvchi va o'quvchining birgalikdagi faoliyatini ta'minlovchi , o'qituvchi esa bunda etaklovchi , boshqaruvchi bo'lishi lozim. Bu savol – topshiriqlar asardan keltirilgan namunalar asosida

berilib, o'quvchilar javobi ham she'r satrlari bilan tasdiq'lanishi kerak. Masalan, o'qituvchi she'r yuzasidan «Bag'rim yoniq, yuzim qora, ko'nglim siniq, bo'ynim bukik» singari alamli iqrorlar sababi nimada deb o'ylaysiz?» degan savolni o'rta tashlab, o'quvchilarni shoir va uning timsolida butun millatning shunday holatga tushishiga sabab bo'lgan narsalar haqida o'ylashga undaydi. Beshinchi sinf o'quvchilari qadim Turonning chor Rossiyasi tomonidan bosib olingani haqida bilmasliklari mumkin. Shuning uchun bu haqida o'qituvchining o'zi qisqacha ma'lumot berib, quyidagi satrlarni keltiradi:

«Nomusini bot kishilarning oyoqlari ostinda ko'rib, turklik qoni qaynag'ay, musulmonlik hamiyati toshgay, tamug' olovlari kabi sachragay. Lekin uz kuchsizligini anglab, qaytib o'tirgan va qon yig'lagan turkning holini arz etarga keldim., hoqonim!» «Bu satrlardagi turk ruhining qaynashi va ojizligi aks ettirilgan o'rinlarni ko'rsating» degan topshiriq ham o'quvchilarni fikrlashga undaydi. Umuman, «Yurt qayg'usi» ni o'zlashtirish uchun o'quvchilar aq'llarini anchagina zo'riqtirishlariga to'g'ri keladi. Unda shoir or – nomusi, g'ururi, o'zgalarning oyog'i ostida to'ptalayotgan barcha turklar qoni, ruhi, musulmonlik hamiyati nomidan gapiradi, o'z zaifligidan qon yig'laydi. Mazkur savol ustida ishlash jarayonida o'quvchi erkning, mustaqillikning qimmatini yuragida tuya boradi. Buning uchun o'qituvchi mas'uldir. U bor hatti – harakatini shunga qaratishi kerak.

«Asardagi *«Turkning nomusi, e'tibori, iymoni, vijdoni zolimlarning oyog'lari ostida qoldi. Turkning yurti, ulog'i, o'chog'i, Turoni yot qo'llarga tushdi»* tarzidagi ta'kidga e'tibor qiling» topshirig'ini bajarish jarayoni ham o'quvchilarga o'sha davrdagi asl holatni aniqlatadi. O'qituvchi o'quvchilarga buni aniqroq tasavvur qilishga ko'maklashishi kerak. *Zolimlarning oyoqlari ostida qolgan, yot qo'llarga tushgan* kabi so'zlarning ma'nosini anglash uchun ularning har biriga alohida to'xtash, tahlil qilish kerak.

«Sening omonatingga xiyonat qilganlarni ez, ur, o'ldir!» shaklidagi chaq'iriq kimga qaratilgan va *xiyonatchi* kim deb o'ylaysiz?» savoli ham o'quvchilarni o'ylantiradigan savol. «Asar qahramoni kimga murojaat qilyapti? *U omonat* deganda nimani nazarda tutyapti?» kabi qo'shimcha savollar bilan asosiy savolni bir oz jo'nlashtirish, so'ng xiyonatchilar haqida gapirish mumkin.

«Shoirning: *«yuqorida aytdigim ishlarning hammasiga o'zim sabab bo'ldim, barchasini o'zim qildim, sening Turoningni o'zim talatdim, sening turkningni o'zim ezdirdim, sening omonatlaringga xiyonatni o'zim qildim»* - degan iqrori to'g'risida nima deysiz? Fitratni xiyonatchi hisoblaysizmi?» savollari o'quvchilarni mustaqil mulohazaga undaydi. Asl holatni tasavvur qilgan, Fitratning shaxsi haqida ma'lumotga ega bo'lgan o'quvchilar shoir *o'zim* deganda butun turkni nazarda tutayotganini anglashlari kerak.

Asrdan olingan: *«Men q'o'linga topshirig'ing qilichni tashlab cholg'uni olmasa edim, Turonim talanmas edi!»* satrlari yuzasidan

o'qituvchi «Yurt uchun kurashish o'rniga cholg'u bilan ko'ngil ochish oqibati xayrli bo'ladimi?» degan savol beradi. Bu savolga javob berishda o'quvchilar yurt ulug'larining aysh – ishrat bilan band bo'lishi, o'z ko'nglini xushlash bilan o'voraliq butun yurtga, millatga qimmatga tushishi haqida gapirishlari kerak. Buning uchun ular chuqur mulohaza yuritishi, o'sha paytdagi tarixiy voqealar haqidagi ma'lumotlarni izlab topishi va ulardan foydalanishi kerak. Shunday ekan, o'qituvchi tayyor javobni bermay, o'quvchilar javobni o'zlari topishiga erishishi lozim.

«Muallifning: *«Men yolg'iz yozuqlarimni iqror etarga emas, Turonga berdigim zararlarni to'lamoq uchun keldim, hoqonim. Mendan nafrat etma!»*, - degan o'tinchi sizga qanday ta'sir qildi? Nega?» savoli ham har qanday ruhan sog'lom o'quvchini o'ylantiradi. Bu savolga javob talab qilishdan avval o'qituvchi Turonga berilgan zarar haqida bolalarning fikrini so'rashi kerak. «Zarar kim tomonidan berilgan? Nega shoir *berdigim zararlarni*» deyapti? Turonga berilgan zararlarning uning tomonidan bo'lmaganmi yoki millat uchun qayg'urmaydigan, millat va mamlakat taqdiri uchun dili og'rimagan bir guruh mansabdorlar tomonidanmi?» degan qo'shimcha savollar ham o'quvchilar fikrini to'g'ri yo'naltirib, to'g'ri javob topish imkoniyatini beradi. Bu o'rinda *«Turonga berdigim zararni to'lamoq uchun keldim»* jumlasining asl ma'nosini o'quvchilar tushunishi uchun jiddiy va chuqur o'ylab ko'rishlariga to'g'ri keladi. Buning uchun esa o'qituvchi yana ularga qo'shimcha qilib «Bu zararni - ona Vatanga, muqaddas zaminga berilgan zararni nima bilan qoplash mumkin? Uni qoplash mumkinmi? Hatto jonni berganda ham bu to'lovdan qutulish mumkinmi? Bir kishining joni, qoni vatan uchun, ona zamin uchun kerakmi?» degan savollar beradi. Bunday ko'makchi savollarga ham javob topish uchun o'quvchilarni o'yga toldirish adabiy ta'limning maqsadiga muvofiq'dir.

She'r matnidagi navbatdagi *«Sening dunyoga sig'magan g'ayratingga ont ichamanki, Turonning eski sharaf va ulug'ligini qaytarmasdan burun oyog'dan turmasman»* degan misralar tahlil etilar ekan, o'quvchilarning e'tibori avval *«dunyolarga sig'magan g'ayrat»* egasi kim ekaniga qaratiladi. Bunday *«Turonning eski sharaf va ulug'ligi»* satrida qaysi davr nazarda tutilayotganini aniqlash ham o'quvchilarni o'ylantiradi.

O'quvchilar Turon, Turkiston, turk, turklik tushunchalari haqida o'z bilganlaricha javob beradilar. O'qituvchi ularning fikrini to'ldirishi, mukammallashtirishi lozim. O'quvchining aqliga, shuuriga bunday zo'riqtiruvchi savollar bilan murojaat qilish uni bor g'ayratini ishga solishga majbur etadi. Ya'ni shunday savollar bilan aqliga hujum uyushtiriladi. O'qituvchi aytilgan har bir fikr va g'oyani, xulosa va munosabatni yozib borgan ma'qul. U avvaldan bunga tayyorgarlik ko'rgan bo'lishi kerakki, toki, o'quvchilarning birorta ham fikrlari uning nazaridan chetda qolmasligi kerak. Darvoqe, aqliy hujum metodida fikrlarning soni, mazmuni, mantiqiylik darajasi, asosi va isboti nechog'li kuchliligi baholanadi, rag'batlantiriladi.

She'rni o'quvchilar , albatta, yod olishlari kerak. Yuqoridagi tahlil asosida asar mohiyati , shoirning muhabbati , dardi va iztiroblarini his qilgan, uni o'zbekning bir yolg'oni sifatida anglagan o'quvchiga she'rni yod olish qiyin bo'lmaydi. Bu ishning ma'naviy samarasi o'quvchida 5 – 10 yildan keyin ma'lum bo'ladi.

Ikkinchi darsda «Yurt qayg'usi II» she'ri ustida ish olib boriladi. Bu ikki soatni birlashtirish maqsadga muvofiq emas. O'quvchiga she'rning birinchi qismini o'zlashtirish va mag'zini chaqish ham oson bo'lmaydi. Birinchi qismidagi vatanga muhabbat , vatan uchun qayg'urish, burchlilikni his qilish o'quvchini fikrlashga da'vat etadi. Sochma she'rni yod olish ham o'ziga yarasha vaqt talab qiladi.

Majmuadagi ikkinchi she'r ham xuddi birinchisi singari o'qilib, aqliy hujum metodida birinchi she'rdek tahlil etiladi. O'sha tarzda maxsus savol - topshiriqlar ustida ishlanadi, ularni o'quvchilar anglab olishlari uchun yordamchi savollar tuziladi. Javoblar yozib boriladi, ularga munosabat bildiriladi. Jumladan, «Asarda yigitning xayolini o'g'irlagan sohibjamol Xotun, sizningcha, kimning timsoli? She'rda u *«Bir Xotunki, egnida ipakli, lekin yirtiq va eski bir ko'ylakdan boshqa bir kiyim yo'q»* tarzida tasvirlanganligining sababi nimada? Degan savollarga javob topish uchun o'quvchilarga «Xotunning sohibjamolligiga e'tibor qiling, ustidagi ko'ylak ipakli ekani nimadan dalolat beradi? Bu ko'ylak nega hozir eski va yirtiq? Singari qo'shimcha savollar o'rta tashlanadi. Insonning o'ziga tegishli hamma narsaga go'zal, yoqimli. Turk (o'zbek) ayoli ham shoirning o'ziga tegishli bo'lgani uchun hammadan go'zal. U o'zbek shoiri uchun dunyodagi barcha sohibjamollardan go'zalroq'. Bu ayol bir zamonlar g'oyat to'q, ham ma'naviy, ham moddiy jihatdan boy bo'lgan. Shuning uchun ham egnidagi ko'ylagi chit satin emas, *ipakli*. Mustamlakachilar uning bor bud – shudini – egnidagi ipakli ko'ylagidan boshqa hamma narsasini tortib olgan. Bunga ancha bo'lgan. Shuning uchun ham ayolning egnidagi ko'ylak eskirib, yirtilib tamom bo'lgan. O'qituvchi she'r mazmunidan o'quvchilarni o'zlari shunday xulosaga kelishiga , shu haqiqatni o'zlari topishiga , anglashiga yo'naltirishi kerak. Shundagina o'quvchi ta'lim jarayonidan , o'qishdan huzur qiladi, lazzat oladi.

She'r ustida ishlash jarayonida asarda o'tli bir yonish bilan berilgan *«Yonimda , ko'zimda , miyamda, yuragimda nima axtarasan, nechuk ketmaysan? qayg'u tutunlari ichra yog'dusiz qolgan ko'zlaring yosh yomg'urlari nechuk to'kadur?»* savollari mazmunini chaqish ham o'quvchilarni anchagina o'ylantiradi. Avval savolning birinchi qismi ustida fikr yuritilib, «Ayol timsoli nega shoirning ko'zi, miyasi, yuragidan nari ketmayapti? Bu yerda gap ayoldami , shoirdami? Balki shoir uni ko'z o'ngidan, ko'nglidan quvib chiqara olmayotgandir? U eli, yurti uchun qayg'uradigan odam bo'lganligi uchun bu vaziyatga , mamlakatdagi holatga befarq qarayolmayotgandir? » degan savollar o'quvchilarni she'r mazmunini anglashga yo'naltiradi. Ana shunda ular Fitratning kimligini anglaydilar ,

uning bitgan satrlari zamiriga singdirilgan shaxsiyati o'sib kelayotgan avlodning ma'naviyati va e'tiqodining sog'lomlashuviga o'z hissasini qo'shadi. Millat ulug'larining o'sib kelayotgan avlod tarbiyasiga ta'siri shu yo'l bilan amalga oshiriladi.

Shundan so'ng o'quvchilar ayolning ko'zlari «yog'dusiz qolgani» haqida o'ylab ko'rishga undaladi. «Insonning ko'zi qachon yog'dusiz q'olishi mumkin? Balki jon jismini tark etgandadir? Yoki inson o'lik singari hissiz, ruhsiz bo'lib qolganidadir? Ayolning ko'zlari nechun yog'dusiz qolgan? Balki u hamma narsasidan, eri, farzandlaridan ma'nan judo bo'lgandandir!? Yoki ularning ham jismi boru g'ururi yo'q, joni boru sha'ni yo'q'ligidan, dillarida g'ayrati yo'q'ligidan ezila yotgandir!? Shu tufayli unga hayotning hech qanday qizig'i qolmagandir!? Shu tufayli jismi boru ruhi yo'qdir!? Shuning uchun ham ko'zlarida ham nur yo'qdir!? Shu sabab ko'zlaridan tinimsiz yosh yomg'irlari to'kilar!?» Bu kabi yo'naltiruvchi savollar shunday qo'yilishi kerakki, o'quvchilar ularni o'qituvchi yetaklab ketayotganini ilg'amasin. Ular go'yo o'zlari kashfiyot q'ilsinlar. Suhbat shunday olib borilishi kerakki, muallif o'quvchilar mustamlaka davridagi o'zbek ayollarining ahvolini anglagani, ular uchun dili og'riganini anglasin, uning asar zamiridagi dard va iztiroblarini his q'ilsin. To'g'ri, o'qituvchilar bular 5 – sinf o'quvchilari uchun murakkab, degan fikr tug'ilishi mumkin. Ammo shuni hisobga olish lozimki, hozirgi o'quvchilarning hissiyoti biz o'ylagandan ko'ra teranroq va chuqurroqdir. Buni amaliyot tasdiqlagan.

«Muallifning: *«Bildim, Bildim, Angladim! Sen mening Vatanimsan, Vatanimning mungli hayolisan»* tarzidagi kashfiyoti nimaga asoslangan? Asar qahramoni bezovta qilgan ayol Vatan ekanligini qanday anglasa bo'ladi?» degan savoliga javob berish uchun o'quvchilar matnga murojaat qilishlari, ayolga xos bo'lgan barcha jihatlar bilan o'sha davrdagi Turkistonning ahvolini taqqoslashlari kerak bo'ladi.

So'ng o'quvchilarga asardagi: *«Eng muqaddas Turonimning xayoli, ketmay tur, ayrilma, Yonimda, ko'zlarimda, yuragimda, vijdonimda qol, ketma Yurtim, Turonim, sendan ayrilmoq-mening o'limim»* tarzidagi xitob mazmunini chaqish vazifasi beriladi. O'quvchilar shu xitob mazmuniga tayangan holda asl o'zbekning, chin o'zbek o'g'lonining shaxsi haqida tasavvurga ega bo'ladilar. Vatanga muhabbat, uning uchun qayg'urish tuyg'usi balandparvoz chaq'iriqlar bilan emas, shunday fikrlarni to'yish orqali shakllanadi. Kishi ko'ngildagi muhabbati haqida hayriq'maydi, uning og'riqlari, iztiroblari haqida jar solmaydi. Ko'ngildagi tuyg'u ikkinchi ko'ngil bilan to'yiladi. Muhabbat shu bilan shakllanadi.

Yuqoridagi faoliyat ta'sirida qalbi uyg'ongan, ruhiy muvozanatdan chiqqan, loqaydlikdan xalos bo'lgan, emotsional holatdagi o'quvchi «Muallif tilidan aytilgan: *«Sening uchun o'lmoq mening tirikligimdur»* shaklidagi xitobning ma'nosini anglating» degan topshiriqni bajaradi. Darsni yakunlashdan avval o'qituvchi *«Men sening uchun o'lurman»* singari otashin ta'kidlar nimani anglatadi? *«Ey, turklikning muqaddas o'chog'i! O'lim*

sening o'limingni istaganlarga , nafrat seni ko'mgani kelganlarga!» chaq'iriq'ning ma'nosi nima? Bunday chaqiriq sizning ko'nglingizda qanday munosabat uyg'otadi? Turklikning muqaddas o'chog'i qayerda deb o'ylaysiz?» kabi savollarni o'rta tashlaydi. Ular ustida ishlash mobaynida o'quvchi murg'ak qalbi bilan nimanidir tuyadi, u soddagina shuuri bilan nelarnidir anglaydi. Bunday savollar adabiy ta'limning maqsadi yo'lida salmoqli qadamlardan biridir.

Dasturda she'rning ikkinchi qismini yod olish talab qilinmagan. Lekin o'qituvchi uning ham yod olinishiga erishishi kerak. Bu hol bolalarda milliy tuyg'ularni , ozodlikka tashnalik ruhining ildizlarini anglash hissini uyg'otadi. O'quvchilar bir oz aqlan zo'riqtirilsa–da , she'rning yod olinishiga erishish faqat foyda keltiradi.

3-ILOVA

Ma'lumki, uzoq xorijiy mamlakatlararo internet aloqalari almashuvida ko'proq eng yirik va nufuzli qidiruv sistemasi bo'lmish "yahoo.com" hamda "rambler.ru" lardan foydalaniladi.¹ Internet sahifalarini yaratish masalasiga kelsak, yaratilgan baytning so'ngida mazkur mamlakatning qisqartirilgan nomini keltirish odat tusiga kirgan. Masalan, AQSH da "us" , Olmoniyada esa "de" . Hamdostlik mamlakatlarida, jumladan Rossiya uchun "ru" , qozog'iston uchun "kz", Qirg'iziston "kg", O'zbekistonda esa "uz" qisqarmalari bilan ifodalanadi. YUNESKOning Qozog'iston Respublikasidagi vakolatxonasi tomonidan yaratilgan qozoqlar tarixiga oid "Heritagenet-History" deb nomlanuvchi sayt (sayt inglizcha so'z bo'lib , sahifa ma'nosini anglatadi. Ammo, u internet sohasida kengroq ma'noni , ya'ni muayyan sohadagi ma'lumotlar majmuini ham bildiradi) berilgan. Unda "Yusuf Balasagunskiy " (Yusuf Bolosog'unii) nomli maqola o'rin olgan. Maqola muallifi turk olimlari R. Arat Dil ocharlarning tadqiqotlariga tayanib, Yusuf Xos Xojibning hayoti va ijodiga oid ma'lumotlarni keltiradi va "Qutadg'u bilig"ni faqat filologik nuqtai nazardan emas, balki keng falsafiy , tarixiy , psixologik va ijtimoiy jihatdan ham tadqiq qilish lozimligini ta'kidlaydi. Maqolada Yusuf Xos Hojib dunyoqarashiga oid qiziqarli kuzatishlar mavjud. Unda bobokalonimiz ijodi sarchashmalarining falsafiy, shomoniyligi va islomiy asoslari borligi aytiladi. Yusuf Xos Hojib Sharq uygonish davrining yirik vakili sifatida tan olinib, Aristotel qarashlarining Sharqdagi Forobiy va Ibn Sino kabi davomchisi ekanligi uqtiriladi. Olmon sharqshunosi Otto Alberts tadqiqotlaridan misol keltirib, ushbu fikrni kengroq asoslashga harakat qilinadi. Asarning shomoniyligi asoslarida esa zardushtiyligi, moniyligi, buddaviyligi kabi diniy, mifologik qarashlarini tadqiq qilish uchun asosli manba bo'lib xizmat qiladi. Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, mazkur internet saytida asarning zamonaviy nashrlari to'g'risida ayrim chalkashliklarga yo'l qo'yilgan. Unda "Qutadg'u bilig" ning Naum Grebnevning amalga oshirgan erkin tarjimai 1971 yilda, Qayum

Karimovning hozirgi o'zbek tiliga tavsifiy tarjimai 1896 yilda chop etilgan, degan noto'g'ri ma'lumot berilgan. Aslida Naum Grebnevning ilk turkiy obidani rus tiliga erkin tarjimai 1959 yili, Qayum Karimovning tarjimai esa 1971 yilda e'lon qilingan.

Qozog'iston internet tarmoqlarida bir necha yillardan beri "Tamur" (Tomir) internet jurnali chop etib kelinadi. Uning 2000 yil 4-sonida Auezxon Kodarning "Istoki stepnogo znaniya (opit filosofii kazakskoy istorii)" nomli maqolasi e'lon qilingan. Muallif "Qutadg'u bilig" qozoq millatining ham asosiy adabiy - tarixiy manbalaridan biri ekanligini ta'kidlaydi. Maqolada asardagi Alp Tunga obraziga munosabat bildirilar ekan, Yusuf Xos Xojib ushbu obrazni forslarda salbiy qahramon sifatini qo'llanilgan Afrosiyobni turkiy adabiyotda ijobiy obraz darajasiga olib chiqqan, degan xulosa qiladi. Shuningdek, Qozog'istonning "Biz & mi" deb nomlanuvchi internet gazetasining 2001 yil 28 avgustdagi 6-(72) sonida "Stepnaya imperiya tyurkov" nomli maqola berilgan. Unda tarixchi olimlar S.G.Kyashtorniy va T.I.Sultonovlarning 1992 yilda "Raun" nashriyotida chop etilgan kitobiga munosabat bildiradi. Maqolada qozog'iston ham X-XI asrlarda qoraxoniylar saltanati tarkibiga kirganligi aytilib, bu davr tarixini o'rganishga asosiy manba Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilig" asari ekanligi ta'kidlanadi.

Rossiya internet tarmoqlarida faoliyat ko'rsatayotgan "Shapito" deb nomlanuvchi saytda "Aql va nodonlik, donolik va xatolar" deb ataluvchi sahifa e'lon qilingan. Ushbu sayt asosan buyuk mutafakkirlar aytgan hikmatlarni muayyan mavzu asosida berish va tavsiflash bilan tanishish. Unda jahon mutafakkirlari qatorida Yusuf Xos Xojib ijodidan ham ko'plab namunalar keltirilgan va munosabat bildirilgan.

Sank-Peterburg universitetining 1999 yil 8 martida chop etilgan 5 (3501)- sonli internet jurnalida Yusuf Bolosog'unij to'g'risida maxsus sahifa berilgan. Unda "Qutadg'u bilig" haqiqatan ham qomusiy poetik asar, deb baho beriladi, uning muallifi esa chinakam shoir, olim deb uqtiriladi. Maqolada shoir ijodidan ko'plab namunalar keltirilib, "Qutadg'u bilig" dagi quyidagi o'git bilan yakunlanadi: "Tug'ilganlar bir kun o'ladi, hayot ham tezda o'tadi, lekin mehr bilan aytilgan so'z hech qachon o'lmaydi va abadiy qoladi."

Shuningdek Evgeniy Plukjnikning "Printsipi" (Tamoyillar) deb ataluvchi saytida inson hayotida muvaffaqiyat qozonish, baxtga erishishning yo'llari, tamoyillari berib yuboriladi. Ushbu sayt o'z mohiyati jihatidan Deyl Karnegi maslahatlariga ham o'xshab ketadi. Muallif o'z saytining "Hushyorlik" faslda rus tilida Yusuf Xos Xojib o'gitlaridan namunalar keltiradi. Bundan tashqari "Personalities U-Z" saytida insoniyat tarixidagi tarixiy shaxslarning solnomasi (Uyg'onish davridan bugungi kungacha) berib boriladi. Undan Yusuf Xos Xojib ham o'rin olgan. Rossiya internet tarmoqlarida Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilig" asari ruscha nashrlarini qayerdan topish mumkinligi to'g'risida ham ma'lumot olish mumkin. Jumladan, "Alib.ru" saytida "Prodaja bukinisticheskix knig" (Eski va nodir kitoblar savdosi) sahifasi berilgan: Unda Yusuf Xos Xojib haqida ".... iz serii

"Literaturnie pamyatniki" (LP)...Tverdiy pereplet, obichniy format . 150 rub. Sostoyanie otlichnoe. Yusuf Balasagunskiy . Blagodatnie znaniya. Malaya seriya. Tiraj 40.000 ekz. M.: Nauka 1982 . 556 str" degan ma'lumot bor. Interetning qulayligi shundaki, unda izlagan kitobni hatto qaysi kitob do'konidan olish mumkinligi to'g'risida ham ma'lumot beriladi. Kamina 2000- yilning o'zida AQSH ning AKSELS tashkiloti o'tkazgan "Ta'limdagi hamkorlik " deb nomlanuvchi Davlat dasturi grantini qo'lga kiritib, Kaliforniya shtatiga borganimda "Qutadg'u bilig" ning amerikalik sharqshunos olim Robert Denkoff amalga oshirgan inglizcha tarjimasini aynan internet orqali topishga muvassar bo'ldim. U Vashington shahridagi Jorjtaun universiteti kutubxonasida ekan. Mazkur nashrdan nusxa olishga muvassar bo'ldim.

Qirg'iziston internet tarmoqlarida "Literatuniy qirgizistan" internet sayti mavjud. 18.10.2002 dagi saytda Sherbuta To'g'ombeyevning tanlangan asarlari e'lon qilingan. Muallif Yusuf Xos Xojibni o'rta asrlar uyg'onish davrining yirik vakillaridan ekanligini ta'kidlab, asosiy e'tiborni "Qutadg'u bilig" ning sof turkiy tilda yozilganligiga qaratadi. Bu bilan u o'sha davrda ham Yusuf Bolosog'unij turkiy tilning forsiy tildan kam emasligini e'tirof etishga harakat qilgan, degan xulosaga keladi. Bundan tashqari , Qirg'iziston internet tarmoq'larida "Shagi istorii" sayti ham mavjud. Unda mamlakat prezidenti Askar Akaevning qirg'izlar tarixiga oid ma'ruzasi berilgan. Sahifada q'irg'iz xalqining ham qoraxoniylar davridagi asosiy tarixiy - adabiy sarchashmasi Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilig" asari ekanligi alohida ta'kidlanadi.

Internetning "yahoo.com" qidiruv sistemasi orqali izlanish olib borilganda Yusuf Bolosog'unij to'g'risida ingliz , olmon, usmonli turk tillarida berilgan 74 ta sayt mavjudligi aniqlandi. Turkiya tashqi ishlar vazirligi tomonidan internet tarmog'iga qo'yilgan "Turklar va Turkiya tarixi" deb ataluvchi saytda turklarning tarixi 4 ming yil deb belgilangan. Unda mazkur tarixning har biri o'sha davrga xos maxsus rasmlar bilan belgilanadi. "Qoraxoniylar" deb nomlanuvchi sahifada Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilig" asariga batafsil to'xtatilingan va bu asar turklarning ham o'sha davrdagi hayoti va davlatchilik tarixini o'rganishda asosiy manba ekanligi e'tirof qilingan.

Metodik tavsiyalar

Umumiy o'rta ta'lim maktablari adabiy ta'limi mazmuni ko'rsatkichlari

Umumiy o'rta maktab har qanday o'quvchi hayotidagi eng shaxslik xislatlari g'oyat intensiv shakllantirilishi lozim.

Umumiy o'rta ta'lim bosh murakkab va hal qiluvchi davrni o'z ichiga oladi. Bu davr mobaynida shakllantirilgan ma'naviy xislatlar bolalarga bir umrlik hamroh bo'lganidek, singdirilmagan axloqiy fazilatlarga keyinchalik ega bo'lish

deyarli mumkin emas.Shuning uchun ham bu davrda bolalarning kuchi, o'quvchilarining ruhiy-jismoniy xususiyatlari shundayki, ularga pand -nasihat qilish,aql o'rgatish kutilganidan teskari natija berishi mumkin.Ayni vaqtda,ezgu ma'naviy fazilatlar,go'zal insoniy amallar bevosita ko'rsatilsa va o'quvchilarga tiqishtirilmasdan tabiiy ravishda ularning ruhiyatlariga singdirilsa, bu fazilat hamda amallar yoshlar tabiatining ajralmas xususiyatlariga aylanishi mumkin bo'ladi.

Umumiy o'rta maktab adabiy ta'limi ta'lim jarayonining alohida bir sohasi hisoblanadi.Shuning uchun ham bu davrdan boshlab turli sinfdagi o'quvchilar ongiga aniq talablar majmuini qo'yish va turli bosqichlarning standart ko'rsatkichlarini konkret belgilash mumkin bo'ladi.

Umumiy o'rta maktab bitiruvchisi : -badiiy matnni ,tez va ifodali o'qishi;

-o'rganilgan badiiy asar qahramoni holatini his etishi va hissiyotini o'zgalarga muayyan darajada yetkaza olishi;

-o'rganilgan badiiy asarning qahramonlariga xos eng muhim xarakter xususiyatlarini farqlashi;

-badiiy asar qahramonlari hatti harakatlari va tuyg'ulariga o'z munosabatlarini bildirsa olishlari;

-o'rganilgan badiiy asardagi eng yorqin badiiy tashbehlarni,ifodalarni payqashi;

-o'qituvchi ko'magida o'rganilgan badiiy asar zamiridagi ma'noni ilg'ashi,so'zni his qilishi;

-qo'shiq,topishmoq, maqol,masal,afsona ,rivoyat...adabiy doston singari adabiy janrlar haqida dastlabki ma'lumotlarga ega bo'lishi;

-she'r ,she'riy nutq tabiat lirikasi,sifatlash haqida ibtidoiiy tushunchalrga ega bo'lishi va badiiy asarlar bilan tanishish jarayonida bilganlarini qo'llashga urinib ko'rishi;

-o'z hayotini,hatti-harakatlarini ijodi o'rganilayotgan adibning hamda badiiiy asar qahramonlarining hayoti,hatti-harakatlari bilan solishtirilishi va muayyan xulosalar chiqara olishi;

-lirik asarlarda aks etgan shoirona tuyg'u haqida tasavvurlarini ifodalay olishi;

-o'rganilgan badiiy asarlardagi yoeqin obrazlar va borliq tashbehlarni payqashi hamda ular haqida fikr bildirsa olishi;

-turli hajmdagi 12-15 badiiy matnni yod bilishi va ularni ifodali o'qiy olishi;

-rang tasvir asari zamiridagi badiiy jozibani,ranglar uyg'unligi va xilma -xilligini ko'ra olishi;

-istalgan hayotiy hodisa yuzasidan ijodiy insho yoza olishi;

-hajviya, hikoya,jangnoma, pandnoma,masnaviy ,tuyuq ,g'azal, musaddas suingari adabiy janrlarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishi va nazariy bilimlarni kitobxonlik amaliyotiga erkin tadbiiq eta olishi;

-qofiya,syujet ,tazod, tashbeh, jonlantirish kabi badiiy tasvir vositalarining o'ziga xos jihatlarini bilishi va didaktik tahlil jarayonida foydalana olishi;

O'quvchilarning tayyorgarlik darajasini aniqlash

Davlat ta'lim mezonlarini ishlab chiqish va uni barkamol shaxs tarbiyasiga yo'naltirishda tarbiyalanuvchilarning tayyorligi darjasini aniqlash mexanizmini ishlab chiqish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tarbiya amaliyoti sistemasi, pedagogika ilmi taraqqiyoti tarbiyalanuvchilar hozirligini aniqlashning xilma-xil vositasi va ularni taqdim etmoqda.

Tarbiyalanuvchilarning tayyorlik darajalarini aniqlashning eng samarali usuli bahodir. Adabiy ta'limda "baho" faqat o'zlashtirilgan bilim, egallangan ko'nikma va malakalarnigina emas balki o'quvchilar tabiatiga singdirilgan ma'naviy fazilatlarni ham o'lchash vositasi hisoblanadi. Shuning uchun ham adabiyot o'qituvchisi bahoni o'quvchilarning badiiy matn, adabiy tushuncha, yozish ko'nikmasi hamda so'zlash malakasiga qanchalik egaliklarinigina emas balki ularga rostgo'ylik, kamtarlik, tantilik, jonkuyarlik, mehribonlik singari fazilatlarning nechog'li singdirilganligiga ham qo'yishi maqsadga muvofiqdir.

Ta'lim standartlarida erishilishi ko'zda tutilgan natijalar eng quyi ko'rsatkichlar bo'lganligi uchun ham ularni egallagan talablarga "o'rta" baho qo'yish, o'zlashtirish minimumdan oshib borgani sayin bahoni ko'tarish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Adabiy ta'lim bo'yicha standart talabini tekshrish umumiy o'rta maktablarni bitirganda o'tkazilishi lozim.

Standart talablarini tekshirish metodikasi boshqa rivojlangan mamlakatlardagi singari ochiq bo'lishi, ya'ni har xil shakllarda (test, talablar, reyting va metodik qo'llanmalar shaklida) matbuotda e'lon qilinishi yoki alohida kitoblar shaklida mutasaddilarga yetkazilgan bo'lishi lozim. Har bir o'quvchi ta'limning bir bosqichini muvaffaqiyatli bitirishi uchun qanday shaxslik xususiyatlar hamda qay darajadagi minimal adabiy tushunchalarga ega bo'lishi zarurligini bilishi va o'zini shu ko'rsatkichlar talabiga javob bera oladigan darajada tayyorlashi kerak.

Shuni aniq aytish kerakki, maktablarda adabiy ta'lim standartlarining o'zini bevosita sinovdan o'tkazish ham, uning talablariga amal qilish natijalarini aniqlash ham mumkin emas. Buning uchun adabiyot bo'yicha DTS talablariga muvofiq keladigan dastur, darslik va o'zga didaktik ashyolar yaratish hamda sinovda o'tkazish jarayonida ularning "Umumiy o'rta ta'lim" Adabiyot" dasturlari uchun davlat standarti" talablariga nechog'li mos kelishini aniqlash mumkin.

Adabiy ta'lim bo'yicha IX sinf bitiruvchisiga qo'yiladigan talablar:

Umumiy o'rta ta'lim maktablarini bitiruvchilar:

- biror matnni to'g'ri, tez va ifodali o'qiy olsa;
- 4-5 badiiy matnni yoddan aytib bera olsa;
- mumtoz adabiyot janrlari bilan zamonaviy adabiyot janrlarini farqlay olsa;
- badiiy tasvir vositalari haqida badiiy matnga tayangan

holda fikr yurita olsa va tahlil jarayonida ulardan foydalana olsa;

- murakkab insoniy tuyg'ular va hissiy kechinmalar xususida fikr yurita olsa;

- turli mavzularda insho yoza olsa ;

- o'rganilgan adiblar tabiatiga xos bo'lgan xislatlarni baholay olsa;

- adabiy qahramonlarning hatti-harakatlariga munosabat bildirsa olsa va fikrini asoslay olsa;

- o'rganilgan asarlarda tasvirlangan badiiy timsollar mohiyatiga xos bo'lgan xislatlarni anglab, ularga munosabat bildirsa olsa;

- o'rganilgan badiiy asarlar timsollarining tabiatdagi milliy xususiyatlarini anglay olsa;

- adabiyot nazariyasiga doir bilimlarni kitobxonlik amaliyotida mustaqil qo'llay olsa;

- adabiyotdan tuzilgan o'rtacha murakkablikdagi testlarni qiynalmay yecha olsa, o'zlari uchun akademik litseylar yoki kasb-hunar kollejlarda bilim olish imkoniyatini yaratgan bo'ladilar.

